

A. RAFIYEV, G. MUXAMEDJANOVA

O'ZBEK TILI

*Ta'lim rus va qardosh tillarda olib
boriladigan maktablarning
9- sinfi uchun darslik*

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi nashrga tavsiya etgan*

Qayta ishlangan 4- nashri



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2019

UO‘K: 811.512.133

KBK 81.2.O‘zb

R 27

Aziz o‘quvchilar!

O‘zbek tilida erkin muloqotga kirishishni o‘rganib, bilimlaringizni yanada oshirishga intilyapsiz. 9-sinfda o‘zbek tilidan og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalaringizni o‘stirish maqsadida yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalarni o‘zlashtirasiz.

Nutqiy mavzularni izchil va oson o‘zlashtirishingizni ko‘zda tutib, mavzularni 2 – 3 darsga ajratgan holda tavsiya etdik. Mavzu doirasida unga xos nutqiy qoliplarni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, dialog, mashqlar va uy vazifasini bajarasiz.

O‘quvchilar, nutqingizni yuqori darajada o‘stirish, avvalo, o‘zingizga bog‘liq ekanligini aslo unutmang. Darsda faol bo‘lishga intiling!

Taqrizchilar: O‘. Lafasov — Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, turkiy tillar kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O. Yo‘ldosheva — TDTU qoshidagi kompyuter texnologiyalari akademik litsey o‘qituvchisi.

M. Isrofilova — Sirg‘ali tumanidagi 301-maktab o‘qituvchisi.

D. Izbosarova — Sirg‘ali tumanidagi 104-maktab o‘qituvchisi.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

	Bilib oling!		Uyga vazifa
	Topshiriq		Adabiy o‘qish
	Mashq		Lug‘at
	Mustaqil ish		Matn yuzasidan savol va topshiriqlar
	Bilasizmi?		Yodda tuting!

O'ZBEKISTON – UMUMIY UYIMIZ (Shaxsi ma'lum gaplar)

1-dars

 **1-topshiriq.** Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.



Yurt obodligi uchun, birinchi navbatda, tinchlik va millatlararo totuvlik kerak. Davlatimizning e'tibori va g'amxo'rligi tufayli biz qaysi millat va elat vakili bo'lmaylik, shu yurtida tenglikda, ahil-inoqlikda umrguzaronlik qilyapmiz. Hukumatimiz tomonidan Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilgan. Konstitutsiyamizda insonning irqi, millatidan qat'i nazar qonun oldida tengligi kafolatlangan. Bu ishlarning samarasini bugun barchamiz ko'rib-bilib turibmiz. Ayni paytda, yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatning o'z madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini to'la namoyon etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Lugʻat

davlat – государство
urf-odat – обычай
millat – национальность
madaniyat – культура
shart-sharoit – возможность

yurt – Родина
qonun – закон
ahil – дружно
markaz – центр
kafolat – гарантия

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Oʻzbekistonda qanday millat vakillari yashaydi?
2. Oʻzingiz bilgan millat vakillarini sanab bering.
3. Qaysi millatlarning qanday milliy urf-odatlarini bilasiz?

Bilib oling!

Shaxsi (egasi) maʼlum gaplarning kesimi shaxs-son qoʻshimchalaridan birini olgan boʻlib, egasi matndan, nutq vaziyatidan maʼlum boʻladi. Bunday gaplarning kesimi, asosan, I va II shaxs shaklida qoʻllanadi. Masalan: Oʻz Vataningizni seving. (egasi – siz) Xalqimiz va Vatanimizga sadoqatli farzand boʻlamiz. (egasi – biz)



1-mashq. Gaplarni koʻchiring. Ega va kesimlarning qaysi soʻzlar bilan ifodalanganligini aniqlang.

1. Har birimiz shu yurtida ulgʻayib, bilim olganmiz. 2. Qozoq millatiga mansub oilalar Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlarida koʻpchilikni tashkil qiladi. 3. Totuvlik va hamkorlik taraqqiyotning muhim shartidir. 4. Qoʻshnim Andrey Qorasaroy mahallasida tugʻilgan. 5. Zayniddin uzumchilikda katta tajriba toʻplagan.



2-topshiriq. Suhbat matnlarini davom ettiring. Savol va javoblarning ega hamda kesimini aniqlang.

1. – Kechirasiz, siz shu reys bilan Nukusga uchasizmi?
– Ha,
– Bir iltimosim bor edi: shu xatni bir doʻstimga yetkazib bersangiz.

- Yaxshi, ammo uni tanimayman-ku!
 - U sizni kutib turadi. Uzun bo‘yli rus yigiti, mallasoch.
 - Bo‘ldi, eslab qoldim. Uning ismi nima?
 - Igor Ivanov. Unga telefon qilsangiz, sizni kutib oladi.
2. – Shirin, Toshkentdagi rus drama teatrini bilasanmi?
- Bilaman.
 - Qaysi spektakllarni tomosha qilgansan?
 -



2-mashq. Berilgan fe‘llarga I va II shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘yib, gaplarni to‘ldiring, shaxsi ma‘lum gaplarga aylantiring.

Foydalanish uchun fe‘llar: *chiqmoq, aniqlamoq, tuzmoq, tashkil etmoq, o‘tmoq.*

1. Matndagi topshiriq asosida o‘zbek shoir va yozuvchilarining ro‘yxatini
2. Tog‘ning eng yuqori qismiga
3. Yagona mahsulot ishlab chiqarish uchun uyushgan korxonalar birlashmasini
4. Daryoning boshlanadigan qismini
5. Yo‘llarning kesishgan joyidan



Uyga vazifa. Vatan haqidagi maqollardan to‘rttasini toping va yozing.

2-dars =====



3-topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Bu yurt – barchamizniki

O‘zbekiston tuprog‘ida qadimdan turli elat va qabilalar, millatlar yashagan. Bular sak, massaget, eroniy (forslar), turk, qipchoq, qarluq, qo‘ng‘irot, mang‘it, uyg‘ur, tatar kabi yuzga yaqin nomlar bilan yuritilgan. Ular birgalikda mehnat qilishgan, yurt ozodligi uchun kurashganlar. Tarixdan bunga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yashovchi millatlar o‘rtasida do‘stlik yanada mustahkamlandi. Yurtimizda turli millat vakillari ahil va inoq yashashmoqda. O‘zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik,

turkman, tatar, koreys kabi turli millat vakillari bir jamoada ishlashsa, bir-birlariga mehribon bo'lishsa, qanday yaxshi! Millatlar, xalqlar do'stligi yengilmas kuchdir. Bu tinchlik va farovonlik ramzi hamdir.

O'zbekistonda tug'ilgan, unda yashayotgan har qaysi millat vakili shu yurtning farzandi hisoblanadi. Demak, bu yurt barchamiznikidir. Shuning uchun uning istiqboli, yer-u mulki, obodligi ham barchamizga birday daxldor.

(„*Vatan tuyg'usi*“ kitobidan)

Lug'at

qadimdan – с древних времён

millat vakillari – представители наций

birgalikda – вместе, совместно

farovonlik – благополучие

yengilmas – непобедимый

ramz – символ

birday – одинаково, равномерно

daxldor – относящийся, касающийся

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Millat, do'stlik, teng, mustahkamlanmoq, barchamiz so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.
2. „Millatlar, xalqlar do'stligi yengilmas kuchdir“ gapiga izoh bering.
3. Matn mazmuni yuzasidan savollar tuzing.
4. Matndan shaxsi ma'lum gaplarni topib yozing.



3-mashq. Shaxsi ma'lum gaplarni daftaringizga ko'chiring va egasini qavs ichiga yozib qo'ying.

Namuna: Sayohatga qayerga borasiz? (siz)

1. Berilgan vazifani o'z vaqtida bajarish kerak.
2. Ona shahrimiz bilan faxrlanish kerak.
3. Shunday go'zal qishloqni ko'rganmisiz?
4. Vatanimizga sadoqatli farzandlar bo'lishga harakat qilamiz.
5. Bu qishloqda qurilgan zamonaviy uylarda turli millatlar yashaydilar.
6. Yurtimiz tinchligi va obodligiga munosib hissa qo'shamiz.
7. Sinfimiz o'quvchilari ta'tilda Buxoroga sayohat qilmoqchilar.



4-mashq. Shaxsi ma'lum gaplarni toping, ko'chirib yozing.

1. Bugun Qo'qonga jo'naymiz. 2. Shaftolizor bog'larni ko'rdim. (H.O.) 3. Topshiriqni o'z vaqtida bajaraman. (O'.H.) 4. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. 5. Ko'rkamgina yigit do'konga shoshilib kirdi. 6. Sizga dunyodagi jamiki ezgu tilaklarni tilayman. 7. Hamid Olimjon shoirgina emas, mohir tashkilotchi ham edi.



5-mashq. Maqollarni o'qing va daftaringizga ko'chiring.

1. Har gulning o'z isi bor,
Har elning o'z tusi bor.
2. Vatanning tinch – sen tinch.
3. Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning taxti.
4. To'pdan ayrilgan to'rga tushar.
5. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.



Uyga vazifa. 5-mashqda berilgan maqollarni yod oling va mazmunini izohlang.

3-dars



Adabiy o'qish



4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Tayanch so'zlarni topib, lug'at tuzing. Ma'nosini so'zlab bering.

Vatanni his etish

Jahon ayvonida gullagan yurtim,
Bag'ringda quyoshning mehrini ko'rdim.
Tog'laringda tuydim qudrat, sabrni,
Qalbingga joylabsan ikki nahrni.

Vodiylaring misli go'zal kelinchak,
Bog'larda shabboda o'ynar belanchak.
Dashting, sahrolaring – behuda kenglik,
Qalbingday bepoyon – osmonga tengdek.

Momolar ertagin tinglab, yondim men,
Tarix bulog‘idan ichib, qondim men.
Dilimga sig‘dirdim seni boricha,
Buncha tabarruksan, ulug‘san buncha....

Humoyun



5-topshiriq. Matnni o‘qing. Tayanch so‘zlarni topib, lug‘at tuzing.

Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha insonlar, millatidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasining teng huquqli fuqarolaridir. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, an‘ana va qadriyatlari, urf-odatlarini asrab-avaylash, ravnaq toptirish uchun zarur imkoniyatlar yaratish konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan. Mustaqillik yillarida erishgan eng katta boyligimiz – xalqimizning tinch va osuda hayotidir. Jamiyatimizdagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va bag‘ri kenglik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg‘unlik tamoyili tobora mustahkamlanib bormoqda. Bugungi kunda yurtimiz jahon hamjamiyatida ko‘p millatli davlatlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.



6-mashq. Maqollarni ifodali o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

Ayrimagin elingdan, quvvat ketar belingdan.

Elga el qo‘shilsa, el boyligi.

Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan.

Kishilarga muhabbat – eng yaxshi odat.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nima uchun Vatanni yagona deymiz?
2. Shaxsi ma‘lum gapning egasini qanday aniqlash mumkin?
3. Mahallangizda yashovchi millatlarning qaysi an‘analarini bilasiz?
4. Shaxsi ma‘lum gaplarga misollar keltiring.



Uyg‘a vazifa. „O‘zbekiston-umumiy uyimiz“ mavzusida shaxsi ma‘lum gaplar ishtirokida bog‘lanishli matn tuzing.

ILM – TARAQQIYOT NEGIZI (Shaxsi topilmas gaplar)

1-dars

 **1-topshiriq.** Rasmlar asosida berilgan tayanch soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.



Foydalanish uchun soʻz va soʻz birikmalari: *bolalar, kutubxona, maktab, ilm, litsey, bilim, bino, taraqqiyot, insoniyat, bilmoq, intilmoq, makon, mustaqillik, oʻquvchilar, tufayli.*

 **2-topshiriq.** Savollar asosida bahs-munozara oʻtkazing.

- Ilm deganda nimani tushunasiz?
- ...
- Nima uchun bilimni xazina deb bilamiz?
- ...
- Ilmning taraqqiyotga qanday aloqasi bor?
- ...
- Insoniyat erishgan yutuqlar va hozirgi taraqqiyot nimaning natijasidir?
- ...
- Ilmli boʻlish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak, deb oʻylaysiz?
- ...

Bilib oling!

Shaxsi topilmas gaplar egasini topib ham, gap tarkibiga kiritib ham bo'lmaydigan gaplardir. Masalan: *U yerda intizom haqida so'zlashga to'g'ri keldi.*

Shaxsi topilmas gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatdagi fe'llar, **bo'ladi, bo'lmaydi** so'zlari, **-mas** qo'shimchali so'z, harakat nomidan keyin **kerak, zarur, lozim, mumkin** so'zlarini keltirish orqali ifodalanadi. Masalan: *Muammoni shu yo'l bilan hal qilsa bo'ladi. Bu topshiriqni puxta bajarish kerak.*



1-mashq. Berilgan so'zlar yordamida shaxsi topilmas gaplar tuzing.

bo'ladi, bo'lmaydi, borish lozim, bajarish shart, so'rash joiz, asramoq darkor, qilsa bo'ladi.



2-mashq. Ilm haqidagi gaplarni ko'chirib yozing va o'z fikringizni og'zaki bayon qiling. Shaxsi topilmas gaplarni toping.

Ilm va uning xosiyatlari

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatdadirlar. Shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'lish kerak.

Ilmsiz inson – mevasiz daraxt. Demak, hamisha ilmlilar safida bo'lishga intilmoq lozim.

Ilm martabasi martabalarning eng zo'ridir. Shu sababli yoshlikdan ilm olish payida bo'lish zarur.

Ilm – saodatga yo'llovchi mash'al. Shu tufayli uning insonlar hayotidagi o'rni nihoyatda katta.

Beshikdan to qabrgacha ilm izlamoq darkor.



Uyg'a vazifa. „Ilm – taraqqiyot negizi“ mavzusida shaxsi topilmas gaplarni qo'llab, matn tuzing.

2-dars



3-topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.

- Karim, bugun darsdan keyin nima qilmoqchisan?
- Bugun darsdan keyin kutubxonaga boraman. O'zing-chi?
- Men kafega boraman. Yur men bilan, birga boraylik.

– Kafeda nima qilasan? Yaxshisi, birga kutubxonaga bora qolaylik. Ertaga o‘zbek tili darsimiz bor. „Afrosiyob“ haqida ma’lumot yig‘ishimiz kerak.

–



4-topshiriq. O‘qing va matn asosida berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Inson qadri bilimda

Insoniyat yaratilibdiki, bilishga, o‘rganishga intiladi. Chunki qiziqish insonlarga xos, aql-idrok va bilim egasi bo‘lgan har qanday inson sharaflidir. Bilim egasi o‘z tilaklariga yetadi, orzu-maqсадlariga erishadi. Bilim egalari elda aziz bo‘ladi. Barcha murakkab ishlarni bilim bilan hal eta oladi.

Bundan tashqari, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrni ilmi va bilimli insonlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ular taraqqiyotning negizi hisoblanadilar. Shunday ekan, ilm olish uchun hamisha izlanish, o‘qish, o‘rganish kerak. Ilm cho‘qqilarini zabt etish yo‘lida charchamaslik lozim. Ko‘p bilish uchun ko‘p o‘qish kerak. Ko‘p o‘qigan – ko‘p biladi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. „Ular taraqqiyotning negizi hisoblanadi“ jumlasini qanday tushunasiz? Izoh bering.
2. Qanday inson sharaflidir hisoblanadi?
3. Bilim egalari qanday fazilatlariga ega bo‘lishi lozim?
4. Matn mazmunini qayta hikoya qiling.



3-mashq. Yuqoridagi matndan foydalanib, nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. Shaxsi topilmas gaplarni toping.

Insoniyat yaratilibdiki, ... , o‘rganishga intiladi. Chunki qiziqish insonlarga xos, aql-idrok va bilim egasi bo‘lgan har sharaflidir. Bilim egasi o‘z tilaklariga yetadi, Bilim egalari elda aziz Barcha murakkab bilan hal eta oladi. Shunday ekan, ilm olish uchun hamisha izlanish, o‘qish, Ilm cho‘qqilarini zabt etish yo‘lida Ko‘p bilish uchun ko‘p

 **4-mashq.** Quyida berilgan gaplardan shaxsi ma'lum va shaxsi topilmas gaplarni topib, ikki ustunga ajratib yozing.

1. Topshiriqni o'z vaqtida bajarang.
2. Vazifani bajarish kerak.
3. Yetti o'lchab, bir kes.
4. To'garakka borish kerak.
5. Xonaga kirgan avval salom beradi.
6. So'zimning ustidan chiqaman.
7. Majlisda tartib-intizom haqida so'zlashga to'g'ri keldi.
8. Ertaga yakuniy test sinovidan o'tamiz.

 **Uyga vazifa.** Ilm-fanga oid qaysi sohalarni bilasiz? Ularning nomini lug'at tartibida yozib, izohlang.

3-dars

Adabiy o'qish

 **5-topshiriq.** Matnni ifodali o'qing. Mazmunini „zanjir“ usulida so'zlab bering.

„..... Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan ayirib berur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir...“

Abdulla Avloniy

 **6-topshiriq.** Matnni o'qing va matn asosida topshiriqlarni bajaring.

O'quv qut beradi, bilim sharaf-shon,
Shu ikkovi tufayli ulug'dir inson.

Yusuf Xos Hojib

Bilim va uning yuqori pog'onasi ilm – ma'naviyatning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib, insonni kamolotga yetaklaydi. Unga hurmat va e'tibor keltiradi. Bilimli kishilar samarali ijodiy va ilmiy ishlari bilan el orasida hurmat topadilar. Jamiyatning rivojlanishiga, millatining, vatanining obro'siga o'z hissalarini qo'shadilar. Yoshlarning

bilim olishi, salohiyatli fuqaro bo'lib ulg'ayishi el-yurt manfaati uchun xizmat qiladi. Ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish hamma zamonlarda dolzarb sanalgan.

Lug'at

ulug' – великий

yuqori pog'onasi – высшая ступень

muhim tarkibiy qism – важная составная часть

hurmat – уважение

jamiyatning rivojlanishiga – для развития общества

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yusuf Xos Hojib „Shu ikkovi tufayli ulug'dir inson“ deganda nimalarni nazarda tutgan?
2. Kamolotga yetishish uchun inson nimalar qilishi kerak?
3. Bilimli kishilar qanday ishlari bilan el orasida hurmat topadilar?
4. Yoshlar Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shishlari uchun qanday ishlarni amalga oshirishlari lozim?



5-mashq. Gaplarni ko'chiring va notanish so'zlarning lug'atini tuzing.

Ilm olish, o'rganish aslo ayb emas, uning erta-kechi yo'q. Insonlar butun hayoti davomida o'qishi, o'rganishi kerak.

Ilm-u tafakkur kishini ezgulikka boshlaydigan beqiyos kuch. Ilm va tafakkur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan buyuk mo'jizadir.



6-mashq. Berilgan gaplarni shaxsi topilmas gaplarga aylantirib, daftaringizga ko'chiring.

1. Biz dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga boramiz. 2. O'quvchilar berilgan topshiriqni vaqtida bajarishdi. 3. Bugun to'garakka borishimiz lozim edi. 4. „Davlat tili to'g'risida“gi Qonunga rioya qiling. 5. Ertaga „Bilimlar bellashuvi“ ko'rik-tanloviga boramiz. 6. So'-zimning ustidan chiqaman. 7. Dushanba kuni o'zbek tili to'garagiga boraman.



7-topshiriq. Maqollarni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Davlat tugar, bilim tugamas.

* * *

Go‘zallik – ilm-u ma’rifatda.

* * *

Ilm – aql bulog‘i,
Aql – yashash chirog‘i.

* * *

Ilm istasang, takror qil.

* * *

Ilm ko‘p, umr oz,
Keragini o‘qi.

* * *

Ilm olishning erta-kechi yo‘q.

* * *

Ilm – tubsiz quduq.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Shaxsi topilmas gaplar deb qanday gaplarga aytiladi?
2. Bilimning hozirgi davrda ahamiyati qanday?
3. „Bilimsiz bir yashar, bilimli ming yashar“ deganda nimani tushunasiz?



Uyga vazifa. Borish kerak, bajarish lozim, o‘qish darkor fe’llari ishtirokida gaplar tuzing.

MEN YOQTIRGAN KASB (Shaxsi umumlashgan gaplar)

1-dars

 **1-topshiriq.** Berilgan savollarga ogʻzaki javob bering.

- Qanday kasblarni yoqtirasiz?
- Kelajakda qanday kasbni egallamoqchisiz?
- Tanlagan kasbingiz yurtimiz ravnaqi uchun qanday foyda keltirishi mumkin?
- Kasb tanlashda nimalarga eʼtibor berish kerak, deb oʻylaysiz?
- Farzandlarning kasb tanlashida ota-onaning oʻrni bormi?

Bilib oling!

Mazmunan har uchala shaxsga taalluqli gaplar shaxsi umumlashgan gaplardir. Bunday gaplarning kesimi II shaxs buyruq maylidagi feʼllar bilan ifodalanadi. Masalan: *Nima **eksang**, shuni **oʻrasan**. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda **boʻl**.*

Shaxsi umumlashgan gaplar koʻpincha maqol va hikmatlarda uchraydi. Bunday gaplarning kesimi boʻlishli va boʻlishsiz shaklda qoʻllanadi. Masalan: *Sayoq **yurma**, tayoq **yeysan**.*

 **1-mashq.** Berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, maqollarni koʻchiring.

1. Befoyda soʻzni aytma, foydali soʻzdan
2. Dangasaga ish buyursang, senga aql
3. Gapirganing kumush, gapirmaganing
4. Achchiq savol berib, shirin javob
5. Tiling bilan dilingni bir

Foydalanish uchun soʻzlar: *tut, kutma, qaytma, oltin, yechma, oʻrgatar.*

 **2-mashq.** Nuqtalar oʻrniga quyida berilgan soʻzlardan mosini zarur shaklda qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Inson oʻz oldiga qoʻygan maqsadi sari hamisha ... lozim.
2. Dunyoda kasblar koʻp, agar siz biror kasbga ..., uning mohir ustasi ... kerak.
3. Xalqimizda nimani ..., shuni ... degan maqol

bor. 4. Inson o'z hayot yo'lini to'g'ri topishi uchun, o'z istagi va qobiliyatiga yarasha kasbni ... lozim bo'ladi. 5. Mazmunli va yaxshi yashashni istasangiz, puxta bilim oling, ana shunda o'z maqsadingizga ... 6. Mening kasbim, ehtimol, senga 7. Yoqtirgan ishingga mehr

Foydalanish uchun so'zlar: *intilmoq, qiziqmoq, bo'lmoq, ekmoq, qo'yishing kerak, o'rmoq, tanlamoq, erishmoq, yoqmoq.*



2-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan savol va topshiriqlarni bajar-ing.

Dunyoda shifokor, o'qituvchi, haydovchi, artist, quruvchi, arxitektor, tadbirkor, hisobchi kabi kasblar ko'p. Ammo kimdir o'z kasbi tufayli kamol topib, yuksak maralarga erishadi, kimdir esa yo'q. Inson kasbni o'z qobiliyati, intilishi va qiziqishiga qarab tanlasa, o'z kas-bining mohir ustasiga **aylanadi**.

Men kurash bo'yicha sport ustasiman, sport maktabida o'quvchilarga kurashdan **saboq beraman**. Maktabda o'qib yurgan chog'imdanoq sport to'garagi, ya'ni kurashga **qatnashganman**. Sport bilan muntazam shug'ullanganim uchun ham sog'lom, ham baquvvat bo'lib, mahoratim oshib borardi. Ota-onam mening bu qiziqishimni ko'rib, meni qo'llab-quvvatlashdi hamda bu kasbni egallashimda eng yaqin ko'makchimga aylanishdi.

Bugungi kunda o'z kasbim, sport bo'yicha jahon musobaqalarida qatnashganim va bugungi kungacha erishgan yutuqlarim hamda o'z shogirdlarim bilan **faxrlanaman**. Agar mendan „Kasbingiz nima?“ deya so'rasha, ko'ksim g'ururga to'lib: „Sport boyicha yoshlar murabbiysiman“, deya olaman. Men o'z tanlagan kasbimdan juda mamnunman.

Lug'at

mohir usta – умелый мастер

qo'llab-quvvatlashdi – поддерживали

qobiliyat – талант, способность

ko'makchimga aylanishdi – стали помощниками

faxrlanaman – горжусь

yoshlar murabbiysi – наставник молодежи

mamnun bo‘lmoq – быть довольным
mahorati oshmoq – повышение мастерства

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ajratilgan so‘zlar ishtirokida shaxsi umumlashgan gaplar tuzing.
2. „O‘z kasbining mohir ustasi“ jumlasiga ta’rif bering.
3. Inson kasbi tufayli qanday yutuqlarga erishadi?
4. Inson o‘z kasbidan faxrlanishini qanday tushunasiz?
5. Siz o‘zingizni qanday kasbda tasavvur qilasiz?

 **Uyga vazifa.** O‘zingiz yoqtirgan kasb haqida matn tuzing.

2-dars

 **3-topshiriq.** Berilgan rasmlar asosida suhbatlashing.



 **3-mashq.** Kasblar haqida partadoshingiz bilan namunadagidek dialoglar tuzing va ular asosida suhbatlashing.

- Feruza, sen qaysi kasbni yoqtirasan?
- Tikuvchilik kasbini juda yoqtiraman. Shu maqsadda tikuvchilikni o‘rganmoqchiman. O‘zing-chi, kim bo‘lmoqchisan?

– Menga yangi model va maketlar yoqadi. Shuning uchun dizayn yo‘nalishida o‘qimoqchiman.

 **4-mashq.** Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri tartibda joylashtirib, maqollar hosil qiling.

1. Ishni, qo‘yma, bugungi, ertaga. 2. O‘lchab, bir, kes, yetti. 3. Ko‘p, so‘rama, bilgandan, so‘ra, ko‘p, yurgandan. 4. O‘rgan, ishla, bilmasang, bilsang. 5. Shoshilma, bajarishga, berishga, va‘dani, shoshil, va‘da. 6. Savol, shirin, kutma, achchiq, berib, javob.

 **5-mashq.** Nuqtalar o‘rniga berilgan fe‘llarni zarur shaklda qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Hurmat ... (qilmoq), hurmat ... (ko‘rmoq). 2. Sabr ... (qilmoq), murodga ... (yetmoq). 3. O‘z haddingdan ... (oshmoq), jazosini ... (tortmoq). 4. Sayoq ... (yurmoq), tayoq ... (yemoq). 5. Oltin ... (olmoq), duo ... (olmoq). 6. Nima ... (ekmoq), shuni ... (o‘rmoq). 7. Salobatli ... (bo‘lmoq), ... sabotli (bo‘lmoq).

 **4-topshiriq.** Matnni o‘qing va matn asosida berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Kasbning yaxshi-yomoni bo‘lmas

Men 9-sinfda o‘qiyman. Barcha tengdoshlarimning kasbga bo‘lgan qiziqishlari turlicha. Kimdir tadbirkor, kimdir shifokor, yana biron bank xodimi, kimdir esa uchuvchi bo‘lishni orzu qiladi. Xullas, orzularimiz bir dunyo.

Men yoshligimdan samolyotlarga juda qiziqaman.

O‘zbek tili darsida o‘qituvchimiz „Kim bo‘lsam ekan?“ mavzusida ijodiy ish yozib kelishimizni uyga vazifa qilib berdilar. Menga navbat kelganda ustozimiz yozganlarimga ko‘z yugurtirib chiqdilar-da:

– Qani, Bahodir, hammaga o‘qib ber, – dedilar. Men ham baland ovozda o‘qiy boshladim: „Men kelajakda mashina ta‘mirlovchi usta bo‘lmoqchiman...“ Sinfda baravariga kulgi ko‘tarildi. O‘qishdan to‘xtab qoldim.

– Nega kulyapsiz? – hayron bo‘ldilar ustozimiz. – Agar bilsangiz, Bahodir samimiy va chin dildan yozgan, – deya meni maqtadilar.

– Kasbning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, orzuga ayb yo‘q, ammo

istak, xohishning o'zi kifoya qilmaydi. Har bir kasb egasi bo'lish uchun qanchadan qancha mehnat, izlanish, sabr-toqat va mahorat talab etiladi. „Intilganga tole yor“, deyishadi. O'z maqsadingiz yo'lida hech vaqt adashmang, – deya so'zlarini tugatdilar.

Men chin ko'nglimdan o'zim yoqtirgan kasb haqida yozganimdan xursand edim.

Lug'at

ko'z yugurtirib – просматривать

mashina ta'mirlovchi – мастер по ремонту машин

samimiy – искренний

istak, xohish – желание

izlanish – искание

maqsadingiz yo'lida – на пути достижения цели

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. „Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmaydi“ gapiga izoh bering.
2. „Intilganga tole yor“ jumllariga ta'rif bering.
3. Kasb egallash uchun nimalar talab etiladi?
4. O'z maqsadlaringizni rejalashtirganmisiz?



Uyga vazifa. „VEN“ diagrammasi asosida kasb va hunarni izohlang.

3-dars



Adabiy o'qish



6-mashq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Tayanch so'zlarni topib, lug'at tuzing.

O'z kasbining fidoyisi

Filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Milliy universiteti professori Ra'no Sayfullayeva o'zbek tili nazariyasida tilshunoslik yo'nalishining vujudga kelishiga ulkan hissa qo'shgan, o'zining ilmiy maktabini yaratgan fidoyi olim. U mustaqillikka erishganimizdan keyin, 1992- yilda o'zbek tilshunosligi fanida birinchi bo'lib doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va uning nomi istiqlool davrining ilk olimasi sifatida tarixda qoldi. O'zbek tilshunosligi deb nomlangan bu

yoʻnalish ona tilimizning mohiyatini faqat oʻziga xos xususiyatlarini ochishga yoʻnaltirilgan boʻlib, bu borada ilk darsliklar professor R. Sayfullayeva muallifligida yaratildi.

Raʼno Sayfullayeva oʻzbek tilshunosligining yaratilishi, ona tili-mizning gʻarb tillaridan farq qilishini oʻzining doktorlik ilmiy ishida olgʻa surdi va isbotladi.

 **5-topshiriq.** Matnni oʻqing. Mazmunini soʻzlab bering. Notanish soʻzlarning lugʻatini tuzing.

Kasbim – faxrim

Buyuk yozuvchilardan biri „Hayotda siz uchun eng sevimli boʻlgan kasbni tanlang va siz bir umr ishga bormaysiz“, degan edi. Agar inson oʻz sevgan kasbida ishlayotgan boʻlsa, u hech qachon oʻzini har kuni ertalab ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. Oʻz sevgan kasbi bilan shugʻullanish insonga zavq, xursandchilik va maʼnaviy ozuqa beradi. Kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli oʻtkazish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar siz kasb tanlayotgan boʻlsangiz, faqatgina bu kasbdan sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak boʻlgan maʼnaviy ozuqani ham hisobga oling. Unutmang, siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi.

 **6-topshiriq.** Siz dunyo boʻyicha barcha kasblar haqida anchagina maʼlumotga egasiz. Ushbu savollarga javob bering.

1. Menejer kim?
2. Meʼmor nima ish qiladi?
3. Injener, dasturchi boʻlish uchun nimalar talab etiladi?
4. Tibbiyot xodimlari deb kimlarni aytamiz?
5. Kasb va mansab orasida farq bormi? Qanday?
6. Arxeolog nima ish bajaradi?
7. Geologlar kimlar?
8. Astronomlar nimani aniqlashadi?
9. Isteʼdod nima? Iqtidor-chi?
10. Rahbar xodim va ishchi xodimning bir-biridan qanday farqi bor?

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Siz tanlagan kasb ota-onangizga yoqmayapti, qanday yo'l tutasiz?
2. Siz kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchisiz?
3. Fan to'garaklaridan qaysi biriga borasiz?
4. Fan to'garaklarining kasb tanlashingizda qanday ahamiyati bor?
5. „Kasbim – faxrim“ deganda nimani tushunasiz?
7. Kasblarning nomlari bo'yicha „Klaster“ tuzing.



Uyga vazifa. Shaxsi umumlashgan gaplarga 6 – 7 ta misollar yozing.

MENING TENGDOSHLARIM (So'z-gaplar)

1-dars



1-topshiriq. Rasm asosida berilgan so'z birikmalaridan foydalanib, kichik matn tuzing.



Foydalanish uchun so'z birikmalari: *mening tengdoshlarim, maktabimiz faxri, yutuqlarga erishmoq, yaratilgan imkoniyatlar, iqtidorli yoshlar, barkamol avlod, do'stlikni qadrlamoq.*

Bilib oling!

Bir so'zdan iborat bo'lib, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo'lmagan gaplar **so'z-gaplar** deyiladi. Ular tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, matn bilan bog'liq bo'ladi. So'z-gaplar modal va his-hayajon munosabatlarini ifoda etgani uchun ham ko'proq dialogik va ba'zan monologik nutqqa xosdir.

Soʻz-gaplar quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. **Modal soʻz-gaplar** – qatʼiy ishonch, taxmin, gumon maʼnolarini ifodalab keladigan gaplar: – *Ertaga kelasizmi?* – *Albatta.*

2. **Undov soʻz-gaplar** – his-tuygʻu va haydash-chaqirish maʼnolarini ifodalaydigan gaplar: – *Uff. Charchab ketdim.*

a) **Tasdiq soʻz-gaplar** – ha, mayli, xoʻp kabi soʻzlar.

b) **Inkor soʻz-gaplar** – yoʻq, mutlaqo, aslo, sira, aksincha soʻzlari.

c) **Taklif soʻz-gaplar** – tinglovchiga qaratilib, biror ish-harakatni bajarishga undaydigan gaplar: ma, mang, qani, marhamat, xoʻsh kabi soʻzlar.



1-mashq. Gaplarni yozing va ona tiliga ogʻzaki tarjima qiling.

1. – Naima, oʻzbek tilidan berilgan sheʼrni yod oldingmi? – Ha.
2. – Marhamat. Oʻzingizni xuddi uydagiday his qiling. 3. – Xoʻsh... Oʻzingni qanday himoya qilmoqchisan. 4. – Yasha! Bu qaroringdan men xursand boʻldim. 5. – Voy-vuy, – dedi Joʻra koʻzlarini katta ochib.
6. – Ofarin! – dedi Normat aka. 7. – Rahmat. Ahmadjon minnatdor jilmaydi. 8. – Barakalla! Topshiriqni aʼlo darajada bajardingiz.



2-mashq. Ha, xoʻsh, bajon-u dil, yoʻq, mayli, labbay soʻzlari ishtirokida dialogik matn tuzing va yozing.



2-topshiriq. Matnni oʻqing. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

... Dunyoda eng mashʼum baxillik isteʼdodlarning yoʻlini toʻsuvchi baxillikdir. Dunyodagi eng oliy saxovat esa nodir isteʼdodlarni yuzaga chiqaruvchi saxovatdir.

– Ayni haqiqat! – zavqlanib xitob qildi Bobur. Xondamir bu xitobdan ruhlanib, ovozini xiyol koʻtarib davom etdi:

– Biz biron safardan qaytsak yoki hazrat Alisherga bir-ikki kun koʻrinmay yurib, keyin huzurlariga kelsak: „Qani, xoʻsh, yana qanday ajoyib isteʼdod uchratdingiz?“ deb soʻrar edilar. Biz uchratgan nodir

iste'dodlarning ba'zilari o'n-o'n besh yoshli o'spirinlar bo'lar edi. Hazrat Alisher: „Bo'ladigan bola o'n besh yoshida bosh bo'lur, bo'lmaydigan odam qirq yoshida ham yosh bo'lur“, der edilar, topilgan iste'dod o'spirin bo'lsa ham huzurlariga chorlar edilar. Sohib Doro iste'dodli shoir Zayniddin Vosifiyni o'n besh yoshida hazrat Mirning huzuriga keltirgan edi. Hazratning saxovatlaridan bahramand bo'lgan bu yosh shoir juda tez ulg'ayib, butun Hirotga mashhur bo'ldi. Ulug' musavvir Kamoliddin Behzod ham yoshlikdan hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulg'aydilar. Shoir Hiloliy, xattot Sulton Ali Mashhadiy ham hazrat Alisher kashf etib, tarbiyat qilgan iste'dodlardandir...

– Rost! Ko'z o'ngimizda turgan barcha nodir obidalar ulug' iste'dodlar xazinasidan chiqqan gavharlardir.

(P. Qodirov „Yulduzli tunlar“)

Lug'at

mash'um – ужасный

baxillik – зависть

saxovat – доброта

ruhlanmoq – вдохновляться

musavvir – художник

ko'z o'ngimizda – в наших глазах

o'spirin – подросток

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matn mazmunini qayta hikoya qiling.
2. Matndagi so'z-gaplarni toping va ular qatnashgan gaplarni ko'chiring.
3. Iste'dod, o'spirin, saxovat so'zlari ishtirokida so'z-gaplardan foydalanib, gaplar tuzing.
4. Hazrat Alisherning iste'dod haqida aytgan gaplarini matndan topib, sharhlang.



Uyga vazifa. „Mening tengdoshlarim“ mavzusida matn tuzing. Matn tuzishda so'z-gaplardan foydalaning.

2-dars

 **3-topshiriq.** O'qing. Berilgan suhbat matnidan so'z-gaplarni toping va qo'llanilishini tushuntiring.

Suhbat

- Allo. Muslima, salom!
- Salom. Kim telefon qilyapti?
- Men Svetaman.
- Salom, Sveta. Nima gap, yaxshimisan?
- Yaxshi, rahmat. Muslima, shanba kuni kechqurun bo'shmisan?
- Ha, nima edi?
- Ikkovimiz teatrqa borsak, degan edim.
- Bajon-u dil. Chiptang bormi?
- Ha, chorshanba kuni ikkita chipta olib qo'ygan edim. Senga aytilish yodimdan ko'tarilibdi. Uzur.
- Qanday spektakl ekan?
- „O'zbekcha raqs“.
- Juda yaxshi, men ko'pdan beri shu spektaklni ko'rish niyatida edim.
- Bo'lmasa, bekatda uchrashamiz-a?
- Albatta, soat 17.00 da.
- Bo'пти, ma'qul.
- Xayr! Ertagacha.

Bilib oling!

Kishilar orasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatiladigan bir so'z yoki so'z birikmalari so'z-gaplar vazifasida qo'llanadi. Masalan: *assalomu alaykum, va alaykum assalom, yoqimli ishtaha, ofarin, marhamat, salomat bo'ling, qulluq, osh bo'lsin, yaxshi boring, xush ko'rdik, labbay, jonim bilan, bajon-u dil, uzr, xayr, bemalol, barakalla, tashakkur, rahmat, marhabo* kabilar.

 **3-mashq.** Berilgan so'zlardan foydalanib, nuqtalar o'rnini to'ldiring va yozing.

- Do'stim, ertaga darsga borasanmi?
-

- ... , sogʻligʻingni soʻramabman, tuzalib qoldingmi?
- Issigʻim tushdi.
- Unda durust.
- Darsga kelishingda senga bergan daftarimni olib kelgin-a.
- ... , doʻstim, olib borolmayman.
- Nega?
- Chunki misollarni koʻchirib boʻlganim yoʻq.
- ... , mayli, keyin gaplashamiz.

Foydalanish uchun soʻzlar: *yoʻq, xoʻp, ha, uzr, rahmat.*



4-topshiriq. Berilgan suhbat matnini davom ettiring.

- Sening doʻstlaring bormi?
- Ha, doʻstlarim koʻp.
- Ular sening tengdoshlaringmi?
- Ha, koʻpchiligi tengdoshlarim.
- Siz kompyuterdan foydalanishni bilasizmi?
- Ha, bilaman.
- Tengdoshlaringiz kompyuterga qiziqadilarmi?
- Albatta, qiziqadilar.
- Maktabingizda zamonaviy kompyuterlar bormi?
-



4-mashq. Koʻchiring. Soʻz-gaplarning tagiga chizing.

1. – Tikuvchingiz menga yoqmadi, yoqani oʻxshatolmas ekan. Boshqasini topamiz. – Xoʻp. 2. – Azizjon, soy boʻyida kutib turmoqchimisiz? – Ha. 3. – Yuqoridan biron nima olib kelishlarini aytdim. – Rahmat. 4. – Aslo. Men bu fikrga mutlaqo qoʻshilmayman. 5. – Voyboʻ, – dedi Nodira jahli chiqib. 6. – Ofarin! Hamisha shunday zafar quchib yuring. 7. – Rahmat, – tashakkur bildirdi Durdona.



5-topshiriq. Matnni oʻqing va soʻz-gaplarni toping. Siz ham tengdoshingizga maktub yozing.

Dugonamga xat

Salom, Madina! Ahvollaring yaxshimi? O'qishlar bilan qiynal-mayapsanmi?

Mendan so'rasang, barchasi a'lo. Toshkentga kelsang, tanimay qolasan.

Kundan kunga yangi binolar qad ko'tarmoqda, bilim yurtlari, zamonaviy sport majmualari, kutubxonalar ochilmoqda. Ularning har biri zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan. Ayniqsa, yoshlarga e'tibor katta. Yoshlarning o'z qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun turli ko'rik-tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda. O'tgan kuni Sardorning „Kelajak ovozi“ tanlovida, Layloning shaxmat bo'yicha Osiyo chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritganliklarini barcha sinfdoshlar bilan birga nishonladik.

Ha ... Vaqt juda tez o'tmoqda. Seni sog'indik. Kelsang, „Oh-ho! Toshkent o'zgarib ketibdi“, deysan. Mayli. Ko'p vaqtningni olmay. O'zingni ehtiyot qil!

Ta'tilda kelgin. Kutaman. Salomat bo'! Xayr! Dugonang Salima.

(Tengdoshlar yon daftaridan)

 **5-mashq.** O'qing. Tinish belgilarini qo'yib, gaplarni daftaringizga ko'chiring.

1. Salom yangi bo'stonlar. 2. Barakalla oppoq qizim. 3. Balli azamatlar. 4. Uf sarimsoqdek jonimga tegding. 5. Bizning guruh g'olib chiqdi Ofarin. 6. Yo'q nimagadir istagim yo'q. 7. Sanjar uy inshosini yozdingmi – Ha. 8. Qani Mohira masalani Elyorga tushuntirib ber-chi.

 **6-topshiriq.** She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Mening tengdoshlarim

Tengdoshlarim, safdoshlarim,
Sho'x-shodon bolaligim.
O'z ko'cha, uyimdagi,
Yozim qiliqlaring.
Sening yurish-turishing,
Menga juda tanishdir.

Axloq-odob, o'qishing,
Ko'zgu kabi aniqdir.
Tengdoshlarim, safdoshlarim,
Mening sho'x bolaligim.
Axloq-odob, o'qishda,
Namuna bo'ling doim.

Shoira Rasulova

Lugʻat

tengdosh – ровесник

shoʻx – здесь: весёлый

koʻzgu – зеркало

yoqimli – приятный

bolalik – детство

namuna – образец

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Soʻz-gaplar deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
2. Modal soʻz-gaplar ishtirokida gaplar tuzing.
3. Inkor soʻz-gaplar ishtirokida partadoshingiz bilan dialog tuzing.
4. Doʻstingizni yoki dugonangizni yaxshi sifatlarini taʼriflab, bogʻlanishli matn tuzing.



Uyga vazifa. „Mening tengdoshlarim“ sheʼrini yod oling.

YAXSHILIK UNUTILMAYDI (Gap boʻlaklari. Ega va uning ifodalanishi)

1-dars



1-topshiriq. Berilgan savollar asosida suhbatlashing.

- Yaxshilik nima?
-
- Insonning hayoti nima bilan oʻlchanadi?
-
- Qaysi buyuk allomalar doimo kishilarga yaxshilik qilish maqsadida yashaganlar?
-
- Amir Temurning yaxshilik haqidagi oʻgitlarini bilasizmi?
-

Bilib oling!

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan, o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** deyiladi. Gap bo'laklari ikkiga ajratiladi:

1. Bosh bo'laklar: kesim, ega.
2. Ikkinchi darajali bo'laklar: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

Bosh bo'laklar gapning asosiy grammatik asosini tashkil qiladi. Gapda kesim bilan bog'lanib, shu kesimdagi qo'shimchalar ifodalagan shaxs-sonni bildiruvchi va kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladigan bo'lak **ega** deyiladi. Ega quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: **Shamol** gul hidlarini atrofga taratdi.
2. Sifat bilan: **Yaxshilar** ko'paysin, **yomon** qolmasin.
3. Olmosh bilan: **Ular** to'g'arak mashg'ulotlariga muntazam qatnashar edilar.
4. Son bilan: **Ikkovimiz** biroz aylandik.
5. Harakat nomi bilan: **O'qish** boshlandi.
6. Ravish bilan: **Ko'plar** qatnashdi.
7. Modal so'zlar bilan: **Bor** – boricha, **yo'q** – holicha.
8. Siftdosh bilan: **Uqqan** o'zar, **uqmagan** to'zar.
9. Ibora bilan: **Uning yuziga oyoq qo'yish** axloqimizga zid.



1-mashq. Gaplarni ko'chiring. Bosh bo'laklarni aniqlang va eganing ifodalanishini tushuntiring.

Namuna: 1. Otini ayagan (kim? – siftdosh) yo'lda qolmaydi, elini siylagan (kim? – siftdosh) cho'lda qolmaydi.

1. Otini ayagan yo'lda qolmaydi, elini siylagan cho'lda qolmaydi.
2. Inson nonni hamma taomlardan ustun qo'ygan. 3. Uchovi ko'chaga chiqib ketishdi. 4. Xalqimiz mehnatsevar kishilarni hurmat qiladi.
5. Kamtar kishi hech qachon qo'pollik qilmaydi. 6. Ko'rganni eshitgan yengibdi. 7. Yaxshilik ekan esonlik ko'radi, yomonlik ekan – jabr-u zahmat.



2-mashq. Quyidagi soʻzlardan kim?, nima?, qayer? soʻroqlariga javob boʻladiganlarini alohida ustunga ajratib yozing.

Namuna:	Kim?	Nima?	Qayer?
	<i>amaki</i>	<i>ariq</i>	<i>Andijon</i>

Andijon, amaki, ariq, bino, bola, buva, Boʻstonliq, daryo, donishmand, inson, jamiyat, Jizzax, keksa, mehnat, muhandis, non, odam, Olmaliq, paxtakor, qishloq, Toshkent, umr, varrak, vijdon, togʻ, togʻa, yaxshilik.



2-topshiriq. Matnni oʻqing. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

Inson yaxshilik uchun yaratilgan

Yaxshilik bu jamiyat uchun tinmay mehnat qilish, xalq shaʼniga dogʻ tushirmaslik, koʻpchilik manfaatiga qarshi ish tutmaslik, oʻz xalqiga xiyonat qilmaslik, ziyon yetkazmaslikdir.

Yaxshilik vijdonli, muomalali, madaniyatli, kamtar, oliyjanob, haqgoʻy boʻlish, inson taqdiri haqida chinakam gʻamxoʻrlik qilish, bir-biri bilan hamkor boʻlish demakdir.

Halol mehnat qilish yaxshilikdir. Yaxshilik qonuni asosida yashamoq barhayotlikdir.

Donolar deydi: „Birovga yaxshilik qilsang, oʻziga bildirmay qil“, „Birovga yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytadi“.

Lugʻat

yaxshilik – доброта

jamiyat – общество

shaʼn – честь

ziyon – вред

haqgoʻy – честный

kamtar – скромный

vijdon – совесть

taqdir – судьба

dogʻ tushirmaslik – не запятнать

muomalali – общительный

hamkorlik – сотрудничество

xiyonat – предательство

manfaat – интерес

gʻamxoʻrlik – заботливость

oliyjanob – благородный

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matnni berilgan lugʻat yordamida ona tilingizga tarjima qiling.
2. Matndan yaxshilik soʻziga berilgan taʼriflarni topib, izoh bering.
3. Matn mazmunini hikoya qilib bering.
4. Matndan donolarning fikrlarini topib, sharhlang.



Uygʻa vazifa. Yaxshilik haqida maqollar toping va mazmunini tushuntiring.

2-dars



3-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Sening doʻstlaring bormi?
- Ha, mening doʻstlarim koʻp.
- Ular sening tengdoshlaringmi?
- Koʻpchiligi mening tengdoshlarim. Ular men bilan bir maktabda oʻqiydigan bolalar.
- Eng yaqin doʻsting qanday inson?
- ...

Bilib oling!

Ega bosh kelishik shaklidagi ot, olmosh va boshqa otlashgan soʻzlar bilan ifodalanadi. Masalan: **Biz fan choʻqqilarini egallagani keldik. Birlashgan** oʻzar, **birlashmagan** toʻzar.



3-mashq. Berilgan gaplarda harakatning bajaruvchisi kim? (nima?) ekanligini aniqlang va yozing.

Namuna: *Gulnoza (kim?) aʼlo baholarga oʻqiydi.*

1. Gulnoza aʼlo baholarga oʻqiydi.
2. Ot kishnadi, xoʻroz qichqirdi, it vovulladi, yalmogʻiz uygʻondi.
3. Uzoqdan toʻplarning gumburi eshitilardi.
4. Yer yuzida juda koʻp daryo va jilgʻalar oqadi.
5. Navoiy yozgan asarlar butun dunyoga mashhur.
6. Yaxshilik chinakam insoniylikdir.
7. Kichiklar kattalardan oʻrnak oladilar.



4-mashq. Berilgan gaplarda eganing ifodalanishini tushuntirib bering.

1. Mard maydonda sinalar.
2. Yaxshilik nur keltirar, yomonlik – zulmat.
3. Yaxshidan bog' qoladi.
4. O'qish – har bir o'quvchining burchi.
5. Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin.
6. O'qimoq – ulg'aymoq.



4-topshiriq. Matnni o'qing va matn asosida topshiriqlarni bajaring.

Yaxshilik yerda qolmas

Ari suv ustida uchib yurib, birdan suvga tushib ketdi. Qanotlari ho'l bo'ldi. Arining uchishga kuchi yetmadi.

Shu payt arini kabutar ko'rib qoldi. Unga rahmi keldi. Kabutar cho'pni tishlab, suvga tashladi. Ari cho'pni kema qilib, halokatdan qutuldi.

Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rib qoldi. U shu zahoti kelib, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola og'riqqa chidolmay tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi.

Kabutar uchib ketib, falokatdan qutuldi.

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matnda qanday fazilat aks etgan.
2. Bola, kabutar obrazlariga tavsif bering.
3. Hayotda shunga o'xshash voqealarni kuzatganmisiz.
4. Yaxshilik haqida yana qanday asarlarni o'qigansiz.



Uyga vazifa. „Yaxshilik deganda nimani tushunasiz?“ mavzusida dialog tuzing.

3-dars



Adabiy o'qish



5-mashq. Maqollarni to'ldirib yozing.

Yaxshilik qilolmasang,

Yaxshilik

Yaxshilik qil

Yomonlik qilgan inson, hech qachon

Foydalanish uchun so'zlar: yaxshilik qilmaydi, yerda qolmas, suvga ot, yomonlik qilma.



5-topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Rivoyat qiladilarki, Luqmoni hakim avval zolim va badjahl, qullariga shafqatsiz bo‘lgan. Ekin paytida bir kuni qishloqda bahorgi ishlar qanday borayotganligi bilan tanishish uchun dalaga aylanib chiqibdi. Shunda bir dehqonning bug‘doy ek, deb buyurilgan yerga tariq sochayotganini ko‘rib qolibdi. Uning jahli chiqibdi: „Hoy, ahmoq, to‘xta. Sen jinnimisan? Men gapirganimda karmiding? Nega bu yerga tariq sochyapsan, bug‘doy ek, deb aytmaganmidim“, – deb do‘q qilibdi.

– Xojam, tariq ekyapman, xudodan tilaymanki, bug‘doy unsin, – deb javob beribdi dehqon.

– Nodonsan-da, – debdi Luqmoni hakim. – Shuning uchun qulsan. Tariq eksang, bug‘doy o‘rasanmi?! Xudo ekkaningni beradi.

Shunda dehqon:

– Xojam, axir siz bizga doim jabr-zulm qilib, evaziga faqat yaxshilik, halol mehnat va mo‘l hosil talab qilasiz-ku, – debdi.

Dehqonning gaplari Luqmoni hakimga qattiq ta’sir qilibdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matnga sarlavha toping.
2. Matndan tayanch so‘zlarni toping va ularning lug‘atini tuzing.
3. Ushbu hikoyadan qanday xulosa chiqarganingizni ayting.



6-topshiriq. Maqol va hikmatlarni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Yaxshilik qilsang, yashir,
Yaxshilik ko‘rsang, oshir.

Yaxshilik urug‘ini sepsang har tomon,
Jannat mevasini olasan shu on.

Qilingan yaxshilikning ofati
„Yaxshilik qildim“, deb maqtanib yurishdir.



7-topshiriq. Blis-so'rovnomanini to'ldiring.

Blis-so'rovnoma

Ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini toping.

№	Gaplar	Ot	Sifat	Sifatdosh	Olmosh	Son	Harakat nomi
1	Kamtarlik kishiga zebziynatdir.						
2	Ikkalasi hozir chiqib ketdi.						
3	Hamma hasharga to'plandi.				+		
4	Bahor.						
5	Bodom qiyg'os gullagan.						
6	Yugurish – sportning bir turi.						
7	Birlashgan o'zar, Birlashmagan to'zar.						
8	Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar.						
9	Sayohatga boradiganlar ro'yxatga yozilsin.						
10	U bu uyda yashamaydi.						

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ega qanday so'zlar bilan ifodalanadi?
2. Gapda ega qanday shaklda qo'llanadi?
3. „Yaxshilik“ so'zining ma'nosini izohlab, 4 ta gap tuzing.



Uyga vazifa. „Yaxshilik qilishdan charchamaylik“ mavzusida matn tuzing.

EKOLOGIYA VA BIZ

(Kesimning ifodalanishi. Ot-kesim, ularda *-dir* shaklining qoʻllanishi)

1-dars



 **1-topshiriq.** Rasmdan foydalanib, berilgan tayanch soʻz va soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Tayanch soʻz va birikmalar: ekologiya, tabiat va biz, ekologik muammolar, salomatlik asosi, atrof-muhit, toza saqlash, suvni ifloslantirmaslik, isrof, noyob, salomatlik.

Namuna: *Tozalik – salomatlik garovi.*

 **2-topshiriq.** Matnni oʻqing, mazmunini soʻzlab bering. Matnga oid savollar tuzing.

Suv hayot demakdir

Suv – hayot manbai, inson salomatligining garovi. Odam oʻzini yaxshi his qilishi uchun faqat toza ichimlik suvidan foydalanishi

kerak. Bugungi kunda suvni tejab ishlatish, ariq va anhorlarga axlat tashlamaslik haqida uka-singillarimizga gapirib bersak, o'zimiz ularga o'rnak bo'lsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Suvga tupurish, unga xas-cho'p tashlash hamda isrof qilish qadimdan qoralangan.

Suv nafaqat inson uchun, balki butun tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun ham juda zarur. Agar suv bo'lmasa butun borliq, shu jumladan insoniyat ham yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun, aziz o'quvchilar, suvdek noyob xazinamizni asraylik. Shunda ona tabiat bizga o'zining barcha boyliklarini in'om etib, el-yurtimiz boy-badavlat, farovon yashaydi.

Lug'at

tejamoq – экономить

maqsadga muvofiq –
целенаправленно

borliq – окружающий мир,
вселенная

manba – источник

xas-cho'p – мусор

insoniyat – человечество

tupurish – плевать, плеватьсЯ

Bilib oling!

Kesim gapning markaziy bo'lagi hisoblanib, ega haqida ma'lumot beradi. U nima qildi?, nima qilyapti?, nima qildi? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: *Men maktabga **boraman**.*

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalangan kesim **ot-kesim** deyiladi. Ot-kesimlar quyidagicha ifodalanadi:

Ot bilan: *O'zbekistonning poytaxti – **Toshkent**.*

Sifat bilan: *Bizning yurtimiz juda **go'zal**.*

Harakat nomi bilan: *Bizning maqsadimiz a'lo baholarga o'qish.*

Olmosh bilan: *Bizning maktabimiz – **shu**.*

Ibora bilan: ***Tepa sochi tikka bo'ldi**.*



1-mashq. Quyidagi so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing va kesimni aniqlab, ifodalanishini tushuntiring.

Taklif, mutaxassis, dengiz, o'rmon, ma'lumot, musaffo, olim, ustoz, maslahat, loyiha.



2-mashq. Gaplarni ko‘chiring va ot-kesimlarni aniqlang.

1. Yaxshi ro‘zg‘or – jannat, yomon ro‘zg‘or – do‘zax. 2. Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. (Maqol) 3. Birniki – mingga, mingniki – tumanga. (Maqol) 4. Oltita bolani bag‘riga olgan Mahkam taqachi – shu. 5. Sizdan umidim ko‘p. 6. Yo‘qoling, siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim yo‘q. 7. Burchimiz – a‘lo o‘qish. 8. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – o‘qish, o‘qiganda ham a‘lo o‘qish edi.



3-mashq. Berilgan gaplardan ot-kesimni toping, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini qavs ichida yozing.

Namuna: *Vazifamiz – maktabda yaxshi o‘qish. (harakat nomi)*

1. Akam uchuvchi bo‘ldi. 2. Oydin a‘lochi qiz. 3. Bizning sinf – to‘qqizinchi. 4. Har narsaga qiziqish biz uchun eski odat. 5. Bu – siz uchun katta sinov. 6. Mehnat qilsang, baxting ochiladi. 7. Inson tabiatning bir qismidir.



3-topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ekologik madaniyat tabiatni barcha go‘zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Har bir inson tabiatdan bahra oladi. Ammo bu hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go‘zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishdan boshlanadi. Madaniyatli kishi tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi. Jo‘mraklardan ortiqcha suv oqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to‘kmaslik, turar-joylarni ozoda saqlash, ko‘chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatning eng oddiy ko‘rinishlari sanaladi.

Biz kelajak avlodlarga yaratgan ma‘naviy va moddiy boyliklarimizni, bizgacha mavjud bo‘lgan tabiatni, shu bilan birga ekologik madaniyatimizni ham meros qoldiramiz.

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matnga sarlavha toping. Ona tilingizga tarjima qiling.
2. Ma'naviy va moddiy boylikni qanday tushunasiz.
3. Madaniyatli kishi jumlasiga ta'rif bering.
4. Quyidagi jumlaning davom ettiring: ekologiyani asrash uchun ...



4-mashq. Savollarga yozma ravishda javob bering.

1. Turli chiqindilarni daryo va kanallarga oqizilishi nimalarga olib keladi?
2. Bugungi kunda suvni qanday tejash kerak?
3. Nega suv – hayot manbai deyiladi?
4. Ona tabiat inson hayotida qanday o'rin egallaydi?
5. El-yurtimiz farovon yashashi uchun tabiatga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak?



4-topshiriq. Matnni o'qing, uning mazmuni asosida berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Tabiatda go'yoki yer maydonining muayyan joylari aynan qandaydir xo'jalik tarmog'ini joylashtirish uchun yaratilgan ko'rinadi. Har bir joy xo'jalik va aholini muayyan miqdorda sig'dira oladi, shunga ko'ra, undan ortig'i tabiiy muvozanatni, ekologik vaziyatni buzadi.

Tabiat muvozanatining buzilishiga, asosan, dunyo iqtisodiyotida ishlab chiqarishning tez rivojlanib borishi, tabiiy boyliklarni keskin o'zlashtirish hamda aholi sonining tez o'sib borishi sabab bo'lib, bu turli tabiiy ofatlarga olib kelmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy masalalarni yechishda ekologik muammolarga e'tibor berish asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoldi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Nima uchun tabiatda har bir narsa o'z o'rniga ega deymiz?
3. Ishlab chiqarishning o'sishi nimalarga bog'liq?
4. Ekologik vaziyatning o'zgarishiga nimalar ta'sir etmoqda?
5. Tabiiy ofatlar nimalar oqibatida yuz bermoqda?
6. Sizning mahallangizda qanday ekologik muammolar bor?

 **5-mashq.** Maqollarni o‘qing, mazmunini izohlang, ona tilingizga tarjima qiling.

Baliq suv bilan tirik.

Bir yil tut ekan kishi, yuz yil gavhar teradi.

Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi.

Yomg‘ir bilan yer ko‘karar, duo bilan el ko‘karar.

Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.

Bitta daraxt kessang, yuzta ko‘chat ek.

 **Uyga vazifa.** Hozirgi kunda dolzarb hisoblangan ekologik muammolar haqida ma’lumot yozing.

2-dars

 **5-topshiriq.** Suhbatni davom ettiring.

- Geografiya darsi munozara shaklida o‘tkazildi.
- Qaysi mavzuda?
- „Biz va ekologiya muammolari“ mavzusida.
- Ekologiya nima degani?
- Hayvonot olami, o‘simliklar dunyosi va odamlarning yashash muhiti bilan munosabati haqidagi fandir.
- ...

 **6-topshiriq.** Matnni o‘qing. Matn asosida savol va topshiriqlarni bajaring.

Tabiat muvozanati – hayot muvozanati

Ayrim kishilar butun bahor-u yoz ko‘zimizni yashnatgan, bahri dilimizni musaffo havosi bilan yayratgan barglarni kuzda xazonlardan qutulish uchun yoqadilar. To‘kilgan yaproqlarni to‘plab yoqish o‘zlari uchun qanchalik zararli ekanini fahmlamaydilar.

Quruq o‘tinni yoqish jarayonida juda xavfli bo‘lgan dioksin moddasi ajralib chiqadi. Yoqish o‘rniga yaproqlarni bir joyga to‘plab, ho‘llab ko‘mish kerak. O‘shanda chiqindilar ma’lum vaqt o‘tgach, tayyorgina o‘g‘itga aylanadi. Dioksin oshqozon-ichak yo‘li orqali inson tanasiga kirgach, oshqozon osti bezi, o‘pka va immun tizimini zararlaydi. Ko‘pincha xavfli o‘sma va og‘ir kasalliklarning kelib chiqishiga

sabab bo'ladi. Inson tabiatning bir qismi ekanini tushunishi, tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri qaytib kelib o'ziga salbiy ta'sir etishini anglashi lozim.

Lug'at

yayratmoq – здесь: радовать

xazon – листья; листопад

ajralib chiqmoq – выделяться

salbiy – отрицательный

oshqozon osti bezi – поджелудочная железа

o'tin – дрова

o'g'it – удобрение

o'sma – опухоль

fahmlamoq – осознавать

chiqindilar – отходы

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Xazonlarni yoqish qanday oqibatlarga olib kelishini matn asosida izohlang.
2. Tabiatni asrashda to'kilgan xazonlardan qanday foydalanish kerak?
3. Dioksin moddasi insonga qanday zarar keltiradi?
4. Tabiatni asrash uchun yana nimalar qilish kerak?

Bilib oling!

Kesim boshqa so'zlar bilan ifodalanganda, ko'pincha, **-dir** qo'shimchasini oladi. Bu qo'shimcha tasdiq, ta'rif-tavsif, ta'kid ma'nolarini bildirishga ham xizmat qiladi. **-dir** anglatgan ma'no **bo'ladi, hisoblanadi, sanaladi** fe'llari ifodalovchi ma'nolarga sinonimdir. Masalan: *Tabiat muvozanati, hayot muvozanatidir.*



6-mashq. Berilgan gaplarni ko'chiring. **-dir** qo'shimchasining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 2. Kulish umrni uzaytirish vositasidir. 3. Tabiat naqadar go'zaldir. 4. „Shum bola“ avtobiografik asar hisoblanadi. 5. Oybek adabiyotshunoslik ilmining barcha tur va janrlarida chuqur iz qoldirgan yozuvchi sanaladi. 6. O'quvchining vazifasi atrof-muhitni toza saqlashdir.



7-mashq. Gaplarni to'ldiring va yozing.

1. Turli chiqindilarning daryo va kanallarga oqizilishi
2. Tabiiy muvozanatning buzilishi
3. Xazonlarni yoqish oqibatida
4. Mashinalardan chiqayotgan zararli gazlarning ortishi
5. Sun'iy o'rmonlarning barpo etilishi
6. Inson va tabiat
7. Havoda dioksin moddasining ortishi



Bilasizmi?

O'zbekistonda „EKOSAN“ jamg'armasi Ekologiya va Salomatlik Xalqaro Jamg'armasining 1992- yil ta'sischilar konferensiyasida tashkil qilingan bo'lib, notijorat (nodavlat) tashkilot hisoblanadi.

Jamg'armaning asosiy vazifalaridan biri – ekologik muammolarni har tomonlama o'rganish, bu borada ilmiy konsepsiya ishlab chiqarishga va barcha kuchlarni birlashtirishga ko'maklashish, ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni tarbiyalashdir.



7-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Tabiat, sen onamiz

Tabiat, sen onamiz,
Husningga parvonamiz.
Sendan olamiz chiroy,
Sen ko'kdagi to'lin oy.
Sen saxiy, sen mehrli,
Bari ishing sehrli.
Zarrin quyosh, yer, osmon,
Daryo-yu soy, keng ummon,
Meva to'la bog'-rog'lar,
Ko'kni o'pgan alp tog'lar.
Jami tirik mavjudot,

Mittigina hasharot,
Jondan aziz bolangdir,
Gard qo'nsa u nolangdir.
Zavqingni tuyib yashash,
Ne'matlaringni oshash,
Katta sovg'a biz uchun,
Bari o'g'il-qiz uchun.
Ko'rkam ona tabiat,
Senga etay itoat.
Doim tovlanib turgin,
Ko'p jilolanib turgin.

Abdurahmon Akbar



E'lon

E'lon biror yig'ilish, kecha va tadbirga taklif qilish mazmunida yoziladigan rasmiy ish qog'ozidir. U har xil shaklda yozilishi mumkin.



8-topshiriq. E'lon namunasidan foydalanib, sinfingizda yoki maktabingizda o'tkaziladigan yig'ilish, tadbir haqida e'lon yozing.

Namuna:

Maktabimizda o'tkaziladigan otalar majlisiga taklif etamiz. Majlis 20-yanvar kuni soat 17.00 da maktabimiz faollar zalida o'tkaziladi.
Tashkiliy qo'mita

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Kesim deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
2. „Ekologiya“ so'zining ma'nosini izohlang.
3. Ekologik madaniyat nima?
4. Tabiatni asrash uchun siz nima qilyapsiz?



Uyga vazifa. „Tabiat, sen onamiz“ she'rini yod oling.

MEHNAT BAXT KELTIRAR

(Fe'l-kesim, ularda yordamchi fe'llarning qo'llanishi)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini to'ldiring.

- Mehnat inson uchun nima beradi?
-
- Mehnatsiz hayotni qanday tasavvur qilasiz?
-
- Nima uchun mehnat baxt keltirar deymiz?
-
- Mehnatning tagi rohat deganda nimani tushunasiz?
-



2-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan topshiriqlarni bajaring.

Mehnat – mehnatning tagi rohat

Mehnat inson hayotini bezaydigan, unga baxt-saodat keltiruvchi, boylik, farovonlik baxsh etuvchi yagona omildir. Qadim-qadimdan mehnat inson hayotining mazmuniga aylangan. Insonlarning obro'-e'tiborli bo'lishi halol mehnat orqasidandir.

Halol mehnat insonga zavq-shavq, rohat baxsh etadi, insonni ulug'laydi. Shuning uchun ham „Mehnat – mehnatning tagi rohat“ deyiladi. Bu naqlga amal qilgan ota-bobolarimiz farzandlarini yoshlik chog'idan mehnatsevarlikka o'rgatganlar.

Lug'at

qadim-qadimdan – испокон веков

halol mehnat orqasidan – за счёт честного труда

ulug'laydi – возвеличивает

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matndan tayanch so'zlarni toping, ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Halol mehnat deganda nimalarni tushunasiz.
3. Matn mazmunini so'zlab bering.

Bilib oling!

Fe'lning turli shakllari orqali ifodalangan kesim fe'l-kesim sanaladi. Fe'l-kesimlar quyidagi ko'rinishlarga ega:

- a) sof fe'l-kesimlar: *Men maktabga **boraman**;*
- b) ravishdosh bilan ifodalangan kesim: *Motor **gurullab**, mashina oldinga intildi;*
- d) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *Botir xatni kecha **yuborgan**.*



1-mashq. Gaplarni yozing. Fe'l-kesimlarni topib, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini tushuntiring.

1. O'qituvchining savoliga o'quvchi o'ylab, to'g'ri javob berdi.
2. Biz erta bilan ota-onamizga salom berib, so'ng nonushtaga o'tiramiz.
3. 9- „A“ sinf o'quvchilari jamoat ishlarini yaxshi bajarishadi.

4. Bugun bizning maktabimizga juda ko'p mehmonlar kelishgan.
5. Bobom o'zi yaratgan bog'lari bilan faxrlanadi. 6. Mingbuloqning o'zi yaxshi, suvi serob, lekin u qarovsiz.



2-mashq. Matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring, ega va kesimning tagiga chizing.

Mehnat insonni ulug'laydi

Mehnat insonni kamolotga Inson mehnat tufayli Demak, mehnatsiz hayotni ... qiyin. Kishining hurmati, obro'si uning ... bo'lgan munosabati bilan Mehnatsevarlik kishining eng yaxshi fazilatlaridan biri Kishi o'zining butun orzu-umidlariga faqat tinimsiz mehnati bilan ... , halol mehnati bilangina Hozirgi baxtiyor, go'zal hayotimiz ham ota-bobolarimizning ... mehnatlarining

Foydalanish uchun so'z va so'z birikmalari: *tasavvur qilish, mevasidir, erishadi, mehnatga, hisoblanadi, o'sadi, ulug'lanadi, belgilanadi, qadrlanadi, ulkan.*



3-mashq. Qavs ichidagi fe'llardan mosini qo'yib, gaplarni yozing.

1. O'zbekiston Respublikasining Andijon viloyatida O'rta Osiyoda yagona avtomobil zavodi (qurildi, ish boshladi). 2. Bu zavodda turli rusumdagi avtomobillar (ishlab chiqarilmoqda, ishlatilmoqda). 3. Bu avtomobillardan O'zbekiston aholisi keng (qo'llamoqda, foydalanmoqda). 4. Aholining turmush tarzi yaxshilanganidan dalolat (etiladi, beradi).



Uyga vazifa. „Mehnat baxt keltirar“ mavzusida matn tuzing.

2-dars



3-topshiriq. Javoblar mazmunidan kelib chiqib savollar tuzing.

- ?
- Mehnat mahsuli va ularning bunyodkorlari bo'lgan mehnatkashlarni qadrlashimiz kerak.
- ?
- Ona yerdan unayotgan noz-ne'matlar kishilar mehnatining samarasidir.

- ?
- Hayotda qoqilmay degan odam biror kasbni yoki hunarni mukammal egallashi kerak.
- ?
- Insonni mehnat ulugʻlaydi.

Bilib oling!

Kesim tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi: sodda kesim, u bir soʻz bilan ifodalanadi. Masalan: Men **keldim**. Murakkab kesim, u quyidagicha tuziladi:

1. Koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasidan iborat boʻladi. Masalan: *Odamlar **tarqala boshladi***.

2. Sifatdosh va toʻliqsiz feʼldan iborat boʻladi. Masalan: *Mashgʻulot haftada bir marta **oʻtadigan boʻldi***.



4-mashq. Nuqtalar oʻrniga feʼl-kesimlarni qoʻyib koʻchiring, ular qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligini ayting.

1. Bolalar katta archa yonida 2. Keksa bogʻbon koʻm-koʻk ajriq ustida oʻtirib hordiq 3. Moʻtabar eshikni sekin yopib 4. Atlas toʻqish Margʻilonda juda qadimdan rivojlangan, boshqa joylarga shu yerdan 5. Atlasdan ayollar liboslari, koʻrpa, koʻrpachalar va boshqa buyumlar 6. Oʻzbekistonda koʻmirni sanoat usulida qazib olish 1930-yillar oxirida

Foydalanish uchun soʻzlar: *boshlangan, chiqib ketdi, toʻxtadilar, chiqardi, tarqalgan, tayyorlanadi.*



4-topshiriq. Matnni oʻqing. Ajratilgan soʻz va soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Mehnat mahsuli va ularning bunyodkorlari boʻlgan mehnatkashlarni **qadrlashimiz darkor**. Har birimiz yoshligimizdan anglamogʻimiz va **ulgʻayib** bu mehnatga ongli ravishda **oʻz hissamizni** qoʻshmogʻimiz zarur. Daraxtning soya-salqinida yotgan inson, jaziramada **mehnat qilib** meva yetkazgan bogʻbonning qadrini bilmaydi. „Mehnat baxt keltirar“ degan naql bejiz aytilmagan. Har kim **oʻz mehnati** bilan xalq olqishiga sazovor boʻladi. Inson oʻzining **halol mehnati** orqali baxtga erishadi.



5-mashq. Maqollarni yozing. Kesimlarning ifodalanishini tushuntiring.

- | | |
|---|---|
| 1. Halol mehnat yaxshi odat,
Berur senga saodat. | 4. Betashvish bosh qayda,
Mehnatsiz osh qayda. |
| 2. Mehnatdan qo'rqma,
Minnatdan qo'rq. | 5. Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar. |
| 3. Yer boylikning onasi,
Otasi – mehnat. | 6. Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo'lar chiroyli. |



Uyga vazifa. 5-mashqdagi maqollarni yod oling va mazmunini izohlab bering.

3-dars



Adabiy o'qish



5-topshiriq. Matnni o'qing. Lug'at tuzing. O'z ona tilingizga tarjima qiling.

Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, mehnat ta'limining ham alohida o'рни bor. Ushbu o'quv fani o'quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish kabi ta'limiy maqsadlarga xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarni mehnat va kasblarni qadrlashga o'rgatish, ijtimoiy hayotda ularning ahamiyatini tushuntirish kabi asoslari (texnologiyasi) haqida bilim hosil qilish hamda maktab davridan bolada kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish mehnat ta'limi fani o'qituvchilarining asosiy vazifasiga kiradi. Xususan, mehnat qurollari, vositalari, jarayonlari, hududiy ishlab chiqarishning asoslarini o'rgatish, texnika va texnologiyalar asosida egallanayotgan kasb-hunar sohasi xususiyatlari, shu sohaning ilg'or vakillari faoliyati bilan tanishtirish hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanining asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun mehnat ta'limi o'qituvchilari fan yo'nalishi bo'yicha yil davomida amalga oshiriladigan ishlarni belgilab olishlari lozim.

 **6-mashq.** Nuqtalar o‘rniga mos fe‘l-kesimlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Shahrimizda yirik korxonalar ishga 2. Sanoat xalq xo‘jaligi uchun zarur mahsulotlarni yetishtirib 3. Paxta chigitidan sifatli moy olishga imkon beradigan texnologiya 4. Ohangaron va Angrenda toshko‘mir konlari 5. O‘rta asrlardan boshlab Buxoroda zardo‘zlik matolari

Foydalanish uchun so‘zlar: tushirila boshlamoq, bera boshlamoq, yaratilmoq, ochilmoq, sotiladigan bo‘lmoq.

 **6-topshiriq.** Berilgan nasihatlarini o‘qing va ma‘nosini tushuntiring.

1. Yoshlikdan o‘zingizni o‘zingiz eplashga odatlaning.
2. Uy ishlarini bajarishda ota-onangizga yordamlashing.
3. Birovlar ishlayotganda tomoshabin bo‘lib turish odobdan emas.
4. Xalqimizning „Yosh kelsa ishga, katta kelsa oshga“ naqliga amal qiling.
5. Biror ishga qo‘l urishdan oldin kattalarga maslahat solishni unutmang.
6. Savobli ishlar qilishga shoshiling.
7. Qo‘lingizdan kelmaydigan ishga qo‘l urmang.
8. Mehnatni sevish, g‘ayrat va matonat bilan ishlashning uchta shirin mevasi bor: tan salomatligi, ko‘ngil rohati, obro‘ning ortishi.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Kesim tuzilishiga ko‘ra nechta turga bo‘linadi? Misollar keltiring.
2. „Mehnat baxt keltirar“ maqolining ma‘nosini izohlab bering.
3. Mehnat haqida qanday hikmatlar, maqollar bilasiz? 4 ta misol yozing.



Uyga vazifa. Quyidagi jadvalni to‘ldiring. Gaplar tuzing.

Ot-kesim	Fe‘l-kesim
1.	
2.	

BURCH VA HUQUQLARIMIZ (Izohlovchi, uning ifodalanishi)

1-dars

 **1-topshiriq.** Suhbat matnini o'qing va konstitutsiya moddalari yuzasidan suhbatlashing.

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nechanchi yili qabul qilingan?

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan.

– Kim O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasini biladi?

– Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

– Adolat deganda nimani tushunasiz?

– Adolat – axloq va huquqning me'yoriy kategoriyasi. Adolat natijasida tenglikka erishiladi, insonparvarlik ta'minlanadi.

Bilib oling!

Gapdagi biror shaxs yoki narsa-buyumni boshqa nom orqali ifodalaydigan bo'lak **izohlovchi** deyiladi. Izohlovchi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanadi. Izohlovchi kasb, mashg'ulot, amal, unvon, holat, taxallus, laqab kabi ma'nolarni bildiradi: Shuningdek, izohlovchi geografik nomlar, korxona, muassasa, gazeta va jurnal nomlarini anglatadi. Masalan: *Bu kishi sobiq **jangchi-oshpaz** Ahmad Obidov bo'ladilar.*

O'xshatish va xoslik ma'nolarini bildirgan izohlovchilar bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan: *Vatan – ona so'zi naqadar laziz. Dalalarda mehnat – hayot boshlanadi.*

 **1-mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. „Guliston“... qiziq hikoya o'qidim.

2. „Farhod va Shirin“ ... Navoiyning o'lmas asarlaridan biridir.

3. Bu spektakl o'zbek milliy ... drama teatrida bir necha marta qo'yilgan.
4. „Lasetti“ ... ko'rikda juda yuksak baho oldi.
5. „Toshkent oqshomi“ ... o'qib chiqdim.

Foydalanish uchun so'zlar: *jurnalida, dostoni, akademik, mashinasi, gazetasini.*



2-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Bosh qomusimiz

Konstitutsiya insonlarning jamiyatdagi huquqlari va burchlarini belgilab beruvchi asosiy qonun-qoidalar yig'indisidir. Shuning uchun uni bosh qomusimiz deb ataymiz. Har bir davlatning o'z konstitutsiyasi bor. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992- yil 8- dekabrda qabul qilingan.

Konstitutsiyada bizning mamlakatimizda yashovchi barcha fuqarolarning huquqlari va burchlari belgilab berilgan. Huquq bu har bir fuqaroning mamlakatimizda ega bo'lgan imtiyozlaridir. Burch esa har bir fuqaro rioya qilishi shart bo'lgan talabdir. Vijdon har bir insonning o'zini o'zi nazorat qilishidir.

Lug'at

jamiyat – общество

huquq – право

qonun – закон

fuqaro – гражданин(ка)

vijdon – совесть

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Konstitutsiya haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Burch va vijdon so'zlariga izoh bering.
3. Nima deb o'ylaysiz, sizning burchingiz nimalardan iborat?



2-mashq. Berilgan gaplardagi konstitutsiya moddalariga tegishlisini daftaringizga ko'chiring.

1. Barcha fuqarolar konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar. (47- modda) 2. „Qobusnoma“ va boshqa kitoblardagi hikmatlar, maqollar, ulug' allomalarimizning o'g'itlari bizning o'z burchlarimizni bilib olishimizga yordam beradi. („Qobusnoma“dan) 3. Har bir fuqaro o'z huquqini yaxshi bilsa va qoidalardan xabardor bo'lsa, hayotda qiynalmaydi. („Vatan tuyg'usi“ kitobidan) 4. Yaxshi qonunlar urf-odatlardan tug'iladi. (Maqol) 5. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega... (29- modda)



3-mashq. Quyidagi gaplarni o'qing, daftaringizga ko'chiring. Izohlovchilarni aniqlab, tagiga chizing.

1. Akademik Pavlov sutga „Tabiat tomonidan tayyorlangan ovqat!“ deb baho bergan edi.

2. Shokir aka yozuvchi Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy bilan sirdosh edi.

3. Ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek adabiyoti va o'zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi.

4. Bugun sizni kutar maktab — darsxona.

5. O'zbek shoirasi Zulfiya Neru mukofotini olishga sazovor bo'ldi.

6. Butun olamni boqib katta qilgan onani — ayolni ko'klarga ko'taraylik.



Uyga vazifa. „Mening burchim“ mavzusida matn yarating.

2-dars



Bilasizmi?

1-modda. O'zbekiston — suveren demokratik respublika.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

29-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z otionalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar.

 **3-topshiriq.** Matnni o'qing. Matn yuzasidan berilgan savollarga og'zaki javob bering.

Burch

Burch har bir kishining o'z vazifalarini to'liq bajarish, odamlarga to'g'ri munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni ifoda etadi. Burch shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Aql-zakovat, tafakkur asosida va ularga tayanib o'z burchini bajarish faqat insongagina xos.

Burch shaxsning axloqiy faoliyatini ifodalovchi mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro' hamda shon-sharaf keltiradi. Har bir insonning o'z burchiga sodiqligi o'ziga, jamiyatga, Vatanga, oilaga, farzandlariga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Burch – muqaddas. Burchga sodiqlik Vatanga sodiqlikdir. O'z burchiga sodiqlik har bir kishining odobi, axloqini ifodalaydi, ammo o'z burchini bajarmagan kishilar xalq orasida hurmat topmaydi.

Burch o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki tarbiya jarayonida kamol topadi. Burchni tarbiyalash jarayonida o'z-o'ziga talabchanlik rivojlanadi. Natijada har bir kishida o'z ishiga, bilimiga va kuch-quvvatiga ishonch qaror topadi. O'z burchini bilgan kishi o'zining to'g'riligi bilan ishdagi kamchiliklarni ochib tashlaydi hamda nojo'ya harakat qilayotgan kishilarga murosasiz bo'ladi. Burchiga sodiq kishi birovlarini ranjitmaydi, boshqalarni xafa qilmaydi va sabr-toqatli bo'ladi.

(„Vatan tuyg'usi“ kitobidan)

Lug'at

nohaqlik – несправедливость

kafolat – гарантия

qiynalmoq – затрудняться

taqozo etmoq – потребовать
tamoyil – принцип
majburiyat – ответственность

Matn yuzasidan savollar

1. Aql-zakovat, tafakkur soʻzlarini qanday tushunasiz?
2. Burch nima? U qanday namoyon boʻladi?
3. Kishiga nima sharaf keltiradi?
4. Qanday kishilar hurmat topmaydi?
5. Burch qanday shakllanadi?
6. Burchiga sodiq kishilar qanday boʻladi?



4-mashq. Berilgan gaplarni davom ettirib yozing.

Burch shaxsning jamiyatga boʻlgan ...
Oʻz burchiga sodiqlik har bir insonga ...
Burchga sodiqlik – ...
Burchni tarbiyalash jarayonida ...
Burchiga sodiq kishi birovlarini ...



5-mashq. Maqol va hikmatlarni koʻchiring, mazmunini izohlang.

1. Toʻgʻri odamning hech qachon oyogʻi qaltiramaydi.
2. Xalq qonunni oʻz tayanchi, oʻzini muhofaza qiluvchi devor sifatida himoya etmogʻi lozim.
3. Adovat emas, adolat yengar.
4. Jazo bermaslik jinoyatga katta ragʻbatdir.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
2. Inson oʻz huquqlarini qanday himoya qilishi kerak?
3. Qonunbuzarlikka yoʻl qoʻymaslik uchun nimalar qilish kerak?
4. Nima uchun biz huquqiy bilimlar va majburiyatlarimizni yaxshi bilishimiz zarur?
5. Qanday jamiyatning kelajagi porloq boʻladi?



Uyga vazifa. Izohlovchilar ishtirokida 6 – 7 ta gap tuzing.

ME'MORIY OBIDALAR (Aniqlovchi va uning ifodalanishi)

1-dars

 **1-topshiriq.** Rasmlardan foydalanib, berilgan tayanch soʻz va soʻz birikmalari ishtirokida partadoshingiz bilan suhbat matnini tuzing.



Tillashayx



Ko'kaldosh



Hazrati Imom

Foydalanish uchun soʻz va soʻz birikmalari: *me'morchilik, qadimiy obidalar, moviy gumbaz, Registon maydoni, naqshinkor madrasalar, sharqona usul, ganchkorlik, zamonaviy inshootlar, me'moriy, yodgorlik.*

 **2-topshiriq.** Matnni o'qing. Savollar tuzing va mazmunini so'zlab bering.

O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari

Me'morlik insonning har kungi hayotidan ajralmas san'atdir. Me'morlik ham san'atning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniyati va ma'naviyatini aks ettiradi, xalqning turmush tarzi, estetik shakllarida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston zamini me'moriy obidalarga boy o'lka. Qadim zamonlardan boshlab me'morlik san'ati rivojlanib kelgan.

Temur va Temuriylar davrida me'morlik san'ati nihoyatda rivojlangan. Bu davrda me'morchilik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyitish katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etgan. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli koshinlar XIV asr oxiridan tarqaldi. Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o'z tasarrufidagi yerlarda ham hashamatli binolar qurirdi.

Lug‘at

me‘moriy obidalar – архитектурные памятники

rangli koshinlar – цветная мозаика

sopol – глиняный

tasarrufidagi – в распоряжении

hashamatli – великолепный, роскошный

Bilib oling!

Aniqlovchi gapning biror bo‘lagini aniqlab, narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashlilikini bildiradi. Aniqlovchi ega, to‘ldiruvchi, kesim va holga bog‘lanadi. Aniqlovchilar qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, kimning?, nimaning?, qayerning? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: *Bizning **qudratli** binolarimizga nazar tashlang.*



1-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

1. Xiva ... Xorazmning noyob qadimiy shahridir. 2. Ravoq tepasida ... panno bor. 3. Ulug‘bek madrasasi ... va ... , ... pannolar bilan bezatilgan. 4. Tillakori madrasasi Registondagi eng ... obidadir. 5. Madrasaga ... yulduzlar shaklidagi naqsh tushirilgan.

Foydalanish uchun so‘zlar: o‘n qirrali, ko‘hna, oq, ko‘k, zangori, hashamatli, go‘zal.



2-mashq. Berilgan so‘zlar yordamida gaplar tuzing.

Ko‘hna, ulug‘vor, qudratli, yodgorliklar, noyob, naqshinkor, qudratli, tarixiy.



3-mashq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling. Aniqlovchilarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. O‘zbekistonning qadimiy yodgorliklarini ko‘rgani juda ko‘p sayyohlar kelishadi. 2. Samarqanddagi ko‘p me‘moriy yodgorliklar Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurilgan. 3. Shu me‘moriy yodgorliklar XIV–XV asrlarda bunyod etilgan. 4. O‘n beshta kitob o‘quvchilarga

tarqatildi. 5. Amir Temur barcha mamlakatlardan mashhur hunarmandlar, me'morlarni keltirib, ushbu madrasa va masjidlarni qurdirgan. 6. Registon ansambli uchta salobatli madrasadan iborat.



Uyga vazifa. Shahringizdagi me'moriy obidalardan birini tasvirlab, matn tuzing.

2-dars



3-topshiriq. Suhbat matnini to'ldiring. Aniqlovchilarni aniqlang.

- Nargiza, sen O'zbekistonning qadimiy shaharlarida bo'lganmisan?
- ...
- Qanday me'moriy obidalarni ko'rding?
- ...
- Senga ko'proq qaysi tarixiy obida yoqdi?
- ...
- Nima uchun?
- ...



4-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan savollarga javob bering.

Me'moriy obidalar

Biz yashayotgan ikki daryo oralig'ida joylashgan zamin O'zbekistondir. Yurtimizda qadimiy va navqiron shaharlar ko'p. Ulardan Samarqand, Buxoro, Xiva kabilar dunyoga o'zining me'moriy obidalari bilan mashhurdir. Samarqanddagi Registon maydoni, Shohi Zinda ansambli, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim madrasasi, afsonaviy Buxorodagi Ark qal'asi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor minor majmualari, Labi hovuz ansambllari, Ko'hna Xivaning Ichan qal'asi, Juma masjidi, Kaltaminor, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Dishan qal'a, Toshhovli va boshqalar bunga misoldir.

Bu muzey-shaharlarga dunyoning barcha burchaklaridan har yili minglab sayyohlar kelib, tarixiy yodgorliklarimizni zavq bilan tomosha qiladilar. Ular aynan mana shu obidalarimizni ko'rib hayratga tushadilar.

Lugʻat

koʻhna – старинный

afsonaviy – легендарный

muzey-shahar – город-музей

ikki daryo oraligʻi – междуречье

zavq bilan – с удовольствием

sayyoh – турист

obida – памятник

qalʼa – крепость

maqbara – мавзолей

hayrat – удивление

Matn yuzasidan savollar

1. Oʻzbekistondagi qanday qadimiy shaharlarni bilasiz?
2. Samarqand, Buxoro, Xivadagi qanday meʼmoriy obidalarni bilasiz?
3. Oʻzbekistonda turizm sohasining rivojlanishida meʼmoriy obidalarining oʻrni qanday?
4. Biz tarixiy obidalarni saqlash uchun nima qilishimiz kerak?



4-mashq. Blis-soʻrovnomani bajaring.

Meʼmoriy obidalar	Samarqand	Buxoro	Xiva
Registon maydoni	+		
Ark qalʼasi			
Ichan qalʼa			
Pahlavon Mahmud maqbarasi			
Somoniylar maqbarasi			
Shohi Zinda ansambli			
Bibixonim madrasasi			
Dishan qalʼa			
Goʻri Amir maqbarasi			

Bilib oling!

Aniqlovchilar quyidagi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Sifat bilan: *Ariqlarda **billurday** suv oqadi.*
2. Son bilan: ***Besh-olti** xil meva olib kelishdi.*
3. Ravish bilan: *Bobom **kechagi** voqeani gapirib berdilar.*
4. Olmosh bilan: *Unga **ana shu** meʼmoriy obidalar yoqdi.*

5. Ot bilan: *Tillakori madrasasidagi naqshlarga **oltin suvi** yurgizilgan.*

6. Sifatdosh bilan: *Kecha **kelgan** ustalar maqbarani ta'mirladilar.*



5-mashq. Gaplarni ko'chiring, aniqlovchilarni toping.

1. Uyning devori yashil rangga bo'yalgan. 2. Kuzgi bug'doy erta pishadi. 3. Madrasaning eshiklari ikki xil ekan. 4. Ulug'bek madrasasi uzoq yillardan beri saqlanib kelinmoqda. 5. Biz, to'qqizinchi sinf o'quvchilari Samarqandga bordik. 6. Toshkentdagi mana shu obidalarni ko'rib chiqdik. 7. Sulton Mahmudning juda ham go'zal bog'i bo'lgan. 8. O'qigan odam hayotda qiynalmaydi. 9. Elyor bizning maktabda o'qiydi.



6-mashq. Berilgan gaplardan aniqlovchilarni topib, daftaringizga yozing.

1. Maqtanchoq odam hammaga ham yoqavermas ekan. 2. Mavlono Fazliddin uyining qayerdaligini Tohirga batafsil tushuntirdi. 3. Madrasa hovlisining har bir burchagiga gullar ekilgan. 4. Daladagi ishlarni bitirib qo'ydik. 5. Mana shu yer bizning tug'ilib o'sgan zaminimiz. 6. Ansamblning yaxlitligi jihatidan Xiva O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. 7. Obidalarining ko'pchiligi Amir Temur davrida bunyod etilgan.



5-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

Tillashayx jome masjidi

Tillashayx masjidi toshkentlik mashhur Tillashayx tomonidan bunyod etilgan.

Me'moriy obida o'z dizayni bilan o'z davrida qurilgan masjidlardan ajralib turgan. Inshoot to'rtburchak tarhli, gumbazsimon, masjidning ikki yonida uncha katta bo'lmagan minoralar bo'lib, masjidga arksimon qilib qurilgan ayvon orqali kiriladi. Arklar soni 3 ta. Masjidning tashqi tomoni bezaklardan xoli bo'lib, uning ikki yonida masjidga yorug'lik tushishini ta'minlash uchun 18 ta deraza o'rnatilgan. Masjidning ichki ko'rinishi tashqi ko'rinishidan mutlaqo farq qiladi, undagi ganch

naqshlar, gulli bezaklar insonni beixtiyor o'ziga jalb qiladi. Masjid ichidagi gumbaz osti naqshlar ham o'zining nafisligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masjidni yoritish maqsadida qandillar ham o'rnatilgan.

Masjidning bugungi kungacha va bugungi holati haqida gapiradigan bo'lsak, masjid usta Shirin Murodov tomonidan ta'mirlangan. 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me'moriy obida atrofidagi e'tiborga molik obidalar ham ta'mirlandi.

(„Ensiklopediya“dan)

Lugʻat

shayx – шейх

taqvodor – религиозный
человек

savdogar – купец

shakl – форма

bezak – украшение

masjid – мечеть

gumbaz – купол

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Masjidning tashqi qiyofasini tasvirlang.
2. Yana qanday masjidlarni bilasiz?
3. Me'moriy obidalarda qanday bezaklardan foydalanilgan?



Uyga vazifa. 4-topshiriqdagi matnni ona tilingizga tarjima qiling.

3-dars



Adabiy o'qish



6-topshiriq. Suhbat matnini to'ldiring.

– Nima uchun Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga ko'plab sayyohlar keladilar?

– ...

– Amir Temur qanday obidalar qurdirgan?

– ...

– Samarqand va Buxorodagi qanday yodgorliklarni bilasiz?

– ...

– Toshkentda qanday me'morchilik yodgorliklari bor?

– ...



7-topshiriq. Matnni o'qing va matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

Hazrati Imom majmuasi

Hazrati Imom majmuasi Toshkent shahridagi mashhur me'moriy yodgorliklardan biridir. Ushbu majmua XVI–XX asrlarda Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil al Qaffol Shoshiy qabri atrofida shakllangan. XV asr oxiri XVI asr boshlarida barpo etilgan.

Baroqxon madrasasi ham ushbu majmuaning tarkibiga kirib, u bu yerda mavjud bo'lgan ikki maqbara ustida qurilgan. Katta maqbarada Toshkent hokimlaridan bo'lgan Suyunchxo'jaxon, kichik maqbarada esa Baroqxon qabrlari joylashgan. Madrasaning sharq tomonidagi peshtoq rang-barang g'ishtlar bilan qoplangan.

Lug'at

me'moriy yodgorliklar – архитектурная реликвия

madrasa – медресе


peshtoq – портал, арка

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matndan tayanch so'zlarni toping, tarjima qiling.
2. Matnga asoslanib ushbu majmuada yana qanday madrasalar joylashganini toping.
3. Nima deb o'ylaysiz, o'sha davrda maqbaralar qanday shaklda qurilgan.



7-mashq. „Klaster“ usulidan foydalanib, Samarqanddagi me'morchilik yodgorliklarining nomlarini yozing.





8-mashq. Blis-so'rovnomani bajaring. Aniqlovchi qaysi so'z turkumlari bilan ifodalangan.

So'z birikmalari	Sifat bilan	Son bilan	Ravish bilan	Olmosh bilan	Ot bilan
Yashil o'tlar					
Mana shu gullar					
O'n beshta gul					
Shirin olmalar					
Uzun ko'chalar					
Kumush qor					

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Me'morchilik tushunchalarini bildiruvchi so'z va so'z birikmalarini „Klaster“ usulida to'plab, daftaringizga yozing.
2. Muzei-shahar deganda nimalarni tushunasiz?
3. Gapning qanday bo'lagi aniqlovchi deyiladi? Misollar keltiring.
4. Aniqlovchilar qanday turlarga bo'linishini misollar bilan tushuntirib bering.



Uyga vazifa. Jadvalni to'ldiring.

Qadimiy obidalar	Zamonaviy inshootlar
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

VATAN HIMOYACHILARI (Hol)

1-dars

 **1-topshiriq.** Berilgan suhbatni to'ldiring va davom ettiring.

- Qishki ta'tilda yaxshi dam oldingizmi?
-
- Ta'tilda qanday bayramni kutib oldingiz?
-
- Yaqin kunlarda biz yana qanday bayramni nishonlaymiz?
-
- Vatanparvarlik – nima?
-

 **2-topshiriq.** Matnni o'qing va matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.



Vatanimiz himoyachilari

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng biz o'z milliy armiyamizga ega bo'ldik. 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni sifatida keng nishonlanadi.

Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash har birimizning burchimizdir. Yurtimizning har bir o'g'loni Vatan himoyasi uchun xizmat qilishni orzu qiladi. Ular jonajon yurtimizning muqaddas sarhadlarini, xalqimiz osoyishtaligini mardona himoya qiladilar. Shuning uchun har bir bola chiniqqan va mard bo'lishi kerak.

Respublikamizda har yili bahorda yigitlarimiz majburiy harbiy xizmatga chaqiriladilar. Ular bir yil davomida muddatli harbiy xizmatni

o'taydilar. Majburiy xizmatning to'rtidan bir qismi o'tib bo'lgach, yigitlarga shartnoma asosida harbiy xizmatni uzaytirish taklif etiladi.

Biz, yoshlar ham o'zimizning bilimlarimiz, shijoatimiz va intilishlarimiz bilan Vatanimizga bo'lgan sadoqatimizni ko'rsataylik. Uning ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilaylik.

Lug'at

himoyachi – защитник

muqaddas – священный

sarhad – граница

shartnoma – контракт

osoyishtalik – спокойствие

chiniqqan – закалённый

harbiy xizmat – военная служба

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Berilgan lug'atdan foydalanib, matnni ona tilingizga tarjima qiling va mazmunini „Zanjir“ usulida hikoya qiling.
2. Vatanga bo'lgan sadoqat tushunchasini qanday tushunasiz?
3. Lug'atda berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Bilib oling!

Kesimga bog'lanib, ish-harakatning qay holda yuzaga kelishi, o'rni va payti, sabab yoki maqsadi, miqdori kabi belgilarni ifodalovchi ikkinchi darajali bo'lak hol deyiladi. **Hol ravish, ravishdosh, sifat, sifatdosh, son, olmosh, chiqish, jo'nalish, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan so'zlar** bilan ifodalanib, qayerga?, qayerda?, qayerdan?, qachonga?, qachondan? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: *U **sekin** ishladi.*



1-mashq. Gaplarni yozing. Hollarni topib, ifodalanishini tushuntirib bering.

1. Ayriliq, iztirob damlarida inson bitta maqsad bilan yashaydi.
2. Kecha Asqar Dilshod bilan uchrashdi.
3. Tevarakda gala-gala qushlar to'xtovsiz chirqillashardi.
4. O'zbekiston Qurolli Kuchlari muzeyidan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda keng foydalanilmoqda.
5. Shohida akasidan kelgan xatni diqqat bilan o'qib chiqdi.
6. Daraxt bir yerda ko'karadi.
7. Tepalikka chiqishda otlar taqa-taq to'xtab qoldi.

 **2-mashq.** Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib yozing. Hollarni aniqlang.

1. ... boshlanadi ish. 2. Mashina yangi asfalt yo'lda ... yurib ketdi. 3. Nodonga ... aytsang ham befoyda. (Maqol) 3. Bolalar ... ko'chaga chiqib ketishdi. (Oybek) 4. U ... mukofotlandi. 5. ... yursang, murodingga ... yetarsan. (Maqol) 6. U ... jo'nadi. 7. ... odam ko'p edi. 8. Barno darsni ... maqtovga sazovor bo'ldi. 9. Poyezd bizni ... qoldirib ... yo'l oldi.

Foydalanish uchun so'zlar: to'g'ri, dalalarda, shoshmasdan, tez, oson, Buxoroga, yaxshi tayyorlagani uchun, yuz, Samarqandda, o'ynab kelgani, uy ichida, yaxshi o'qigani uchun.

 **Uyga vazifa.** „Vatanimga xizmat qilaman“ mavzusida matn tuzing.

2-dars

 **3-topshiriq.** Berilgan suhbatni to'ldirib, davom ettiring.

- Vatan sarhadlari deganda nimani tushunasiz?
-
- Vatanni himoya qilish uchun qanday xislatlarga ega bo'lish kerak?
-
- „Ko'z-qorachig'idek asrash“ deganda nimani tushunasiz.
-

 **3-mashq.** Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling. Hollarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Bola epchillik bilan turdi, qisqa va lo'nda javob berdi. 2. Oilada osoyishtalik, hayotda farovonlik, dunyoda tinchlik bo'lsin. 3. Shamol g'ir-g'ir esyapti. 4. U ariq bo'yida o'tirib, kelgusidagi rejalari haqida ko'p o'yladi. 5. Sobir bizning fikrimizga qo'shilib, ma'nodor kulib qo'ydi. 6. Biz universitetda o'qigan vaqtimizda ularning yoniga tez-tez borar edik. 7. Bizning oilamiz Toshkentda yashaydi.

 **4-topshiriq.** Matnni o'qing va berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

1991-yilning 31-avgust kuni „O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu muhim hujjat yosh respublikamizga o‘zining harbiy siyosatini yuritish huquqini berdi. Shu kuni e‘lon qilingan „O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida“gi bayonot esa milliy Qurolli Kuchlarimizni tashkil etish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

1992-yilning 14-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining „O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida“gi qarori juda muhim tarixiy ahamiyatga egadir. Mazkur qarorga ko‘ra davlatimiz hududidagi harbiy tizimlar respublika tasarrufiga olindi.

1993-yil 29-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni deb belgilandi. Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda armiya saflarida o‘z burchini o‘tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan navqiron yigitlarning bayrami, deb qabul qilindi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnga sarlavha toping. Matndagi tayanch so‘zlarni aniqlab, lug‘at tuzing.
2. O‘zbekiston Qurolli kuchlari haqida yana nimalarni bilasiz?
3. Vatanni yana qanday himoya qilish mumkin?



5-topshiriq. Maqollarni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Mardlik – manguilik.

Ona yurtim – oltin beshigim.

Vatanni sevmok – imondandir.

Begona yurtda sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l.

El borki – Vatan bor.

Vatan borki – el bor.

Vatanning tinch – sen tinch.

Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.

 **4-mashq.** Berilgan gaplarni o'qing. Hollarni savol berib aniqlang. Mazmunini izohlang va yozing.

1. Imtihonlar yozda bo'ladi. 2. Manzura opa quvonganidan hech gapira olmas edi. 3. Zilola opa bafurja gaplashish maqsadida keldi. 4. U notiqning gaplarini diqqat bilan tingladi. 5. Xiyobonning chap tomonida kutubxona joylashgan. 6. Qish oxirlab, vodiydagi qorlar allaqachon erib ketgan. 7. O'quvchilar dam olishga dala shiyponiga ketishdi. 8. Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig'laganicha narigi uyga kirib ketdi. (A. Qahhor)

 **6-topshiriq.** O'zbekiston xaritasidan foydalanib, berilgan savollar asosida „Klaster“ tuzing.

1. O'zbekistonda nechta viloyat bor?
2. Ularning markazlari qaysi shaharlar?
3. O'zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?

 **Uyga vazifa.** Berilgan so'z va so'z birikmalari ishtirokida bog'lanishli matn tuzing. *Vatanni sevmoq, Vatan himoyachilari, sarhadlarimiz, vatanparvarlik, chegarachi, askar bo'lmoqchiman, tinchlik uchun xizmat qilmoq, Vatanga sadoqat.*

3-dars

 **Adabiy o'qish**

 **7-topshiriq.** Berilgan savollar asosida sinfdoshingiz bilan suhbatlashing va suhbat matnini to'ldiring.

- Mardlik deganda nimani tushunasiz?
-
- Qanday insonni mard inson deb ataymiz?
-
- Mardlikda ham ehtiyotkorlik zarurmi?
-
- Insonning vataniga bo'lgan munosabati nimalarda aks etadi?
-
- Mard insonlarni kimlar hurmat qiladilar?
-



8-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering. Lug‘at yordamida tarjima qiling.

Doim hushyor

Yurt tinchligi bebaho ne‘mat, ulug‘ saodatdir. Bashariyat o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi – taraqqiyot garovi.

O‘zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, o‘z orzu-intilishlari maqsad-muddalari ro‘yobga chiqishining kafolati deb biladi. Lekin, afsuski, hayotda ezgu tilaklarning ijobat bo‘lishiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o‘zlarining g‘arazli maqsadlari – nafs-balosi yo‘lida hamisha nizo-adovat, urush va qirg‘inlar domiga tortib keladi. Bu urush va tinchlik, xavfsizlikni ta‘minlash hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo‘lib qolayotganidan dalolatdir. Tinch hayotimizda chegaralar mustahkamligi, chegaradosh mamlakatlardagi harbiy-siyosiy mojarolarning oldini olish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston shimoli-sharqda Qozog‘iston, sharqda va janubi-sharqda Qirg‘iziston hamda Tojikiston, g‘arbda Turkmaniston, janubda esa Afg‘oniston bilan chegaradosh.

Mamlakatimizda davlat sarhadlari va chegaralarini himoya qilishga qodir bo‘lgan Milliy armiya tuzilgan.

Qurolli kuchlar safiga kirgan fuqarolar Vatanni himoya qilishni o‘z vazifasi, majburiyati va burchi deb biladi. Davlatimiz tinchligi, chegaralarimiz xavfsizligi uchun himoyachilar doimo hushyor turadilar.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini eng asosiy boylik sifatida asrab kelmoqdamiz.

Ravza Yamasheva



9-topshiriq. Matnni o‘qing va ona tilingizga tarjima qiling.

Mardlik

Mardlik so‘zida vatanparvarlik, milliy iftixor, vatanni himoya qilish kabi fazilatlar mujassamlashgan.

Vatanparvar, mard insonlarni birinchidan, xalqimiz hurmat qiladi, ikkinchidan, ular bilan juda faxrlanadi.

Hayotda mardlik insonning qanchalik oliy fazilati bo'lsa, nomardlik, sotqinlik ularning shunchalik tuban illatidir.

Bizning xalqimiz o'zining ko'p maqollarida ana shu ijobiy va salbiy fazilatlarni zo'r mahorat bilan ifoda etadi:

Mardlik – kishining husni.

Mardlik – yiqitmoq emas, turg'azmoq.

Polvonlarning odati shuki, avvalo, kurash tushganda yiqitgan polvon raqibini ko'tarib turg'azadi-da, so'ngra yelkasidan qoqib qo'yadi.

Bu bilan birga xalqimiz qiyin ahvolga tushib qolgan odamga yordam berish, qo'llab-quvvatlash, avvalambor, mardlik belgisi demoqchi bo'ladi.

Lug'at

mardlik – смелость

mangulik – вечность

ezgu – доброжелательный

tuyg'u – чувство

sadoqat – преданность

vatanparvarlik – патриотизм

shaxs – личность

fazilat – качество

faxrlanmoq – гордиться

yiqitmoq – *здесь*: побеждать

madad bermiq – помогать

qo'llab-quvvatlamq – поддерживать

 **10-topshiriq.** She'rni o'qing. Mazmunini so'zlab bering va yod oling.

O'zbekiston askari

Qadamingdan o't chaqnar,
Liboslaring yarashar,
Ko'rganlar havas qilar,
O'zbekiston askari!

Sen o'z o'rning sardori,
Himoyangda yosh-qari,

Yo'latmagin dushmanni
O'zbekiston askari!

Tomirda qaynoq qoning,
Qadrlidir har oning,
Oshgay shuhrat va shoning,
O'zbekiston askari!

Sergak turgin, charchama,
O‘zbekiston askari!
Ardoqlaydi Vatanni,
Bag‘ishlab jon-u tanni,

Ozod yurtim bor deb ayt,
Yuzing yorug‘ bo‘lib qayt,
Faxr aylab bitgum bayt –
O‘zbekiston askari!

N. Hasanova



11-topshiriq. Berilgan maqollarni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

1. Adashganni yo‘lga solgan mard.
2. Aybiga iqrar mard kishi,
Yashirmoq qo‘rqoq ishi.
3. Yomon odam yovdan qochar,
Nomard odam siring ochar.
4. Yigitga mardlik yarashar.
5. Mard aytmas,
Aytsa qaytmas.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Vatan sarhadlari deganda nimani tushunasiz?
2. Vatan haqida 3 – 4 ta maqol topib yozing.
3. Hol deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
4. Vatan haqida qanday hikoyalarni yoki roman o‘qigansiz? Aytib bering.



Uyga vazifa. „Harbiylar hayoti“ haqida kichik matn yarating.

O'ZBEKISTON SPORTI (Holning turlari va ifodalanishi)

1-dars



1-topshiriq. Rasmlar asosida gaplar tuzing.



Namuna: Mamlakatimizda milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqalar o'tkazila boshlandi.



2-topshiriq. Berilgan savollar asosida suhbatlashing.

1. O'zbek qadimiy sport turlaridan qaysilarini bilasiz?
2. O'zbek bokschilaridan kimlarni bilasiz?
3. Siz sportning qaysi turini yoqtirasiz?
4. O'zbekistonda sportning qaysi turlari rivojlangan?

Bilib oling!

Hol ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'rin holi: (qayerga?, qayerda?, qayerdan?) *Turg'un **oldinda** ketyapti.*

2. Payt holi: (qachon?, qachondan beri?, qachongacha?) *Barno **kecha** maktabga kelmadi.*

3. Ravish holi: (qanday?, qay tarzda?, qanday qilib?) *Ukam **chiroyli** yozadi.*

4. Daraja-miqdor holi: (qancha?, necha marta?, nechalab?) *Yodlash uchun **o'n marta** o'qidim.*

5. Sabab holi: (nima sababdan?, nima uchun?, nega?) *Dugonam **betoblighi sababli** mashg'ulotga kelmadi.*

6. Maqsad holi: (nima maqsadda?, qay maqsadda? nima qilgani?) *Karim **kitob olish maqsadida** kelgan ekan.*



1-mashq. Gaplarni o'qing. Hollarni topib, ifodalanishini tushuntirib bering.

1. Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozu. (Maqol)
2. Terimchilar qop-qop terib qo'yishdi.
3. U diqqat bilan tingladi.
4. Qaytishda siznikiga kirib o'tamiz.
5. U eshikni sekin ochib, ichkariga qaradi.
6. Men juda ko'p qayg'urdim.
7. Daraxt barglari duv to'kildi.
8. Nafasimni rostlagach, tikilibroq qaradim.
9. U akasi haqida to'lib-toshib gapirardi.



2-mashq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling. Hollarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Zilola chiroyli yozadi.
2. Bugun maktabim yonidan o'tdim.
3. O'n marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal.
4. Buni o'qiyotganimda sezib qoldim.
5. Mastura o'qish uchun keldi.
6. Fotima opa bafurja gaplashish maqsadida keldi.
7. Rais bilan ikkisi do'stlarcha xayrlashdi.
8. Rahim boshini eggan holda kelardi.

 **3-topshiriq.** Matnni o'qing. Ona tilingizga tarjima qiling. Savollar tuzing. Lug'atda berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

O'zbekiston milliy sporti dunyoni zabt etmoqda

O'zbekiston sportining an'anaviy turlari bilan birgalikda milliy sport turlari hamda xalq o'yinlari ham tobora rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'zbek kurashi bo'yicha musobaqalar tashkil etilib, sportning shu turi ustalari o'rtasida jahon chempionati muntazam o'tkazib kelinayotgani O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro qalbini g'ururga to'ldiradi. Biz faxrlansak arziydigan milliy sport turlari juda ko'p. Ularning orasida „Turon“ kurashi, „O'zbek jang san'ati“, „Uloq“, „Ko'pkari“, „Chovgon“, „Belbog'li kurash“ va „Kamondan o'q otish“ turlari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, „O'zbek jang san'ati“ga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Bu sport turi yoshlardan abjirlik, epchillik kabi xususiyatlarni shakllantirishda, o'tkir zehnli bo'lib ulg'ayishlarida muhim o'rin tutadi.

Lug'at

alp, bahodir – богатырь

tetik, bardam – бодрый

kamon otish – стрельба из лука

mukammal – всесторонний

marra – финиш

qilichbozlik – фехтование

udum – обычай

zabt etmoq – завоевать



Uyga vazifa. O'zbekiston sporti haqida 8 – 9 gapdan iborat bog'lalishli matn tuzing.

2-dars



4-topshiriq. Savollarga javob bering.

- Ayting-chi, bolalar, siz sportga qiziqasizmi?
- Sportning qaysi turlarini bilasiz?
- O'zbekiston qadimiy sport turlaridan qaysilarini bilasiz?
- O'zbekistonda sportning qaysi turlari rivojlangan?
- O'zbek bokschilaridan kimlarni bilasiz?
- Siz sportning qaysi turini yoqtirasiz?
- Siz o'zbek chempionlarini bilasizmi?



5-topshiriq. Matnni ifodali o'qing. Savollar va lug'at tuzing.

Milliy sport turining ahamiyati

Milliy sport turlarining barchasi ota-bobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda rivojlangan. Turli o'yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos uquv shakllangan. Milliy sport turlari va xalq o'yinlari yoshlarni sog'lom voyaga yetkazish, ularga ta'lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyat va urf-odatlarini asrab avaylashda ularning o'rni beqiyos. Ushbu sport turlari o'ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga o'tib boradi. Ularni ardoqlagan yoshlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usi shakllanib boradi, xalqimizning an'ana va urf-odatlarini e'zozlash hissi yanada kuchayadi.

Bilib oling!

Ish-harakatning maqsadini bildirib, nima uchun?, nima maqsadda?, nima qilgani? kabi so'roqlarga javob bo'lgan hol **maqsad holi** deyiladi.

Masalan: *O'quvchilar **imtihon topshirgani** keldilar. Hammani **kuldirish uchun** shunday antiqa kiyindi.*



3-mashq. Nuqtalar o'rniga maqsad ma'nosini ifodalovchi so'zlar va qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yozning issiq bir kunida, qo'zi bordi suv ich... . 2. Inshoni bugun yoz... edim. 3. Kuz kelgach, dehqon daladagi hosilni tezroq yig'ish... shoshildi. 4. O'qituvchi bir-ikki soat dars berish ... qancha tayyorlanishi kerak. 5. Chol daryo yoqasiga baliq ovla... ketibdi. 6. Uni yaxshilab davolotish ... shahardan yaxshi shifokorlarni chaqirishdi. 7. Xayrulla o'qish ... Toshkentga ketdi.



4-mashq. Gaplarni o'qing. Maqsad holining qanday vositalar bilan ifodalanganini aniqlang.

1. Biz ilmning qal'asini olmoqqa keldik, baxtimizning sozini chalmoqqa keldik. 2. Xolidaxon opamni ko'rish uchun keldi.

3. U Fargʻonadan Toshkentga oʻqish uchun kelganini aytdi. 4. Tun boʻyi uxlamaganligi uchun koʻzlari qizargan edi. 5. Shodligidan qul Tarlon, toʻxtamadi yigʻidan. 6. Yerlar suvsizlikdan qaqrab yotar edi. 7. Koʻrgali husningni zor-u muhtalo boʻldum sanga.



5-mashq. Berilgan gaplardan hollarni maʼnosiga koʻra turlarini aniqlang. Oʻrin va payt holi qatnashgan gaplarni daftaringizga koʻchiring.

1. Oʻn marta eshitgandan, bir marta koʻrgan afzal. 2. Bunda bulbul kitob oʻqiydi (H.O.) 3. Men oʻylagan darajada qili-sharmikan. 4. Olim stadionga bordi. 5. U orqadan qochdi. 6. Qaytishda kutubxonaga kirib oʻtamiz. 7. Boshini eggan holda kelardi. 8. Eshikni sekin ochib, ichkariga qaradi. 9. Qaytarish sharti bilan oldi. 10. Yigʻilish uchda boʻladi.



6-topshiriq. Maqollarni oʻqing va mazmunini tushuntiring.

Vatan ostonadan boshlanadi.

Sogʻ tanda sogʻlom aql.
Sport – salomatlik garovi.

Bilagi zoʻr birni yiqar,
Bilimi zoʻr – mingni.



Uyga vazifa. „Men yoqtirgan sport turi“ mavzusida kichik matn yozing.

3-dars



Adabiy oʻqish



7-topshiriq. Matnni oʻqing. Notanish soʻzlarning lugʻatini tuzing va guruhlariga boʻlinib tarjima qiling.

Sport – jamiyat madaniyatining ajralmas qismi. U odamning salomatligini mustahkamlash, mehnatga, istiqboli uchun kurashga tayyorlash usuli hamda vositasi boʻlib, aqliy, jismoniy mashqlar, musobaqalar va bahslardan tashkil topgan.

Sportning vazifasi yuqorida aytilganlar bilan bir qatorda, musobaqa va bahslarda yuksak natijalarga erishmoq va gʻalaba qozonmoqdir.

Sport juda ko'hna tarixga ega. Qadim zamonlarda sport mashqlar, o'yinlar, sport usulidagi xilma-xil yakka kurashlar, merganlik, tosh otish merganligi, to'siqlardan o'tish epchilligi va shunga o'xshash musobaqalardan iborat bo'lgan.

Lug'at

jamiyat madaniyati – общественная культура

salomatligini mustahkamlash – укрепление здоровья

sportning vazifasi – задача спорта

ko'hna – древний

xilma-xil – разнообразные



8-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Milliy sport majmuasi

Mustaqilligimizning 21 yilligi arafasida Toshkentda qurib bitkazilgan „Milliy“ sport majmuasi mazkur yo'nalishda izchil davom etayotgan ishlarning amaldagi yana bir yorqin ifodasidir. Ushbu muhtasham majmua barcha futbol muxlislariga, butun xalqimizga munosib sovg'a bo'ldi.

„Milliy“ sport majmuasi o'zining noyob me'moriy va muhandislik yechimi, betakror dizayni bilan poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Eng zamonaviy talablar asosida barpo etilgan ushbu majmuada futbolchilar, murabbiylar, hakamlar, muxlislar uchun barcha sharoitlar va qulayliklar yaratilgan.

Lug'at

malakali – опытный

izchil – последовательный

muxlislariga – фанатам

ko'rkiga ko'rk qo'shadi – придаёт красоты

betakror – неповторимый

murabbiylar – преподаватели

sharoitlar – условия

hakamlar – члены жюри

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Mustaqilligimizning 21 yilligi arafasida Toshkent shahrida qanday majmua qurildi?
2. Futbol sport turini rivojlantirish maqsadida qanday ishlar qilinmoqda?
3. Yana qanday sport majmualari qurilmoqda?

Bilib oling!

Ish-harakatning sababini bildirib nima uchun?, nima sababdan?, nima sababli?, nega?, nimaga? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan hol **sabab holi** deyiladi. Masalan: **Uyalganidan** ko'zlari toliqdi.

 **6-mashq.** Gaplarni o'qing. Avval sabab ma'nosini ifodalovchi, so'ng-
ra maqsad ma'nosini ifodalovchi gaplarni ko'chirib yozing.

1. Bolalar sayohatga jo'nash uchun tayyorgarlik ko'ra boshladilar.
2. O'rmonjon Qurbon otaning bu ishni bemaslahat boshlaganiga xafa bo'ldi.
3. O'zbek bog'laridan do'stlarga elt deb, qo'linga guldasta uzatar bahor.
4. Men mustaqil yurt farzandiman, shuning uchun shodman bir umr.
5. Bu kitobni o'qiyman, deb olib kelgan edim.
6. Ota-bobolarimiz o'z orzu-umidlariga yetishish uchun juda ko'p harakat qilganlar.
7. Akbarov xayrlashish uchun qo'l uzatdi.

 **7-mashq.** Nuqtalar o'rnini to'ldirib yozing.

Sport turlari ... aytib bering. Inson hayotida badantarbiya ... egadir. Milliy kurash juda qadimiy ... ega. Serharakat sport turlari ...
... .. O'zbek tili darsida ... mavzusini o'rgandik. Do'stlarimiz bilan
... o'ynab turamiz. Yozda tez-tez o'ynab turamiz.

Foydalanish uchun so'zlar: *sport, haqida, muhim ahamiyatga, futbol, suzish; futbol, volleybol, tennis; futbol, tarixga.*

 **8-mashq.** Ko'chiring. Hollarni topib, tagiga chizing va turini ayting.

1. Mashina tez va ravon yurmoqda.
2. Qurilish jadal sur'at bilan bormoqda.
3. Shamol dahshat bilan guvullar edi.
4. Anvar ariq

bo'yida o'tirib, kelgusidagi rejalari haqida ko'p o'yladi. 5. Dam olish kuni musobaqa o'tkaziladi. 6. Bizning mahallada Yo'ldosh ota degan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bor. 7. Furqat bolalik chog'larini Qo'qonda o'tkazgan. 8. Ular yo'lda oldinma-ketin yurib borishmoqda.



Bilasizmi

1. Sportning maqsadi nima?

Sport – jamiyat madaniyatining ajralmas qismi. U odamlarning salomatligini mustahkamlash, mehnatga, istiqboli uchun kurashga tayyorlash usuli hamda vositasi bo'lib, aqliy, jismoniy mashqlar, musobaqalar va bahslardan tashkil topgan.

2. Dastlabki sport musobaqalari haqida nimalarni bilasiz?

Dastlabki sport musobaqalari Yunonistonda miloddan avvalgi 1580-yilda bo'lib o'tgan va „Olimpiada“ deb atalgan.

3. O'zbekistonda sportning nechta turi mavjud?

50 dan ziyod sport turi ommalashgan.

Qadimda qurol bo'lmagan paytda polvonlar dushman ustidan g'alabani ta'minlaganlar.

Kurash bu insonni kuchli, epchil, irodali va chidamli qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi.

Bolalar 12 yoshdan boshlab kurash bilan shug'ullanishlari tavsiya etiladi.

1999-yilda Toshkentda kurash bo'yicha 1-jahon chempionati bo'lib o'tdi.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonda sportning qaysi turi rivojlangan?

2. Olimpiada va Paralimpiada g'oliblari haqida ma'lumot topib keling.

3. Ravish holi qanday so'roqlarga javob bo'ladi? 4 ta misol yozing.



Uyga vazifa. Holning ma'nosiga ko'ra qanday turlari bor? Misollar yozing.

BARKAMOLLIK (To'ldiruvchi, uning turlari)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini davom ettiring.

- Barkamollik nima?
-
- Komil inson qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak?
-
- Barkamol avlod deganda nimani tushunasiz?
-

Bilib oling!

Gapning biror bo'lagini (ko'pincha, kesimni) to'ldirib kelgan ikkinchi darajali bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi. Masalan: *Omon menga qaradi, men unga qaradim.*

U vositali va vositasiz to'ldiruvchilarga ajratiladi:

1. Agar to'ldiruvchi tushum kelishigi qo'shimchasi **-ni** bilan ifodalansa, vositasiz to'ldiruvchi deyiladi. Ular kimni?, nimani? so'rog'iga javob bo'ladi.

2. Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigini olgan so'z, kimga?, nimaga?, kimda?, nimada?, kimdan?, nimadan?, kim uchun?, nima uchun?, kim haqida?, nima haqida?, kim bilan?, nima bilan? kabi so'roqlarga javob bo'ladiganlarni vositali to'ldiruvchilar deyiladi.

Vositali to'ldiruvchi uchun, orqali, to'g'risida kabi ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlar orqali ham ifodalanadi. Masalan: *Bu kitobni ukam uchun oldim.*



1-mashq. Ko'chiring. Berilgan gaplardan vositali va vositasiz to'ldiruvchilarni aniqlang.

1. Birni kessang, o'nni ek.
2. Yashashni istasang, ishlashni o'rgan.
3. Yaxshini yomondan farqla.
4. Beshga uchni qo'shsa, sakkiz bo'ladi.
5. Bu ko'ylakni singlimga sovg'a qildim.
6. Yaxshidan bog'

qolar, yomondan dog‘. 7. Til qilichdan o‘tkir. 8. Yaxshilik istasang, yaxshilarga qo‘shil.



2-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos keladigan qo‘shimchalarni qo‘yib yozing.

1. Yaxshi... maqtasang yarashur, yomon... maqtasang adashur.
2. Bir... birov beradi, ko‘p... mehnat. 3. El... el qo‘shilsa – davlat, el... el kelsa – mehnat. 4. Tiling bilan diling... bir tut. 5. Salimaga kitob... men keltirdim. 6. To‘g‘ri so‘z tosh... yoradi, egri so‘z bosh...
7. Kitob o‘qish kishining so‘z boyligi... oshiradi. 8. Dangasa... ish buyursang, sen... aql o‘rgatar.



2-topshiriq. Matnni o‘qing va ona tilingizga tarjima qiling. Mazmuni ni so‘zlab bering. Savol va topshiriqlarni bajaring.

Barkamol avlod – kelajak poydevori

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan sog‘lom bo‘lib o‘sishi, ularning baxt-saodati uchun xizmat qiladi. Yosh avlodning barkamolligi ta‘lim sohasini har tomonlama rivojlantirish, yetuk avlodni tarbiyalash maqsadini ko‘zlaydi. Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda oila muhim o‘rin tutadi. Sog‘lom va mustahkam oila davlatimiz va jamiyatimiz e‘tiboridadir.

Shu sababli yoshlarni giyohvandlik, axloqsizlik, har xil zararli ta’sirlardan asrash e‘tiborimizdan chetda qolmasligi kerak.

Lug‘at

barkamollik – безукоризненность

bunyodkorlik – созидательная деятельность

giyohvandlik – наркомания

axloqsizlik – безнравственность

zararli ta’sirlar – вредное воздействие

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matn kimlar haqida?
2. Yurtimizda ta‘lim sohasida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?

3. Matndan vositali va vositasiz to'ldiruvchilarni topib, daftaringizga yozing.



Uyga vazifa. Mavzuga oid kichik matn yarating. Unda vositali va vositasiz to'ldiruvchilardan foydalaning.

2-dars



3-topshiriq. Matnni o'qing va ona tilingizga tarjima qiling. To'ldiruvchi qatnashgan gaplarni aniqlang.

Iqtidorli va iste'dodlilar taqdirlanmoqda

Davlatimiz iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor beryapti. Mamlakatimizda yoshlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, ularning orzulari ro'yobga chiqarilmoqda. Ular uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Misol uchun, iqtidorli qizlarimizni aniqlash uchun Zulfiya nomidagi hamda iste'dodli yoshlarni aniqlash uchun „Nihol“ Davlat mukofotlarining ta'sis etilishi yoshlar uchun katta imkoniyat yaratib beryapti. „Yoshlar ittifoqi“ yoshlar ijtimoiy harakati ham iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashib kelmoqda.

Lug'at

iqtidorli – одарённый

iste'dodli – талантливый

qobiliyat – способность

ro'yobga chiqarish – осуществлять

ijtimoiy harakat – социальное движение

ta'lim granti loyihalari – проекты учебного гранта



3-mashq. Berilgan maqollardagi vositali va vositasiz to'ldiruvchilarni aniqlang.

1. Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda.
2. Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan.
3. Bola aziz, odobi undan aziz.
4. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga,
Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.

5. So‘rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal.
6. Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi.
7. Bo‘linganni bo‘ri yer.
8. Yaxshiga yondash, yomondan qoch.
9. Birni kessang, o‘nni ek.
10. Achchiq savol berib,
Shirin javob kutma.
11. Gapning qisqasi – yaxshi,
Qisqasidan hissiyasi – yaxshi.
12. Gap egasini topar.



4-mashq. Gaplarni yozing. Vositasiz to‘ldiruvchilarni toping.

1. Sen ko‘rganni u ham ko‘rgan.
2. O‘quvchilar hozir kitob o‘qishyapti.
3. U Ikromjonni frontga ana shunday kuzatib qolgan edi. (S.A)
4. Bu kitobni ukam uchun oldim.
5. Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtasang adashur. (Maqol)
6. Qiy-chuv bilan ularni yengib bo‘lmaydi.
7. Birni birov beradi, ko‘pni mehnat. (Maqol)
8. Og‘zi bo‘shga ishonib bo‘lmaydi.



Uyga vazifa. Vositali va vositasiz to‘ldiruvchilarga to‘rttadan misol yozing.

Vositali	Vositasiz

3-dars



Adabiy o‘qish



4-topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Odobli bo‘ling

O‘zingizdan kattalarga yo‘l bering. Ularga avtobus va boshqa joylarda o‘rin bering. Yoningizdagi kishining biror narsasi yerga tushib ketsa, uni darhol olib bering.

Uyda odamlar oldida taltayib yotmang, stul, divanda yastanib o‘tirmang, qo‘lni orqaga qilib yoki cho‘ntakka tiqib, kekkayib turmang.

Xushmuomala bo'ling. Baqirib, jerkib, qo'lni paxsa qilib yoki birovni qo'l bilan ko'rsatib so'zlashmang, qo'rslik qilmang. Har kuni ertalab ota-onangizga, aka, opalaringizga salom bering. O'zingizdan kattalarni ko'rganingizda, albatta, salom bering. Kattalarning gapiga aralashmang, kattalar qo'l uzatsalargina ular bilan qo'l berib ko'rishing.

„Marhamat“, „rahmat“, „ruxsat eting“, „iltimos qilaman“, „kechirasiz“, „uzr“ kabi so'zlarning qachon aytilishini bilib oling. Yomon, uyat gaplarni aytmang. Oqsoq, g'ilay, soqov va boshqa kamchiligi bo'lgan kishilarni masxara qilmang, boshqalarga laqab qo'ymang.

(Donolar bisotidan)

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Odobli bo'lmoq uchun yana nimalar qilish kerakligini so'zlab bering.
2. Jamoat joylarida yoshlarning o'zlarini tutishlari haqida nima deya olasiz?
3. Barkamol inson qanday bo'lishi kerak?
4. Matn asosida o'z fikringizni bildiring.



5-mashq. Gaplarni yozing. Vositali to'ldiruvchilarni aniqlang va ularning qaysi so'z turkumida kelayotganini izohlang.

1. Beshdan ikkini ayirish kerak.
 2. Nima uchun uzr so'rash kerak?
 3. Kecha kelmaganlarga xabar berish kerak.
 4. Masalani qalamda yozdi.
 5. Chizmani kitobdan daftarga ko'chirdim.
 6. Chaqmoqning yalt-yultidan bola qo'rqdi.
 7. Yaxshiga yondash, yomondan qoch.
- (Maqol)



Yodda tuting!

Ota-ona oldidagi burchlar

Ey farzand, bilginki, aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdir. Chunki ular ota-onadir. Ota-onani nima uchun hurmat qilaman, deb ko'nglingga keltirma, bilginki, ular sening uchun o'limga ham tayyor turadilar. Farzand oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado etishdan bo'yin tovlamaydi. Ota-ona aslida seni jon va dil bilan parvarish qiladi. Agar sen ulardan kamchilik qidirsang, hech qachon yaxshi nomga sazovor bo'lmaysan. O'z farzanding sen haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham

ota-onang haqida shunday bo‘l. Sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sen haqingda shunday ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydi.

(„Qobusnoma“ asaridan)



5-topshiriq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini izohlang.

Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda.

Odobli bola elga manzur.

Eshik ochiq bo‘lsa ham, so‘rab kir.

Oz so‘zla – soz so‘zla.

Shirin so‘z – shakardan shirin.



6-topshiriq. Matnni o‘qing. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

Sharaflı burch

(Rivoyat)

Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog‘ sayriga ketayotgan ekan. Yo‘l qabriston oralab o‘tar edi. Qabristonga yuz qadam chaması qolganda mavlono otdan tushibdi, qolganlar uning orqasidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgach, yana otlarga minib ketishibdi. Biroz yurishgandan keyin mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushish sababini so‘rabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

– Bu yerda xalqimizning jigargo‘shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasangiz? Buni bilmaslik tiriklikdagi o‘liklikdir. Ota-onalar haqini, xotirasini e‘zozlamoq har bir kishining sharaflı burchidir.

Lug‘at

yuksaklikka – к возвышению

xiyonat – измена

kibr – высокомерие

shirinsuxanlik – красноречивость,
сладкоречивость

taraqqiyot – развитие

farovonlik – процветание

hasad – зависть

mujassam – воплощён-
ный

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ota va bobolarning xotirasini e'zozlash nima uchun har bir kishining burchi hisoblanadi?
2. Sizningcha matnda barkamol inson uchun xos bo'lgan xislatlar aks etganmi? Bo'lsa o'z fikringizni bildiring.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Sinfingizda iste'dodli va iqtidorli o'quvchilar bormi?
2. Iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarga qanday shart-sharoitlar yaratib berilgan?
3. Vositali va vositasiz to'ldiruvchilar ishtirokida gaplar tuzing.
4. To'ldiruvchi qanday ko'makchilar bilan ifodalanadi?



Uyga vazifa. „Barkamol inson deganda nimani tushunasiz?“ mavzusida 8 – 9 gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.

AYOL – OILA KO'RKI (To'ldiruvchining ifodalanishi)

1-dars



1-topshiriq. Savollarga og'zaki ravishda javob bering. Bahs-munozara o'tkazing.

- Oilaning fayz-u barakasi asosan kimga bog'liq?
- Xonadonimizni ayolsiz tasavvur etib bo'ladimi?
- Ayollarning jamiyatimizda tutgan o'rinlari qanday?
- Vatanimiz ravnaqi uchun hissa qo'shgan qaysi ayollarni bilasiz?
- Siz o'z onangizni e'zozlaysizmi?
- Ona, opa, singil tushunchalarining bog'liqligini qanday tushunasiz?

Bilib oling!

To'ldiruvchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Dilshod xatni xolasiga berdi.*
2. Otlashgan sifat bilan: *Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.*
3. Otlashgan son bilan: *Beshni beshga qo'shsak, o'n bo'ladi.*
4. Sifatdosh bilan: *Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi.*
5. Harakat nomi bilan: *Uning kulib turishlarini esdan chiqara olmayapman.*
6. Taqlid so'z bilan: *Taqir-tuquringni yig'ishtir.*
7. Modal so'z bilan: *Yo'qni yo'q deydi, borni bor deydi.*



1-mashq. Berilgan gaplarni yozing va ona tilingizga tarjima qiling. To'ldiruvchilarni topib, ifodalanishini tushuntirib bering.

1. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz – do'stini.
2. Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.
3. Onam ularga to'rttadan non berdilar.
4. Ko'rganni eshitgan yengibdi.
5. U bizni sayohatga taklif qildi.
6. Uning tepa sochi tikka bo'lishidan qo'rqdi.
7. Sen meni gapga chalg'itma.



2-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

Muqaddas ayol

Ayol! Bu so'z zamirida olam-olam ma'no jamlangan. Ayol gul kabi chiroyli, mehnatkash, fidokor va mehribon zot. O'tmish faylasuflaridan biri: „Jamiyatning qay darajadaligi ayolga bo'lgan e'tibor bilan o'lchanadi“, – deya haq gapni aytgan.

Zero, ma'lum ma'noda, ayollarning jamiyatimiz hayotidagi tutgan o'rinlari, izzat-hurmatlari, umuman ayolga bo'lgan e'tibor mazkur jamiyatning ma'naviy darajasini belgilab beradi.

Ayollarimiz o'z mehnatlari, iqtidorlari bilan jamiyatimizning yuksalishiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Hozirgi kunda faol xotin-qizlarimizni jamoat tashkilotlarida, siyosiy partiyalarda, tadbirkorlar orasida, olim va yozuvchilar orasida uchratish mumkin. Ular o'z kasbining mohir ustalari, uyda esa ajoyib bekadirlar.

Ayol haqida gapirar ekanmiz yana bir oddiy haqiqatni eslatib o'tish joizki, u ham bo'lsa, har bir ayol – ona. Dunyoga daho farzand yetkazib berayotgan onani buyuk demay bo'ladimi!

Lug'at

fidokor – самоотверженная

faylasuf – философ

ma'lum ma'noda – в определённом смысле

jamiyatimiz hayotida – в жизни нашего общества

munosib hissa – достойный вклад

jamoat tashkilotlarida – в общественных
организациях

tadbirkor – предприниматель

eslatib o'tmoq – напомнить

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matndan faylasufning ayolga bergan tavsifini topib, izohlang.
2. Ayollarning jamiyatda tutgan o'rne qanday?
3. Matn asosida quyidagi jumalarni davom ettiring. Hozirgi kunda

... ..



Uyga vazifa. „Ayol – oila ko'rki“ mavzusida 6 – 7 ta gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.

2-dars



3-topshiriq. Quyidagi hikmatlarni o'qing va mazmunini ona tilingizga tarjima qiling.

Onalarning oyog'i ostidadir

Ravzai jannatu jinon bog'i.

Ravza bog'i visolin istar esang

Bo'l onaning oyog'in tufrog'i.

Alisher Navoiy

Ayolsiz hayot tongi va oqshomi zaif, kunduzi esa, g'amgin.

P. Baust

Ayol shunday jumboqlar kitobiki, hali hech kim uni oxirigacha o'qiy olgan emas.

O'.Hoshimov

Hamma yerda va hamisha ayol kishining eng oliyjanob fazilati kamtarlikdir.

N. M. Karamzin

Bu yorug' olamda Vatan bittadir,
Bittadir olamda Ona degan nom.

Abdulla Oripov

 **2-mashq.** To'rtliklarni yozing, to'ldiruvchilarni topib, tagiga chizing.
Jadval asosida mashqni bajarang.

Yana atadim, she'r azizim ustoz
Sizni desam, tanda jo'shar hayajon.
Quyoshga yetguncha yozsam-da oz-oz,
Sizga muhabbatim dilda bir jahon!

T. Rajabiy

Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,
Sha'niga barcha el rahmatlar aytar.
Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi –
Yurak qo'ri bilan toshni eritar.

T. Yo'ldosh

To'ldiruvchi	So'rog'i	Ifodalanishi	Qaysi bo'lak bilan ifodalangani
She'r(ni)	Nimani?	ot bilan	atadim

 **4-topshiriq.** Matnni o'qing. Ona tilingizga tarjima qiling va savollar tuzing.

Ona – ulug' zot

Azaldan xalqimiz onalarni „uy bekasi“, „xonadon farishtasi“, deb ulug'lab kelishgan. Oilada bolaning yaxshi inson bo'lib yetishishida onaning o'rni kattadir.

Ona o'z bolasini: „O'qitay, qornini to'q tutay, katta odam qilay“, – deb o'z rohatidan ham voz kechadi. Bolani jismonan sog'lom bo'lib yetishishi uchun uni chiniqtirish, badantarbiya bilan shug'ullantirish kerak bo'ladi.

Onalarimiz kechirimli bo'ladilar. Ular o'z bolalari bilib-bilmay qilgan ayb ishlarini kechiradilar. Bolalaridan o'z nasihatlarini ayamaydilar. Ularni to'g'ri yo'lga yetaklaydilar. Farzandlarining erishayotgan yutuqlarini ko'rib quvonadilar.

Lug'at

ulug' zot – великая личность
azaldan – с давних времён
voz kechmoq – отказываться
uy bekasi – домохозяйка
xonadon farishtasi – ангел дома
ulug'lamoq – возвеличивать
rohat – удовольствие
kechirimli – прощительный
bilib-bilmay – необдуманно
nasihat – наставление



Uyga vazifa. Savollarga javob bering.

1. Quyidagi jummalarni davom ettiring.
Onam uy bekasi ..., onam
2. Mashhur ayollardan kimlarni bilasiz?
3. Nima sababdan Vatanni onaga tenglashtiramiz?

3-dars



Adabiy o'qish



3-mashq. Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlang va yozing.

1. 8-mart bayrami munosabati bilan sovg'alar olindi. 2. Maktabimizda yosh shoirlar ijodiy kechasi o'tkazildi. 3. Bugun o'zbek tili darsida yangi so'zlar va yangi qoida tushuntirildi. 4. O'zbek Milliy Drama teatrida „Jaydari kelin“ komediyasi sahnalashtirildi. 5. Ayollarga bag'ishlangan tadbirda shoira Zulfiyaxonim she'rlari o'qildi. 6. Musobaqa g'oliblari mukofotlandi. 7. Bugun adabiyot fanidan Zebuniso hayoti va ijodi o'tildi.



4-mashq. Soʻzlarni toʻgʻri tartibda joylashtirib, gaplar tuzing va yozing.

1. Yaxshi, tilini, yordam, bilmaydiganlarga, oʻzbek, berildi. 2. Ona, kechada, sheʼrlar, haqida, oʻqildi, koʻp. 3. Qurildi, markaziga, sanʼat, yangi, tumanimiz, saroyi. 4. Tashkil, toʻgarak, maktabimizda, drama, etildi. 5. Koʻchalarning, atala, nomlari, yangi, koʻp, boshlandi, bilan, nomlar. 6. Mavzusida, yozildi, insho, „Muqaddas ayol“. 7. Oʻqildi, sheʼrlaridan, anjumanda, yangi, namunalar, shoirlarning. 8. Bajarildi, oʻz, topshiriq, vaqtida.



5-topshiriq. Matnni oʻqing. Matn asosida „Akademik boʻlishni orzu qilganmisiz?“ mavzusida suhbatlashing.

Akademik Flora Inoyatova

Tibbiyot fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy aʼzosi Flora Inoyatova mamlakatimizda yangi avlod pediater-gepatologlar ilmiy maktabini yaratgan atoqli olimadir. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiy markazi hepatologiya boʻlimining rahbari sifatida Flora Inoyatova zamonaviy oʻzbek tibbiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshmoqda. Atoqli olimaning jigar sirrozini davolash boʻyicha yaratgan ilmiy tadqiqotlari dolzarbligi, keng qamrovliligi, sogʻliqni saqlash amaliyoti bilan uzviy bogʻliqligi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Uning kashfiyotlari Rossiya, Hindiston kabi davlatlarning nufuzli xalqaro mukofotlari bilan taqdirlangan. Akademik Flora Inoyatova Oʻzbekiston Respublikasining fan va texnika sohasi boʻyicha 1-darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Hulkar Hamroyeva

Lugʻat

kashfiyot – открытие

ulkan hissa – большой вклад

nufuzli – влиятельный, авторитетный

mukofot – награда, премия

ahamiyat – значение



6-topshiriq. She'zni ifodali o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Bir dam o'tir, onajonim

Tanish eshik, qadrdon uy, jonajon hovli,
Ichkariga yo'llanaman dilim orziqib.
Onam peshvoz chiqar chopib, qo'lida chovli,
Norin solib turgan ekan, shoshib, hovliqib.

Har gal shunday, qaylarnidir kezib kelaman,
Munisginam har safar ham bir ish bilan band.
Qo'li tegmas qo'lga hech, hayron bo'laman,
Qaydan ekan onamdagi shunchalik g'ayrat.

Yo do'ppisi tizzasida, qatimi uzun,
Yo tandirga o't qalagan patir yopgani.
Eslolmayman, yasan-tusan bir chetda tursin,
Qoshlariga bir yolchitib o'sma tortganin.

Ayvon sari yetaklaydi, so'rab hol-ahvol,
Par yostiqlar qo'yar, to'shar yangi ko'rpacha.
„Orom olib, bir ozgina uxlab ola qol,
Norinim ham tayyor bo'lar sen turgungacha“.

O'zing o'tir onajonim norining keyin
Qo'ni-qo'shni emas gapir avval o'zingdan.
Ichikibsan, sog'inibsan yana ne deyin
Hammasini uqib oldim shundoq ko'zingdan.

Tashvishlarim yuzlaringga solibdi ajin,
Yuzginangning madhi o'zi yetuk bir doston.
Beboshligim ko'zlaringda topibdi aksin,
Ko'zlaringga qasidalar bitay, onajon!

Muslim Yo'ldoshev

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. „Ayol – oila ko‘rki“ iborasini izohlab bering.
2. Nima uchun sharqda ayollarga „uy bekasi“ deb ta’rif berishadi?
3. Ayollar haqida 4–5 ta maqol yozing.



Uyga vazifa. To‘ldiruvchi qanday so‘zlar bilan ifodalanadi. 2 tadan misol keltiring.

MILLIY AN‘ANALARIMIZ

(Gapning ajratilgan bo‘laklari, ularda tinish belgilarining ishlatilishi)

1-dars



1-topshiriq. Berilgan savollarga javob bering va suhbatlashing.

1. Komil inson, ma’naviy barkamollikni qanday tushunasiz?
2. Kimlarni go‘zal fazilatli inson deyish mumkin?
3. Siz o‘zingizda qanday yaxshi va yomon xislatlar bor deb o‘ylaysiz?
4. Xalqimizga xos qanday fazilatlarni bilasiz?



2-topshiriq. Matnni o‘qing va matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

Odob ziynati

Odob – inson ziynati. Bu ziynat insonning axloqiy xislatlarida namoyon bo‘ladi.

Kamtarlik – insonning o‘z atrofida qilargalarga va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatda ortiqcha izzat-ikrom, alohida ehtirom talab qilmaydigan axloqiy xislat. Kamtar inson boshqalarni hurmat qiladi, izzattalab bo‘lmaydi, muvaffaqiyatlaridan kibr-u havoga berilmaydi, maqtanchoqlik qilmaydi.

Xalqimiz hamisha kamtarlikni ulug‘lab kelishgan, „Kamtarga kamol – manmanga zavol“ maqoli bekorga aytilmagan. Kibr-u havo –

kamtarlikning aksi bo'lib, insonning o'ziga, o'z qobiliyatiga ortiqcha baho berishi natijasida namoyon bo'ladi. Ushbu o'rinda Kaykovusning „Qobusnoma“ asarida o'g'li Gilonshohga aytgan pand-nasihatlari beqiyos ahamiyatga egadir: „Men dunyoda nima hosil qilgan bo'lsam, sening oldingga qo'ydim, toki o'zingga bino qo'ymagaysan, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat-ikrom ko'rgizgaysan va insonga nomunosib hayvoniy-hirsiy ishlarni qilmagaysan, padaringga la'nat keltirmagaysan“.

Lug'at

inson ziynati – украшение человека

namoyon bo'ladi – проявляется

kamtarlik – скромность

izzat-ikrom – почесть, почтение

pand-nasihatlar – наставления

o'ziga bino qo'ymoq – хвалиться

nomunosib – недостойный

kibr-u havo – высокомерие

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Odob, kamtarlik so'zlarini qanday tushunasiz.
2. Kaykovusning „Qobusnoma“ asarida aytilgan pand-nasihatlarni izohlang.
3. Matndan kamtarlik so'zining qarama-qarshi ma'nosini bildiruvchi so'zni topib izohlang.

Bilib oling!

Gapning ajratilgan bo'laklari o'zidan avval kelgan bo'laklar ma'nosini to'ldirish, aniqlash, oydinlashtirish uchun xizmat qiladi. Gapda, odatda, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol ajratiladi.

Ajratilgan to'ldiruvchi o'zidan avval kelgan to'ldiruvchining ma'nosini to'ldiradi. Masalan: *Bu katta anjumanga, **bayramga** shoir va yozuvchilar ham taklif etildi.*

Ajratilgan aniqlovchi o'zidan avval kelgan aniqlovchining ma'nosini to'ldiradi. Masalan: *U muloyim tabiati, **soddaligi, shirin so'zi** bilan hammani o'ziga qaratdi.*

Ajratilgan hol o'zidan oldin kelgan holning ma'nosini to'ldiradi. Masalan: *Yozda, **qovun pishig'ida**, dalaga chiqib ketamiz.*

 **1-mashq.** Ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklarni toping va turlarini aniqlab yozing.

1. Ona qizim, kecha-kunduz o‘ylayman seni, mehribonimni.
2. Pastlikka, Xumson tomonga tusha boshladik.
3. Kutubxonada o‘tirgan ikki do‘st – Anvar bilan Aziz qizg‘in suhbatlashmoqda.
4. Ustiga ko‘k kastum kiygan, baland bo‘yli bir yigit kirib keldi.
5. Buvam, ya‘ni onamning otasi, hozir mashina minib yuribdilar.
6. Men Nigoraga – dugonamga gapiryapman.

 **2-mashq.** Gaplarni yozing. Gapning qaysi bo‘lagi ajratilganligini ayting. Tinish belgilarini qo‘ying.

1. O‘quvchilar o‘zlariga bir maqsadni imtihon topshirishni ko‘zlab o‘qir edilar.
2. Bugun 21-aprel kech soat 5.00 da san‘at saroyiga jamoa bo‘lib boramiz.
3. Qo‘shnini bir kampirni chaqirdi.
4. Toshkent O‘zbekiston poytaxti ayniqsa may arafasida yana ham go‘zallashadi.

 **Uyga vazifa.** Milliy bayramlar haqida ma‘lumot yozing.

2-dars

 **3-topshiriq.** Matnni o‘qing. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

Mehmondorchilik odobi

O‘zbek xalqi qadimdan mehmondo‘stligi bilan mashhur. Mehmondorchilikning o‘ziga xos an‘ana va udumlari bor. O‘zini hurmat qilgan mezbon va mehmon bularga rioya qiladi.

Mehmondorchilikda „Mehmon – otangday ulug‘“ degan hikmatga amal qiladi.

Mehmonlarga izzat-hurmat ko‘rsatiladi. Mehmon ham shunga yarasha odob bilan ish tutadi. Dasturxon atrofida qo‘pol so‘zlar aytilmaydi, baland ovozda gapirilmaydi. Shirin muomala bilan suhbatlashadilar. Mehmon nojo‘ya xatti-harakatlar qilmasligi, dasturxonga qo‘yilgan ne‘matlarga hadeb qo‘l cho‘zmasligi lozim. Uzoq vaqt mehmon bo‘lib turish odob qoidasiga ziddir.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matndagi tayanch soʻzlarni aniqlang va lugʻat tuzing.
2. Matnga savollar tuzing va ularga javob yozing.
3. Boshqa millatlar mehmonni qanday ulugʻlashadi?

Bilib oling!

Gapning ajratilgan boʻlaklari, koʻpincha, gap oʻrtasida keladi va ular asosiy boʻlaklardan vergul bilan, agar u yoyiq holda boʻlib, oʻz ichida verguli boʻlsa, tire bilan ajratiladi. Masalan: *Mehmonlar Goʻzalni – oʻn besh yoshlardagi, quvnoq, hammaga samimiy boqadigan shoʻx qizni – yoqtirib qolishdi.*



3-mashq. Quyidagi gaplarni koʻchiring. Ajratilgan toʻldiruvchi, ajratilgan hollarni aniqlang.

1. Bahor kelib, Sirdaryoning adirlariga, qirlariga lola gilamlar toʻshaldi. 2. Ana shu joyda, taxta koʻprikning tagida, kichik bir buloq bor. 3. Hamma narsa yarashadi unga – Shiringa. 4. Otam bilan shu atrofda, qishloqning chiqaverishidan doʻkon qurdik. 5. U tomonga, qiyalik, archazor yoqqa chiqamiz. 6. Bir darsda oʻqituvchimiz, Dildora Abrorovna, faqat yaxshi oʻqish kerak, deb gapirgan edilar.



4-topshiriq. Quyidagi hikmatlarning mazmunini tushuntirib bering.

1. Yoshlik bahori tez oʻtar bilgin,
Keksalar soʻzlarin quloqqa ilgin.
2. Aql – yoshdan, odob boshdan.
3. Odamni ochlik emas, or oʻldirar.
4. Donishmandlar yaxshi nom qoldirishni alohida bir umr deganlar.



4-mashq. Berilgan gaplardan ajratilgan boʻlaklarni topib, tagiga chizing.

1. Yoshlar, ayniqsa, faollar qattiq ishladilar. 2. Oʻqituvchimizning nutqi, sodda va tushunarli, bizlarni hamisha oʻziga rom qila oladi.
3. Biz, yozuvchilar, xalqqa xizmat qilamiz. 4. Ertasi, yakshanba

kuni, tong chog'ida shoir hayot bilan vidolashdi. 5. Ko'kda, daraxtlar ustida, bir qancha yulduzlar yonadi. 6. Men Dildoraga, dugonamga, gapirayotgan edim.

 **Uyga vazifa.** Quyidagi so'z birikmalaridan foydalanib, gaplar tuzing: *milliy an'ana va udumlar, milliy qadriyatlar, to'y marosimlari, muqaddas qadamjolar, qo'ni-qo'shnichilik.*

3-dars

Adabiy o'qish

 **5-topshiriq.** Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Ona tilingizga tarjima qiling.

O'zbek xalqida qadimdan mehr-oqibat, saxiylik, ota-ona va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik kabi insoniy fazilatlar bor. Shuning uchun ham o'zbek xalqi orasida bir-birini yo'qlash, nochor va nogiron oilalarga yordam berish odat tusiga kirgan.

O'zbekistonliklarning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, to'y va marosimlarda o'zaro yordamlashish, hashar, oilada bir-biriga ko'maklashish, oila buzilishiga yo'l qo'ymaslik kabi udumlar ko'p yillardan beri mavjud. Shunday ekan, ota-bobolarimiz udumiga sodiq qolaylik. Bir-birimizdan yordamimizni ayamaylik. Axir, moddiy yordam bera olmasak ham, yaxshi so'z, shirin muomala, do'stona munosabat bilan yordam berish mumkin-ku! Aziz bolalar, bir-biringizdan yordamingizni ayamang!

Lug'at

saxiylik – щедрость

mehr-oqibat – милосердие, благодарность

yo'qlamoq – вспоминать

ma'naviy qiyofa – моральный облик

ko'maklashish – оказывать поддержку

 **6-topshiriq.** Matndan foydalanib, nuqtalar o'rnini to'ldiring.

1. O'zbek xalqida qadimdan ..., ..., ... kabi insoniy fazilatlar bor.
2. O'zbek xalqi orasida ... va ... oilalarga yordam berish odat tusiga kirgan.
3. Ota-bobolarimiz udumiga bir-birimizdan yordamimizni ayamaylik.

 **7-topshiriq.** Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Lug'at tuzing.

Bolalar! Ota-onani hurmat qilish, ular oldida odob saqlash, xizmatlarini bajarish hammamizning vazifamizdir. Ota-onangizni ranjitadigan so'zlar aytishdan, ko'ngillarini qoldiradigan ishlardan doimo saqlaning.

Aqlli bolalar ota-onalarini hurmat qilib, kuchlari yetguncha ular xizmatida bo'ladilar. Ularga yomon so'z aytishdan, achchiqlanib qarashdan o'zlarini saqlaydilar.

Ota-onangizni izzat-hurmat qilishga, ularning olqishlarini olishga g'ayrat qiling. Har bir bola ota-onasining nasihatlarini diliga joylab, ularga har vaqt amal qilishi kerak. Ota-onasiga ozor berib, ularning dillarini og'ritadigan bola hech qachon baxtli bo'lmaydi.

 **8-topshiriq.** Berilgan maqol va hikmatlarni o'qing, ularning mazmunini o'z ona tilingizga tarjima qiling.

1. Har yerning urf-odatini hurmat qil.
2. Qush uyasida ko'rganini qiladi.
3. O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.
4. Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir.
5. Kishining go'zalligi uning tilidan bilinadi.
6. Oilada hamjihatlik bo'lmasa, uni baxt tark etadi.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. O'zbek urf-odatlaridan birini o'z milliy odatlaringiz bilan qiyoslab tavsiflang.

2. Mehmon kutish, mehmonga borishga oid o'zbek milliy urf-odatlarini ketma-ketlikda yozing.
3. Gapning ajratilgan bo'laklariga ta'rif bering.



Uyga vazifa. Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining ishlatilishini tushuntiring. Misollar keltiring.

MA'RIFAT FIDOYILARI (Kirish bo'laklar)

1-dars



1-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Malika, ertaga sinfimiz bilan ziyoratga ketyapmiz, sen ham borasanmi?
- Albatta, boraman. Ayt-chi, qayerga boramiz?
- Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi Shahidlar xiyoboniga boramiz.
- ...

Bilib oling!

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan bo'lak kirish bo'lak deyiladi. Kirish bo'laklar gap bo'laklariga bog'lanmaydi. Kirish bo'laklar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1. Kirish so'zlar.
2. Kirish birikmalar.
3. Kiritma gaplar.

Kirish bo'laklar ishonch, gumon, afsus, tasdiq, inkor, mansubligi, aloqadorligi, ahamiyatliligi darajasi, qo'shimcha axborot yoki izoh kabi ma'nolarni ifodalaydi. Kirish bo'laklar gapning boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishi mumkin. U gapning boshida kelsa, kirish bo'lakdan keyin, gapning o'rtasida kelsa, kirish bo'lakning har ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: **Shubhasiz**, *Abdulla*

Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romani o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirdi. Usmon Nosir, **afsuski**, juda qisqa umr ko‘rdi.

Faol kirish so‘zlar va birikmalar

ma'lumki	baxtimga	baxtga qarshi
ehtimol	balki	uning ta'kidlashicha
avvalo	shekilli	aslida
odatda	demak	vaholanki
albatta	aytishlaricha	darhaqiqat
nazarimda	xayriyat	
xullas	shubhasiz	
menimcha	shak-shubhasiz	
sizningcha	yaxshiyamki	
darvoqe	afsus	
ayniqsa	to'g'risi	
birinchidan	attang	
ikkinchidan	nihojat	
aksincha		

 **1-mashq.** Berilgan gaplarni o‘qing. Kirish so‘zlarni topib, ularning ma‘nosini aytib bering.

1. Birinchidan, matnni diqqat bilan o‘qib chiqish kerak, ikkinchidan, uning mazmunini so‘zlab berish kerak. 2. Demak, ota-onalar majlisi shanba kuni soat 16.00 da bo‘ladi. 3. Afsus, futbol jamoamiz musobaqada yutqazib qo‘ydi. 4. Shubhasiz, men dunyoda eng baxtli insonman. 5. Ehtimol, men uni ertaga ko‘rarman.

 **2-mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Ulardagi kirish so‘zlarning tagiga chizing.

1. Fitrat dastlab eski maktab va Mir Arab madrasasida ta‘lim olib, 1909-yili Istanbulga o‘qishga bordi. 2. Cho‘lpon, birinchidan, an‘anaviy sharqona bilimlardan, ikkinchidan, yevropacha tahsil va tarbiyadan bahramand bo‘ldi. 3. Avvalo, Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. 4. Shubhasiz, Abdulla Avloniy, o‘z davri boshlang‘ich maktablari uchun bir nechta o‘quv qo‘llanmalar yaratgan.



3-mashq. Nuqtalar o'rniga mos keladigan kirish so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. Tinish belgilariga e'tibor bering.

1. ... safar hammamiz uchun foydali bo'ldi.
2. Biz ... sizni kutamiz.
3. ... hammamiz to'plandik.
4. Bu bola ... yonimizdagi maktabda o'qiydi.
5. ... ishimizni oxirigacha yetkaza olmadik.
6. ... qo'zichoqni bo'ri yebdi o'rmonda.

Foydalanish uchun so'zlar: shunday qilib, menimcha, nihoyat, albatta, qisqasi, afsus.



Uyga vazifa. Kirish so'zlar ishtirokida 6 ta gap tuzing.

2-dars



2-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Shirin, sen ma'rifat fidoyilari deganda kimlarni tushunasan?
- Men ma'rifat fidoyilari deganda, birinchidan, jamiyat ma'naviyatiga katta hissa qo'shgan, ikkinchidan, tarixda chuqur iz qoldirgan insonlarni tushunaman.
- Demak, sen bunday insonlarga misol keltira olasan.
- Albatta, bular bizning xalqimiz uchun o'z bilimlarini ayamagan ma'rifatparvar insonlar – Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fayzulla Xo'jayev va Mahmudxo'ja Behbudiydirlar. Sen o'zing-chi, ma'rifat fidoyilari haqida nimalarni bilasan?
- ...



4-mashq. Kirish so'zlarni toping va ma'nosini aniqlang.

1. Shubhasiz, biz g'alaba qozonamiz. 2. Bola, avvalo, ota-onasini, mahallasini, nihoyat, maktabini esladi. 3. Shunday qilib, biz yangi uyga ko'chib o'tdik. 4. Attang, darsga kech qoldim 5. Menimcha, dugonam yaxshi javob berdi.



5-mashq. Gaplarni o'qing va yozing. Kirish so'zlarning ma'nosini aytib bering.

1. Menimcha, bugun bizning sinfimiz adabiyot muzeyiga boradi.
2. Men, albatta, Cho'lpon asarlarini o'qib chiqaman. 3. Nihoyat, hammamiz bir fikrga keldik. 4. Birinchidan, men maktab kutubxonasiga bordim, ikkinchidan, Fitratning she'riy to'plami menda bor. 5. Maktabni bitirsam, albatta, adabiyotshunos bo'lib yetishishga harakat qilaman.

 **3-topshiriq.** Matnni o'qing. O'z ona tilingizga tarjima qiling. Mazmunini gapirib bering. Kirish so'zlarni toping.

Abdurauf Fitrat (1886 – 1938)

Abdurauf Fitrat – XX asr o'zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili, qomusiy olim, o'tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jurnalist, davlat va jamoat arbobi.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda tug'ilgan. Aytishlaricha, uning otasi Abdurahimboy o'z davrining ziyoli kishilaridan bo'lgan. U savdo bilan shug'ullanganligi bois chet ellarga ko'p chiqar, dunyo ahvolidan boxabar, o'qimishli va taniqli odam edi. Onasi Mustafbib ham badiiy zavqi baland, zukko, o'qimishli ayol bo'lgan.

Abdurauf ilk tahsilni Buxoro maktablarida olganidan so'ng, mashhur Mir Arab madrasasida o'qigan. Talabalik yillarida, taxminan 18–19 yoshlarida otasi bilan haj ziyoratiga borgan, qariyb bir yilga yaqin davom etgan bu ziyorat safarida Eron, Turkiya, Suriya va Saudiya Arabistonida bo'lgan. Avvalo, safar chog'ida ular shu davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarning turmush tarzi va madaniyati bilan tanishganlar.

Demak, Fitrat fors va o'zbek tillarini mukammal bilib olgan edi. Ayniqsa, u arab tilini qunt bilan chuqur o'rgandi.

Mustaqillik yillarida Fitratga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni berilgan.



Uyga vazifa: Shahidlar xiyoboni haqida kichik matn tuzing.

3-dars

Adabiy o'qish

 **4-topshiriq.** Matnni o'qing. O'z ona tilingizga tarjima qiling. Mazmunini gapirib bering.

Is'hoqxon To'ra Ibrat (1862 – 1937)

Ma'rifatparvar shoir, olim, sayyoh, matbaachi va muallim Is'hoqxon To'ra Ibrat 1862- yili Namangan viloyatining To'raqo'rg'on qishlog'ida ziyoli oilada tavallud topgan.

Ibrat 1886-yilda Qo'qon madrasasini tugatgach, ona qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytadi. O'z faoliyatini ma'rifat tarqatishga qaratadi. „Usuli qadim“ qabilidagi maktablarni isloh etib, jadid maktablarini ochishga kirishadi. 1887-yilda u Sharq va G'arb mamlakatlariga safar qilib, Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, shuningdek, Qobul, Makka, Kalkutta, Bombay kabi shaharlarda bo'ladi. Safar davomida arab, fors, hind, urdu, ingliz tillarini mukammal o'rganadi. Sharq xalqlari tillari qatorida G'arb xalqlari tillarini ham o'rganish ishtiyoqida bo'ladi. Eng muhimi, yozilajak ilmiy asarlari uchun boy material to'playdi.

Ibratning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ'ibotchisi sifatida ham xizmatlari beqiyosdir. U asos solgan „Kutubxonai Is'hoqiya“ fondi bu jihatdan ancha boy bo'lib, unda kitob berish va olish ma'lum tartib-qoidaga moslashgan edi.

Lug'at

sayyoh – турист

matbaachi – типограф

tahsil – обучение

nashr etmoq – печатать

qadr-qimmat – ценность

jihatdan – в отношении

moslashgan – приспособлен

mukammal – совершенный

ishtiyoqida – с увлечением

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. O‘zbek ma’rifatparvarlari haqida so‘zlab bering.
2. O‘zbek tilida kirish so‘zlar qay tarzda ishlatilishiga misol keltiring.
3. Menimcha, sizningcha, albatta, shubhasiz, demak, birinchidan, ikkinchidan, avvalo, darhaqiqat, ma’lumki, so‘zlari yordamida gaplar tuzing.



Uyga vazifa: Kirish so‘zlar ishtirokida „Ma’rifat fidoyilari“ mavzu-sida kichik matn tuzing.

O‘ZBEK MUSAVVIRLARI **(Kiritma gap)**

1-dars =====



1-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va o‘zingiz davom ettiring.

- Bu rasmni qaysi musavvir chizgan?
- Bu rasmni italiyalik rassom Rafael chizgan.
- Hozir bu rasmning asl nusxasi qayerda?
- U Parijdagi LUVR muzeyida turadi.
- Taniqli o‘zbek rassomlaridan kimlarni bilasiz?
- ...



2-topshiriq. Matnni o‘qing. O‘z ona tilingizga tarjima qiling.

Maftunkor bo‘yoqlar

Har bir xalq o‘zi makon tutgan yerni sevadi, ardoqlaydi, himoya qiladi. Shoirlar madh etadi, musavvirlari esa bu yurtning betakror manzaralarini bo‘yoqlarga ko‘chiradi. Shimol musavviri uchun bepoyon muz kengliklari qanchalik ilhom baxsh etsa, afrikalik rassom uchun savannalar shunchalik qadrlidir. Dunyo rassomlik san’ati shu sababli ham g‘oyatda boy va rang-barangdir.



Mustaqillik sharofati tufayli milliy tasviriyl san'at taraqqiyotiga zamin yaraldi. Bu davrda tasviriyl san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko'pgina janrlari rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlari keng tus oldi.

Jahon tasviriyl san'ati xazinasida o'zbek mo'yqalam ustalari asarlari ham mavjud. Tarixda Leonardo da Vinchi kabi ulug'lar qatorini buyuk Kamoliddin Behzodsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, bugungi ijodiy jarayonni ham o'zbek rassomlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekiston xalq rassomlari Bahodir Jalolov, Ro'zi Choriyev, O'rol Tansiqboyev, Alisher Mirzayev, Rahim Ahmedovlarning asarlari dunyoga mashhur.

Lug'at

maftun – очарованный

makon – жилище

makon tutgan yer – земля, предоставившая
жильё

ardoqlamoq – беречь

madh – хвала

betakror manzara – неповторимый пейзаж

tasviriy san'at – изобразительное искусство

Bilib oling!

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikrga qo'shimcha mulohazasini bildirgan gap **kiritma gap** deyiladi. Kiritma gap asosiy fikrni to'ldirish, izohlash uchun ishlatiladi. Kiritma gap yig'iq gap bo'lsa, vergul bilan ajratiladi, agar yoyiq bo'lsa, tire yoki qavs bilan ajratiladi.

Masalan: *Bu, **Salim aytmoqchi**, ularning asosiy maqsadi bo'lgan.*

*Biz (**bu safar menga Maktuba xola hamroh bo'ldi**) qishloqqa kechqurun, qosh qorayganda kirib bordik.*



1-mashq. O'qing. Kiritma gaplarni aniqlab, namunadagidek to'liq tahlil qiling.

Namuna: *Onasi aytmoqchi – yig'iq kiritma gap, gap boshida kelib, vergul bilan ajratilgan.*

1. Onasi aytmoqchi, unga ko'ngil qo'ygani rost bo'lsa-ya? (J.A.)
2. „Domlajon (u meni domlajon derdi), yana institutga qaytdim“, – deb kirib kelishini kutardim. (T.Malik) 3. Yozda qishloqqa borganlarida kamina (u mahalda men o'n uch-o'n to'rt yashar bola edim) ularga pochta xilik qilardim (O.Y.) 4. O'tirishi bilan bir necha kishi – Otaqo'zi buni kuzatib o'tirardi – sekin uning qo'lini qisib, tabriklab qo'yishdi.



2-mashq. Caplarni o'qing. Kiritma gaplarni topib yozing.

1. U viloyatdan xat olib kelib – bu xatga viloyatning qishloq xo'jaligi bo'yicha rahbari Begmurod Xolmurodov imzo chekkan edi – tumanga tegishli qurilish materiallari hisobidan katta bir qismini o'marib ketgan edi. (O.Y.) 2. Uning egnida qadimona tikilgan keng, uzun shohi ko'ylak (qutli kunda, „burma ko'ylak“ kiyishni onasi man etgan), boshida baytlar yozilgan katta „sanama“ ro'mol. (O.) 3. Kecha

kampirning qirqidan keyin – bu orada Otaqo‘zi tog‘asini shahardan bus-butun ko‘chirib ham keldi – Normurod Shomurodov qabristonga yana chiqdi. (O.Y.)



Uyga vazifa: O‘zbek musavvirlari haqida ma’lumot yozib keling.

2-dars



3-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va partadoshingiz bilan suhbatlashing.

- Nodira, tasviriy san’at deganda nimani tushunasan?
- Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika turlarini tushunaman.
- O‘zbek rassomlaridan kimlarni bilasan?
- Rahim Ahmedov, Bahodir Jalolov, Dilorom Mamedova, O‘rol Tansiqboyev, Malik Nabiyev, Alisher Mirzayev va boshqalar.
- Alisher Mirzayevning qaysi mashhur asarini bilasan?
- „Toshkent – tinchlik va do‘stlik shahri“ asarini bilaman.

Bilib oling!

Kiritma gap gapdan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma’nosiga ziyon yetmaydi.

Talaffuzda ular kichik to‘xtamlar va ovoz balandligi bilan ajratiladi. Masalan: Ikki dugona gapni bir joyga qo‘yib (biri uyiga, ikkinchisi ishxonaga) tarqalishdi.

Kiritma gaplar, asosan, kitobiy uslubga xos.

Kiritma gaplar juda keng qo‘llaniladigan soha bu dramatik turdir. Bu nutqda qahramon nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda (personaj nomi bilan nutqi oralig‘idagi qavslarda) ko‘rsatib boriladi.



3-mashq. Kiritma gaplarni aniqlab, namunadagidek tinish belgilarini qo‘yib yozing.

Namuna: *Musobaqada Rahimberdi siz uni taniysiz peshqadamlik qilmoqda.*

Musobaqada Rahimberdi (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.

1. Chinorning yonish voqeasi uning tafsilotini ikkinchi bobda bayon qilgan edik jamoaga asta-sekin ma'lum bo'la boshladi. 2. Shokir sartarosh tumanda uni hamma taniydi siz ham tanisangiz kerak o'g'lini uylantirmoqchi bo'libdi. 3. „O'tkan kunlar“ siz bu romanni o'qigansiz albatta o'zbek romanchilik tarixida alohida o'rin egallaydi.



4-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini qayta hikoya qiling.

O'rol Tansiqboyev (1904 – 1974)

Butun umrini jonajon diyorimiz madhiga bag'ishlagan O'rol Tansiqboyev 1904- yilda Toshkentda ishchi oilasida tug'ilgan. Dastlabki badiiy bilimini N. Rozanov studiyasida, keyinroq Penza rassomlik maktabida olgan.

Mahorat cho'qqilariga ko'tarilayotgan rassom manzara janridagina ijod qila boshladi. „Jonajon o'lka“ asari uni jonli manzara yarata oladigan rassom sifatida ko'pchilikka tanitdi. O'zbekiston tabiati, uning go'zalligi, chiroyi, odamlarning mehnatini tasvirlash rassom asarlarining bosh yo'nalishidir.

„O'zbekistonda mart“, „Sirdaryo“, „O'rik gullaganda“, „Oqshom tog' manzarasi“ rassomning mashhur asarlaridir.

(„Bolalar ensiklopediyasi“dan)

Lug'at

butun umrini – всю жизнь

bag'ishlagan – посвятил

mahorat cho'qqilari – пик творчества

jonli manzara – живая природа


bosh yo'nalishidir – основное направление



4-mashq. 4- topshiriq asosida rassomning mashhur asarlarining nomlarini daftaringizga ko'chirib yozing.



5-topshiriq. Matnni o'qing va rasmga qarab mazmunini so'zlang. Tasviriy vositalarga „Klaster“ tuzing.



O'rol Tansiqboyev. „Jonajon o'lka“ asari

Bahor. Quyoshning zarrin nurlari borliqni to'ldirgan. Rang-barang tog' gullari muattar hidlarini har tarafga taratayotgandek. Shu gullar orasida yashiringan so'qmoq yo'l esa uzoqda, yashil daraxtlar orasida joylashgan obod qishloqqa olib boradi. Qishloq ortidagi osmono'par qorli tog'lar bu qishloq tinchligini qo'riqlayotgandek... Hamma joyda sokinlik va osoyishtalik hukm suradi. Faqat osmondagi pag'a-pag'a bulutlar bu tinchlikni buzadi.

Bulutlar bir-ikki billur tomchilarini tashlab o'tib ketadi. Lekin hayot davom etadi, quyosh zarrin nurlarini sochaveradi.

(„Bolalar ensiklopediyasi“dan)

Lug'at

muattar hidlar – благоухающие запахи

yashiringan – спрятавший

so'qmoq yo'l – тропинка

qo'riqlayotgandek – как будто охраняет

billur tomchilar – хрустальные капли



Uyga vazifa. O'zbek musavvirlarining mashhur asarlari haqida ma'lumot yozib keling.

3-dars



Adabiy o'qish



6-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Ertalab Mirak naqqosh keldi, gap orasida o'zining favqulodda iste'dodga ega bo'lgan bir shogirdini eslatib o'tdi, uning naqqoshlikdan ko'ra rasmga ko'ngli moyilligi, ham ajoyib rasmlar ishlay boshlaganini ustod samimiy g'urur bilan aytgach, Navoiy juda qiziqdi. Boshqa gaplarni yig'ishtirib, uni surishtira boshladi.

– Bizning Kamoliddin Behzod hirotlik yetim bola edi, – dedi Mirak naqqosh, – rahmim keldi. Mening san'atimdan o'zga shogirdlarim qatorida bahramand bo'lsa, yetim bola uchun tirikchilik yo'li ochilur, degan andisha bilan uni shogirdlikka oldim. Zehni behad baland, qo'li oltin ekan. San'atda juda tez ilgarilab ketdi.

Navoiy devonga borib, har kungi vazifasini bajarardi... Devondan chiqdi... Otga minib, Husayn Boyqaro qurdirayotgan Bog'i Jahonoro-dagi saroylar, ko'shklarning ichki bezaklarini tomosha qildi. Kechga yaqin uyga qaytganda, Mirak naqqosh o'z shogirdi bilan kutib o'tirardi. Navoiy Kamoliddin Behzod bilan ulug' og'adek samimiy mehribonlik bilan ko'rishdi. Yosh rassom uzun bo'yni, ingichka gavdasida noziklik bilan pishiqlik go'zal birikkan, o'n besh-o'n olti yashar o'spirincha edi. Uning fikr, ilhom turgan qora ko'zlarida uyatchanlik va toza, ulug' ruhga xos qandaydir ma'sumlik jilvalanardi. Naqqoshning olacha to'nli shogirdi dongdor shoir ham davlatning ulug' odami qarshisida qizardi.

Navoiy ularni o'z xonasiga olib kirdi. Mirak naqqosh eskigina juzdonini ochib, shogirdining ayrim, maxsus qog'ozga solingan rasmlarini shoirga birma-bir taqdim eta boshladi. Navoiy birinchi varaqni qo'liga olib, bir lahza diqqat bilan tikildi-da, Mirak naqqoshga ma'nodor qarab qo'ydi. Ko'zlarini suzib, yana tikildi. Ko'zlarini uzoq vaqt uzmad. Mirak naqqoshning ta'rificha, qo'li oltin bolaning chizgani jivir-jivir gullar, barglar, chiziqlar nozikligi, jonliligi, bemisl she'riyati bilan go'yo uning ko'zlarini, ruhini sehrlagan edi. Bo'yoqlarning nafis ohangi, tong chog'i toza zangori ufqlarga taram-taram yugurgan nurlardagi kabi benihoyat nozik tovlanar edi. Navoiy orom va hayajon bilan chuqur nafas oldi. Ikkinchi rasmni ko'rdi.

Ayni ruh, lekin yana boyroq, yana nafisroq... Mana ov tasviri, ohular go‘yo qog‘ozdan sakrab o‘ynoqlab ketayotganday tuyiladi. Bunda har bir nuqta ko‘z kabi jonli. Navoiy o‘nga yaqin rasmni benihoyat to‘la zavq bilan tomosha qildi.

Kamoliddin Behzod ichki bir hayajon bilan boshini quyi solib o‘tirar, ba‘zan bir zumgina Navoiyga ko‘z qirini tashlab qo‘yardi. Mirak naqqosh uning o‘z ko‘zi oldida yaratilgan bu rasmlarni go‘yo ilk daf‘a ko‘rgandek, zafqlanib tomosha qilar, Navoiy bilan fikr olishuvga tirishar edi. Nihoyat, shoir ko‘zlarida yongan quvonch bilan yosh rassomni tabrikladi:

– Bu ko‘hna jahon, – dedi u shavq bilan, – sizningdek san‘atkorni hanuza ko‘rmagan edi. Qalamingizning husni har qanday ta’rifdan benihoyat balanddir. Bu kamolotni oliylashtirmoq yo‘lida samimiy harakat qilingiz.

Kamoliddin Behzodning yuzi allaqanday yorug‘lanib ketdi, titroq lablar bilan dedi:

– Ulug‘ iltifotingiz uchun ne til bilan tashakkur etmoqni bilmaymen, bu tasvirlar shogirdbachchangizning mashqlaridir, qalamim ustodlarning ta’limiga g‘oyat muhtojdir.

– Ta’lim olmoqdan hech vaqt yuz o‘girmangiz! – dedi Navoiy.

(Oybekning „Navoiy“ romanidan parcha)

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Qanday gaplarga kiritma gaplar deb ataladi?
2. Rassom O‘rol Tansiqboyevning ona yurt manzaralariga bag‘ishlangan asarlarining nomlarini aytib bering.
3. O‘zbekiston rassomlari haqida internetdan qo‘shimcha ma’lumotlar topib, so‘zlab bering.



Uyga vazifa. Kiritma gaplar ishtirokida 5 ta gap yozing.

SAN'AT OLAMIDA (Sifatning otlashishi)

1-dars

 **1-topshiriq.** Berilgan savollar asosida suhbatlashing.

1. San'at deganda nimani tushunasiz?
2. San'atning qanday turlari bor?
3. San'at asari qanday yaratiladi?
4. Taniqli san'atkorlardan kimlarni bilasiz?

Bilib oling!

Sifatlar gapda otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi, otlardek gapning hamma bo'laklari bo'lib kelishi mumkin. Bunday otlashishda sifat bog'langan ot – so'z tushib qoladi hamda uning barcha xususiyatlari sifatga yuklanadi. Masalan: ***Kattaga** hurmatda bo'l, **kichikka** izzatda. **Yomonni** tanqid qiladilar, **yaxshiga** taqlid. Uning **go'zalligiga** termulib qaradi.*

 **1-mashq.** Berilgan tayanch so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing va yozing.

San'at asari, san'at turlari, yoqimli qo'shiq, chiroyli raqs, go'zal manzara, nafis asar, tomoshabin, naqqosh, balet raqqosasi, xonanda, musavvir.

 **2-topshiriq.** Matnni o'qing va ona tilingizga tarjima qiling.

San'at

San'at nima? San'at – bu go'zallik. Hamma go'zal narsalar ham san'at bo'laveradimi? Masalan, chiroyli atirgul, bulbulning xonishi, kamalak kabi tabiat hodisalari ham san'atmi?

San'at – bu qachonki, biror bir asar inson qo'li bilan yaratilsa va uni ko'rgan kishining qalbi larzaga kelsa, ana shu asar san'at darajasiga yetgan bo'ladi. Inson yaratilgan har qanday san'at asarining go'zalligidan zavq olishi, xayolga cho'mib qolishi, uning go'zalligiga

sehrlanib qolishi – asarning haqiqiy san’at asari ekanligidan dalolat beradi.

San’atning bir necha turlari mavjud, bular: raqs san’ati, haykaltaroshlik, opera, balet, qo’shiqchilik, kino san’ati, naqqoshlik, rassomchilik, adabiyot san’ati.

Shu san’atni yaratishda qo’llanadigan jismlarni biz san’at qurollari deymiz. Masalan, rassomchilik san’atining qurollari: molbert, palitra, bo’yoq, qalam, mo’yqalam va shu kabilar.

Lug’at

go’zallik – красота

raqs – танец

haykal – памятник

hodisa – случай

asar – произведение

sehrlanib – околдован

rasm – картина

qo’shiq – песня

haykaltaroshlik – скульптура

xayol – мечта

qo’llanadi – использует

san’at asari – произведение искусства

 **2-mashq.** Nuqtalar o’rniga mos so’zlarni qo’yib, gaplarni ko’chiring. Otlashgan sifatlarni topib, tagiga chizing.

1. ... yig’ilishga tantanali ravishda kirib keldilar. 2. ... topib gapirar, ... qopib gapirar. 3. ... bir marta o’lar. 4. ... odam qish g’amini yozda yeydi. 5. ... hurmatda bo’l. 6. Kecha ... biznikiga mehmonga kelishdi.

Foydalanish uchun so’zlar: qariyalar, kattaga, aqlli, mard, yaxshi, yomon, g’oliblar, yoshlarning.

2-dars

 **3-topshiriq.** 3 ta variantdan iborat murakkab klaster tuzing.

1-variant: san’at → san’at turlari → qurollari

2-variant: san’at → san’at sohalari → asarlari

3-variant: san’at → san’at yo’nalishi → san’atkorlar

 **4-topshiriq.** Matnni o’qing, tayanch so’zlarni aniqlab, san’at turlari haqida so’zlab bering.

San'at turlari nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot kabilar uning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta'sirchan obrazlar yaratish ko'zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-tuman yo'llar bilan erishadilar. Masalan, raqs harakatlar, tana a'zolarining ifoda imkoniyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarning hissiy ifodasiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro mutanosibligi alohida ahamiyat kasb etadi. Fikr ifodalashda rassomga bo'yoq va mo'yqalam yordam beradi. Haykaltarosh esa xom material (tosh, yog'och, metall) ga ishlov berish orqali go'zallik yaratadi. Adabiyot esa, bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan farqlanadi.

(„O'zbekiston san'ati“ jurnalidan)

Lug'at

ta'sirchan – эмоциональный

imkoniyat – возможность

mutanosib – пропорциональный

fikr ifodalash – выразить мнение

mo'yqalam – кисточка



5-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Yoqub Ahmedov

Yoqub Ahmedov Namangan shahrida tavallud topgan. Yoqub Ahmedovni keng san'at muxlislariga ilk bor tanitgan obrazi Turob To'laning „Furqat“ badiiy filmidagi Furqat obrazi bo'ldi. Shundan keyin Yoqub Ahmedov ellikka yaqin obrazlar yaratdi. Yoqub Ahmedov o'zi yaratgan obrazlarning ichki dunyosini, o'ziga xos xususiyatlarini ko'z qarashlar, imo-ishoralarda, yurish-turish orqali yorqin ko'rsata oladigan mohir aktyorlardandir. Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Ali Qushchi, Abay kabi o'tmishda o'tgan buyuk olim-u fozil kishilarning obrazlarini yaratish Yoqub Ahmedovga nasib etgan.

Shuningdek, „O'zbekfilm“ kinostudiyasida dublyaj qilingan besh yuzdan ortiq filmlarga ovoz berdi. Aktyor O'zbekiston radiosida

tayyorlangan qator radiospektakllarda faol qatnashdi, ayniqsa, uning „G‘azalxonlik“ eshittirishidagi chiqishlari, o‘zbek adabiyoti namoyandalarining o‘lmas g‘azallarini ajoyib ovozi bilan yoqimli tarzda o‘qishi, Yuneskonning Buyuk ipak yo‘li asosida yaratilgan „Har dardning davosi bor“ radiopostanovkasi tinglovchilarni maftun etib kelmoqda.

Yoqub Ahmedov O‘zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, „Do‘stlik“ ordeni va „Mehnat–shuhrat ordeni“ bilan taqdirlangan.

Lug‘at

tavallud topgan – родился

nasib etgan – предназначено

taqdirlangan – награждённый

ichki dunyosi – внутренний мир

imo-ishora – жесты, мимика

ayniqsa – особенно

tarzda – таким образом

xususiyat – особенность

fozil – учёный

ko‘z qarashlar – видения

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Dublyaj san‘at turi haqida nimalarni bilasiz?
2. Matn yuzasidan partadoshingiz bilan suhbatlashing.
3. Siz qanday mashhur milliy kinoaktyor va aktrisalarni bilasiz?
4. Ularning qaysi rollari sizga yoqadi, nima uchun?



3-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib ko‘chiring va otlashgan sifatlarni aniqlab, tagiga chizing.

1. Bilimli... kuchi ming... yetar, bilimsiz... kuchi bir... yetar.
2. Yaxshi yetar murod..., yomon qolar uyat... .
3. Fidoyilar... g‘ayrati bilan mahalla obod bo‘ldi.
4. Kattalar izzat... , kichiklar xizmat... .
5. Aqlli o‘zi... ayblar, aqlsiz – do‘sti... .
6. Yaxshi... bog‘ qoladi, yomon... dog‘.
7. Bir katta... gapi... kir, bir kichik... .
8. O‘tloq... bedana ko‘p, dangasa... bahona ko‘p.

 **6-topshiriq.** Savollarga „Charxpalak“ usulida javob bering.

1-guruh

1. Yoqub Ahmedov qanday rollarni ijro etgan?
2. Sifatlar gapda otlashganda qanday qo‘shimchalarni oladi?

2-guruh

1. Yoqub Ahmedov rollari nimasi bilan ajralib turadi?
2. Sifat otlashganda unga qanday vazifalar yuklanadi?

3-guruh

1. Yoqub Ahmedov qanday milliy qahramon obrazlarini ijro etgan?
2. Otlashgan sifatlar qatnashgan maqollarga misollar keltiring.

 **4-mashq.** Berilgan birikmalardan foydalanib, gaplar tuzing va yozing.

Yaxshilarga intilib, kattalarga taqlid qilib, yomondan qoch, aqllidan o‘rgan, savodxon biladi, ojizlarga ko‘maklashdi, intilganga ergashish.



Uyga vazifa. Gaplarning davomini o‘ng ustundan topib to‘ldiring.

Kattaga hurmatda bo‘l,	yosh kelsa ishga.
Yomonni tanqid qiladilar,	kichikka izzatda.
Qari kelsa oshga,	yaxshiga taqlid.
Aqlli osh pishirar,	baxilning yuzi kuyar.
Rostgo‘yning yuzi kular,	aqlsiz tish sindirar.

3-dars

Adabiy o‘qish

 **5-mashq.** Berilgan tayanch so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

San‘at olami, san‘at qirralari, vakillari, xalq amaliy san‘ati, bezak, gazlama, badiiy kulolchilik.

 **7-topshiriq.** Berilgan matnni o‘qing. Mazmunini ona tilingizga tarjima qiling.

San‘at barcha go‘zalliklar timsolidir. San‘at millat va elatlarni ma‘naviy va ruhiy birlashtiradi. Dunyo keng, tabiat esa betakrordir.

Shu zaminda insoniyatning eng buyuk kashfiyoti bu – san’at deb bejiz aytishmagan.

San’atning turlari juda ko‘p. Bularga: musiqa, teatr, tasviriy san’at, kino, raqs, haykaltaroshlik va xalq amaliy san’atlari kirishi ma’lum.

Xalqimiz qalbida o‘chmas chiroq bo‘lib qolgan san’at olamining buyuk vakillari Yunus Rajabiy, Tamaraxonim, Berta Davidova, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov kabi betakror san’atkorlarning merosini e’zozlashimiz kerak.

Lug‘at

san’at turlari – виды искусства

me’moriy bezak san’ati – искусство архитектуры

ganchlik san’ati – резьба по ганчу

yog‘och o‘ymakorligi – резьба по дереву

naqsh – орнамент, узор

badiiy kulolchilik – художественное гончарное
мастерство

kashtachilik – национальная вышивка

zardo‘zlik – золотошвейное искусство

zargarlik – ювелирное мастерство

 **8-topshiriq.** O‘qing. Hikmatli so‘zlar va maqollarning mazmunini izohlang va ko‘chiring.

1. San’atning bebaholigi go‘zallikda emas, balki go‘zal amallardadir.
2. Ustoz turli san’at yo‘nalishlarida o‘zligini topgan insondir.
3. San’at – yaxshilik va yomonlikni farqlovchi vosita.
4. Zar qadrini, zargar biladi.

 **9-topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Qanday xalq amaliy san’at turlarini bilasiz?
2. Amaliy san’at deganda nimani tushunasiz?
3. Taniqli san’at arboblari kimlarni bilasiz?
4. Sizni qanday san’at turi qiziqtiradi?
5. San’atga oid qanday muzeylar bor, siz ularga borganmisiz?

 **10-topshiriq.** Teatr so‘ziga „Sinkveen“ tuzing.

Namuna: „Musiqa“ soʻziga „sinkveen“.

1. Musiq.
2. Mumtoz, pop.
3. Eshitmoq, ijro etmoq, raqsga tushmoq.
4. Men har doim musiqa eshitaman.
5. Sanʼat turi.



11-topshiriq. Matnni oʻqing. Savol va topshiriqlarni bajaring.

Sanʼat odamlarning estetik talablarini qondiradi. Oʻz taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat aʼzolarini maʼlum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Ularning turli maqsad, his-tuygʻu, manfaatlarini ifoda etgan. Sanʼat ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan oʻzining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli, ijtimoiy hayotda tutgan oʻrni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi. Sanʼat insonning moddiy va maʼnaviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, maʼnaviy, milliy dunyosi sanʼat predmeti hisoblanadi.

Lugʻat

sanʼat – искусство

ruhda tarbiyalash – воспитание в духе

goʻzallik qonunlari – законы красоты

jamiyat – общество

namoyon – известно

manfaat – польза, благо

jihatdan – *здесь*: ввиду этого

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnga sarlavha toping.
2. Matn mazmunini soʻzlab bering.
3. Siz qaysi sanʼat turidan zavq olasiz va nima uchun? Izohlab bering.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Sifat otlashganda qanday vazifalarda qoʻllanadi?
2. Otlashgan sifatli birikmalarga misollar keltiring.
3. Oʻzingiz yoqtirgan biror bir kinoaktyor va uning sizga yoqqan rollari haqida kichik matn tuzing.

ORZULAR QANOTIDA

(Undalma va uyushiq boʻlaklar, ularning qoʻllanishi va imlosi)

1-dars =====



1-topshiriq. Suhbat matnini toʻldiring va davom ettiring.

- Orzu nima?
- ...
- Qanday orzularing bor?
- ...
- Kelajakda kim boʻlishni orzu qilasan?
- ...
- Orzularingdan bittasi haqida gapirib ber.
- ...

Bilib oling!

Soʻzlovchining nutqi, fikri qaratilgan shaxs yoki narsani bildirgan soʻz undalma deyiladi. Kimga yoki nimaga eʼtiborimizni qaratib gapirsak, oʻsha shaxs yoki narsa undalmadir. **Oybek,** (undalma) gullarga suv quy.

Undalmalar quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: **Yurak**, *sensan mening so‘zim*. (U. Nosir)
 2. Olmosh bilan: **Hoy sen**, *aytganimni bajardingmi?* (Olmosh undalma vazifasida kelganida alohida ohang bilan aytiladi).
 3. So‘z birikmasi bilan: *She‘r aytgim kelyapti*, **aziz do‘stlarim**, *she‘r aytgim kelyapti*, *go‘zal Farg‘ona!* (G‘.G‘ulom)
 4. Ibora bilan: **Hoy qizi tushmagur**, *nima deb aljirayapsan?* (A. Qahhor)
- Otlashgan so‘zlar bilan:
5. Sifat bilan: **Azizim**, *dunyoga bevaqt kelibmiz*.
 6. Son bilan: **Birinchi**, *birinchi*, *javob ber!*
 7. Sifatdosh bilan: **Ey, zulm ko‘rganlar**, *bizga qo‘shiling!*
 8. Undov so‘z bilan: **Hoy**, *kel bu yoqqa*.

 **1-mashq.** Ko‘chiring. Gap tarkibidagi undalmalarni aniqlab, namuna-dagidek to‘liq tahlil qiling.

Namuna: *Tojiboy – undalma, atoqli ot bilan ifodalangan, yig‘iq undalma, gap boshida kelgan.*

1. Tojiboy, shu bugunoq cho‘lga yetib bor. (S.A.) 2. O‘ktam, bu taklif chinmi, yo anchayin odamgarchilikmi, iljayishning ma’nisi ne ekan, deb ichida o‘yladi. (O.) 3. Anvar, qo‘y, bu gapni keyin gaplashamiz. (T.Malik) 4. Jiyan, aqling bo‘lsa, kishining bir tiyinig xiyonat qilma. (O.) 5. Karimjon, ertaga kelasizmi? 6. Do‘stim, biznikiga mehmon bo‘lib keling. 7. – Hoy tentakkinalarim, tog‘angni bevoshlik qilib qiynamanglar. (S.A.) 8. Hurmatli talabalar, yangi yilingiz muborak bo‘lsin!

 **2-mashq.** Ko‘chiring. Gapdagi undalmalar qaysi so‘zlar bilan ifodalanini aniqlang.

1. Ahmadjon, kitobingizdan foydalansam bo‘ladimi? 2. Hoy sen, menga qara-chi. 3. Shunday demaysizmi, azizim. 4. Hoy o‘rtoqjon, quloq soling so‘zimga. 5. To‘rtinchi, birinchiga javob bering. 6. Odamlar, eshitmadim demanglar. 7. Hoy, yigit tushmagur, nima qilib qo‘yding! 8. So‘zla, ko‘zgujon, haqiqatni et bayon!



2-topshiriq. She'rni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Orzularda qanot bor, xolos,
 Uchmoq mumkin yulduzlar aro.
 Parvozlari olis, qanday soz,
 Lek na bulut va na ul Humo
 Dilga ajib bag'ishlar orom.
 Orzu qushi qo'ngan bu gulshan,
 Ammo o'rtar ayriliq yomon,
 Qaytgina kelmas yerga daf'atan.

Humoyun



3-topshiriq. Matnni o'qing va shu asosda kichik bayon yozing.

Yoshlikdagi orzular

Odamzodning tabiati shundayki, bugungi kun bilangina emas, ko'pincha, kelajak bilan, ezgu umidlar va go'zal orzu-havaslar bilan yashaydi. Yaxshi kunlari va osuda damlarini qo'msab, unga intilib yashaydi. Ha, inson orzularining cheki yo'q. U doimo ertangi kuniga umid bilan boqadi. Bunga erishish esa, eng avvalo, yoshlikning nechog'liq oqilona kechishiga bog'liq. Yoshlik g'oyat bebaho, lekin tez o'tib ketadigan boylik. Yoshlik hayotda eng murakkab va nozik, eng mas'uliyatli va g'animat davr. Ya'ni tabiatda nima ekilsa, shu olinganidek, yoshlik ham inson taqdiri va kelajagini belgilashda hal qiluvchi davrdir. Shu bois yoshligingizni samarali ishlarga sarflang, uni behuda o'tkazmang.

Lug'at

yoshlik – молодость

bebaho – бесценно

ertangi – завтрашний

mas'uliyat – ответственность

davr – эра

behuda – напрасно

boylik – богатство

taqdir – судьба



Uyga vazifa. O'z orzularingiz haqida matn yarating.

2-dars

Bilib oling!

Har bir gap bo'lagi gapda birdan ortiq bo'lishi mumkin. Bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapdagi bir bo'lakka bog'langan bo'laklar gapning **uyushiq bo'laklari** deb ataladi. Bu bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog'lanadi: *Bola goh menga, goh unga qarar edi.*

Gapning barcha bo'laklari uyushib kelishi mumkin. Masalan: *U kitobni, daftarni, qalamni oldi. U asta joyiga o'tirdi va gapira boshladi.*



4-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Orzular qanotida

Orzu-havas hosildor tuproqqa o'xshaydi. Yer bag'riga qadalgan cho'p niholga aylangani, o'sgani kabi orzu ham inson qalbini gullatadi. Unga mehrdan, muhabbatdan sayqal berilsa, ezgu niyatlar tomon yetaklaydi. Astoydil qilingan orzu, intilgan maqsad muvaffaqiyat kalitidir. Orzuga yetkazadigan kalit qanday qo'lga kiritiladi?

Bolalikdagi hayrat, ajoyibot, yengilgina urinishlar orqasidanmi yoki yaqinlarningning senga bildirgan ishonchlaridanmi? Har holda orzu-maqсадlar ortida ko'z ilg'amas olis manzillar, mashaqqatli mehnat, bedor tunlar bor!

Inson hayotda yashar ekan, nimanidir orzu qiladi, kimgadir suyanadi, uni umrining mazmuni deb biladi. Bolalikda har bir o'g'il-qizning orzusi osmon qadar bo'ladi. Harbiy akalariga havas qilib, ulg'ayganda askar bo'lishni orzu qilgan bolakayning intilishlariga olam havas qilsa arziydi.

Bu hayot juda tez, boshdagi do'ppini bir aylantirguncha, o'tadiketadi. Shu qisqa fursatda inson xalq uchun, Vatan uchun, o'z farzandlari va nasllar uchun savobli ishlar qilib ulgurishi kerak. Oliyjanob xalqimizning ezgu tasavvur va tushunchasiga ko'ra, har bir odam dunyoga kelib, uchta xayrli ishni ado etishi lozim.

Birinchisi, sog'lom va oqil farzand tarbiyalab voyaga yetkazish.

Ikkinchisi, o'z oilasi, farzandlari uchun imorat qurish. Uchinchisi, kelajakni o'ylab, yaxshi niyat bilan daraxt o'tqazish. Bu insoniy intilishlarda millatimizning barkamol avlod haqidagi orzu-umidlari o'z aksini topgan.

M. Mirzaboyeva

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matn tarkibidagi uyushiq bo'laklarni aniqlang va yozing.
2. Matnning tayanch so'zlarini aniqlang va lug'at tuzing.
3. Matn mazmunini so'zlab bering.



3-mashq. Berilgan so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling va quyidagi so'zlarni qo'llab, uyushiq bo'laklar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Orzu, istak, unib-o'sib, timsolida, imonli, irodali, mardlik va fidoyilik, barkamol insonlar.



4-mashq. Gaplarni ko'chiring va uyushiq bo'laklarni aniqlang.

1. U allaqachon yozib, chizib bo'ldi. 2. Orqada turgan yoshgina yigit, Mamadali, o'zini odamlar orasiga urdi. 3. Dadam shu atrofda – qishloqning chiqaverishidan – do'kon qurdirdi. 4. Bugun va ertaga men navbatchilik qilaman. 5. Men ko'rsatilgan stulga – to'rga o'tib o'tirdim. 6. Quvonch va shodlikdan tili gapga aylanmas edi. 7. Shu farzandimning – ko'zim qorasining – elning ardog'ida bo'lishini xohlayman. 8. U shaharga o'qish va ishlash maqsadida kelgan edi. 9. U charchasa ham, yiqilib qolgudek bo'lsa ham yurishdan to'xtamadi. 10. Men sizga o'n marta, yuz marta gapirdim.

Mustaqil ish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Undalmaga misollar keltiring.
2. Uyushiq bo'laklar qanday bo'laklar hisoblanadi?
3. Inson orzusiga yetishi uchun nimalar qilishi kerak?
4. Bugun rejalashtirgan ishlaringizni tartib bilan ifodalab bering.
5. Buyuk kishilar o'z orzulariga qanday erishganlar? Misollar keltiring.



Uyga vazifa. Uyushiq bo'laklarni qo'llab, 6 ta gap tuzing.

O'ZBEKCHA-QOZOQCHA LUG'AT

A

abjir — епти; шебер
afsonaviy — мифтік; аңыздық
ajablanarli — таңқаларлық
ajralib chiqmoq — ажыратып
шығару
ajralmas — ажыралмас
aloqador — байланысты
amaliy — практикалық
andisha — саналылық, естілік,
ақылдылық
anjom — құрылғы
avliyo — әулие
avvalo — ең алғаш
axloqsizlik — тәрбиесіз
aynan — дәл; дәл өзі
ayrim — кейбір

B

bahavo — таза; таза ауа
bahona — себеп
bajon-u dil — шын ниетпен
balog'at — балағат
barakali — берекелі
barkamollik — үйлесімділік
bekorga — босқа; бекер
beqiyos — шекіз
birikmoq — бірігу
birvarakay — бірден, бір рет
butunlay — бүгіндей
bo'ylab — бойлай, жағалай

D

dabdabali — сән-салтанатты;
лепірмелі

dadil — батыл
dalil — дәлел, дәлелдеме
dalolat — дәлел, айғақты
darhol — бірден; дереу; шұғыл
darmon — күш-қуат
daxldor — тиісті
dog' — уайым, қайғы, қасырет,
бақытсыздық
dog' qilmoq — уайымдау, қай-
ғыру
duch kelmoq — кездесу; ұшырасу
do'nglik — төбешік
do'q qilmoq — қорқыту; қауіп
төндіру

E

egallamoq — иелену
egiluvchan — иілушен
egmoq — бүгу, майыстыру, ию
endilikda — қап осы, қазіргі кезде;
осы кезде
epchil — епшіл, шапшаң
ertangi — ертеңгі
eskicha — ескіше
eslatma — ескерту
eshittirish — есітіру
e'tiqod — наным, сенім
e'tirof — тән алу,
e'tirof qilmoq — мойындау

F

fahmlamoq — түсіну, ұғыну
faoliyat — қызмет; әрекет

faqat — тек қана
farmon — жарлық
fayzli — берекелі
fikrlamoq — ойлау; пікірлеу
fitna — қастық; қаскүнемдік
foydali — пайдалы
fosh — ашу;
fosh qilmoq — сырын ашу
fursat — уақыт; мезет

G

ganch — алебастр
garchi — тіпті; керек десе
gavdali — ірі
gavjum — халық көп жиналған жер
gazlama — мата; тоқыма
giyoh — өсімдік
giyohvandlik — есірткі
gumburlamoq — күркіреу; дүрілдеу; даңғырлау
gurung — әңгіме сұхбат;
gurung qilmoq — әңгімелесу сұхбаттасу
guvoh — куә
guvohnoma — төл құжат; куәлік
go'l — аңғырт; аңқау
go'yo(ki) — секілді; сияқты; тәрізді

H

hadya — сый
hajm — көлем; сыйымдылық
halovat — тыныштық
halol — адал; таза
halqa — сақина; доңғалақ
hamjihat — бірлескен
hamkorlik — ынтымақтастық

haqgo'y — шын; раст
har bir — әрбір
hayo — ұят;
hayo qilmoq — ұялу
hayotiy — өмірлік
hayrat — аң-таң болып қалу, түсінбестік
hazm — сіңу;
hazm qilmoq — бойға таралу
hech qanday — ешқандай
his etmoq — сезіну; ұнату
hisoblamoq — есептесу
hissa — үлес
hordiq — демалу
hosil — өнім;
hosil qilmoq — өнім алу

I

idora — мекеме;
idora qilmoq — мекеме құру
ifoda etmoq — басқару
ijrochi — орындаушы
ijtimoiy — әлеуметтік
ikki daryo oralig'i — екі өзен аралығы
ilgak — ілгек
ilimoq — жылыну
imloviy — орфографиялық
in'om — сыйлау
ipakchilik — жібекшілік
izlamoq — іздеу
izohlamoq — сипаттау; талқылау
izzat — құрмет; ізет
izg'irin — ызғырын; жел
izchil — бірізді; жүйелі
ishonch — сенім
ishora — нұсқау; сілтеу
ichki — ішкі

J

jadal — жедел, шапшаң
jahl — ашу, ыза
jamg'arma — қор
janjal — жанжал, келіспеушілік
jarayon — үдеріс
jarima — штраф, айып салу
javon — шкаф
jild — том
jimlik — тыныштық
jinoiy — қылмыс; қылмыскерлік
jipslamоq — нығыздау, тығыздау
jismoniy — дене тәрбиелік
joylamoq — орналастыру; жайғастыру

K

kabi — сияқты
kafil — кепіл;
kafil bo'lmoq — кепіл болу
kamaymoq — азаю
kamgap — сөзге сараң; үнсіз
kamtar — қарапайым; сыпайы
karaxt — сезбейтін
kengash — кеңес
kerakli — керекті
kinoya — ауыспалы; астарлы
kuchaymoq — күшейтілу; нығайтылу; беку
kuzatmoq — ұзатушы; байқау; бақылау
ko'mak — көмек; жәрдем

L

latifa — анекдот; күлдіргі; күлкілі әңгіме
layoqat — қабілеттілік
libos — киім-кешек

loqayd — селқос; немқұрайды
loyiha — жоба
loyiq — лайық

M

madaniy — мәдени; мәдениеттендіру
maishiy — өмірлік; тұрмыстық
majburiy — мәжбүрлік; ықтиярсыз; мәжбүри
majburiyat — міндетті түрде; сөзсіз
maslak — сенім; наным; ой
mavhum — абстракты; дерексіз
maydon — алаң
ma'naviy — рухани
mobaynida — барысында
mos — сәйкес; сай
muhit — орта
mulk — мүлік

N

nafis — жұқа; жіңішке; нақышты
namunali — үлгілі
naqshli — әшекейлі
nazariy — теориялық
negadir — бір себептен
nihoayatda — аса; өте; тым; тіпті
nisbatan — салыстырғанда; біршама
noaniq — дәл емес; айқын емес; белгісіз
noiloj — лажсыздан
noyob — бағалы; құнды
noo'rin — орнысыз
nuqul — тұтас; тұтасымен

O

obodonlashtirish — гүлдендіру;
абаттандыру
ogohlantirmoq — ескерту
ohang — дыбыс үндестігі; сөз;
әуен
oid — тән; қатысты
oldingi — алдыңғы
olis — ұзақ; алыс
ommaviy — жаппай; бұқаралық
omonatchi — салым иесі
oqibat — нәтиже; салдар
oqlovchi — қорғаушы; жанкүйер
or — ар-ұят
oziq — азық-түлік
og'irlik — ауырлық

P

pardoz — әдемілеу; косметика
parhez — диета
parvoz — әуелеп ұшу; шарықтау
parcha — үзінді; сынық; қалдық
payqamoq — байқап қалу
pilla — жібек
pismiқ — тұйық адам
poyga — шабу; бәйге
puflamoq — үрлеу
pushaymon bo'lmoq — өкініп қалу; күйіну
po'stloq — қабық

Q

qabul — қабылдау
qamal — қамал; бекініс
qaramay — қарамастан
qaror — қаулы-қарар

qayta ishlash — қайта өңдеу
qisqacha — қысқаша
qiynamoq — азап көрсету
qiziqarli — қызықты
qolishmaslik — жол бермеу;
орын бермеу
qorishma — қоспа
quyidagi — төмендегі

R

rahmdil — рақымшыл; мейірімді;
мейірбан
raqib — бәсеке; бәсекелесу
rasmiy — ресми; формалды
rostdan — шынында; расында
rozilik — разылық
ruhlanmoq — шабыттандыру;
рухтандыру
ruksatnoma — жазбаша рұқсат
қағазы
ro'para — бетпе-бет

S

sahn — алаң
sanoat — өнеркәсіп; индустрия-
лық
sari — сайын
saviya — дәреже; деңгей
savodli — сауатты
sayyoh — саяхатшы
serqirra — көп қырлы
sifatli — сапалы
singari — дәл сол сияқты
sira — мүлдем; тіпті
siyosiy — саяси
soya — көлеңке

soz — саз; музыкалық инстру-
мент

sun'iy — жасанды

so'nggi — соңғы

T

taassurot — әсер

tabiat sirlari — табиғат сырлары

tadqiqot — зерттеу

talab — талап

taraf — бағыт

tarmoq — сала

tasviriy — бейнелеу

teskari — кері; арқа беті

tevarak — қоршаған орта

tibbiy — медициналық

tinmay — тынымсыз

tugatmoq — аяқтау

turlicha — түрліше

tuzalmoq — емделу

to'g'risi — дұрыс

U

ulamoq — жалғау; байлаулы;
ұлау

umrbod — мәңгі; мәңгілік

unutilmas — ұмытылмастық

unvon — атақ; дәреже

urf — әдет-ғұрып

ustun — баған

uyat — ұят

uzatmoq — ұзату

uzluksiz — үздіксіз

V

vahima — үрей; дүрлігіс

vakil — өкіл

vakolatxona — өкілеттілік

vatanparvar — ұлтжандылық

vijdonan — адалдық

vositachi — делдал

vujud — мән, мәніс, бүткіл дене

X

xafalik — ренжіту; өкпе

xarajat — қаржат

xavfsiz — қауіпсіздік

xiyonat — қиянат

xodim — қызметкер

xususiy — жекеменшік

xususiyat — ерекшелік

xo'jalik — қожалық

Y

yagona — жеке

yalpi — жалпы

yaqindan — жақында; жуырда

yarasha — сәйкес; лайық

ychmoq — шешу

yetakchi — жүргізетін; басқара-
тын

yengilmas — жеңілмес

yirik — ірі

yuksalmoq — жоғарылау

yuqori — жоғары

yutqizmoq — жеңілу

yo'lak — жолақ

yo'nalish — бағыт

Z

zamonaviy — заманауи

zararli — зиянды

zavq bilan — еліктегендік; беріл-
гендік

zimdan — жасырын; құпия түрде

ziyoli — интеллект; зиялы
zo'raymoq — күшею

O'

o'rmonchilik — орманшылық
o'rnashmoq — орнығу, тұрақтану

o'sma — ісік

o'smir — өспірім

o'xshamoq — ұқсас; ұқсау

o'ymakor — оймакерлік; өрнек салушы ұста

o'zaro — өзара

o'zboshimcha — өзбетінше; бағыттаушы

o'zgarish — өзгеріс; алмасу

o'g'it — тыңайтқыш

o'shanday — осындай

G'

g'alati — ақылға қонбайтын

g'altak — шұмақ; жіпті тарқату

g'amxo'rlik — қамқорлық

g'oyaviy — идеялық

g'uncha — гүлдің түйнегі; ша-шақ

g'o'za — қоза

SH

sharafli — құрметті; қадірлі; сыйлы

sharhlamoq — түсіндіру; коментария жасау

sha'n — намыс; ар; абырой

shunchalik — соншалық

sho'x — пысық; ширақ; епті

CH

chala — аяқталмаған

changimoq — шаңдану; шаң болу

chanqamoq — шөлдеу

chaqiriq — шақыру; сайлау

chet — өлке

chidamli — шыдамды

chinakam — нағыз

chiqim — шығым

chizma — сызба

chora — шара

chuqur — шұңқыр; терең

cho'chitmoq — шошыту

MUNDARIJA

O‘zbekiston – umumiy uyimiz (Shaxsi ma’lum gaplar).....	3
Ilm – taraqqiyot negizi (Shaxsi topilmas gaplar).....	9
Men yoqtirgan kasb (Shaxsi umumlashgan gaplar).....	15
Mening tengdoshlarim (So‘z-gaplar).....	21
Yaxshilik unutilmaydi (Gap bo‘laklari. Ega va uning ifodalanishi).....	27
Ekologiya va biz (Kesimning ifodalanishi. Ot-kesim; ularda -dir shaklining qo‘llanishi).....	34
Mehnat baxt keltirar (Fe‘l-kesim; ularda yordamchi fe‘llarning qo‘llanishi).....	41
Burch va huquqlarimiz (Izohlovchi; uning ifodalanishi).....	47
Me’moriy obidalar (Aniqlovchi va uning ifodalanishi).....	52
Vatan himoyachilari (Hol).....	60
O‘zbekiston sporti (Holning turlari va ifodalanishi).....	68
Barkamollik (To‘ldiruvchi; uning turlari).....	76
Ayol – oila ko‘rki (To‘ldiruvchining ifodalanishi).....	82
Milliy an‘analarimiz (Gaplarning ajratilgan bo‘laklari; ularda tinish belgilarining ishlatilishi).....	89
Ma’rifat fidoyilari (Kirish bo‘laklar).....	95
O‘zbek musavvirlari (Kiritma gap).....	100
San’at olamida (Sifatning otlashishi).....	108
Orzular qanotida (Undalma va uyushiq bo‘laklar; ularning qo‘llanishi va imlosi).....	115
O‘zbekcha-qozoqcha lug‘at.....	120

81.2 O‘zb
R 27

Rafiyev A. Muxamedjanova G.

O‘zbek tili: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinfi uchun darslik /A. Rafiyev. — Qayta ishlangan 4- nashri. — T: „O‘qituvchi“ NMIU, 2019.– 128 b. ISBN 978-9943-22-372-1

UO‘K: 811.512.133

KBK 81.2 O‘zb

ABDUROZIQ RAFIYEV, GULNORA MUXAMEDJANOVA

O‘ZBEK TILI

Qayta ishlangan 4- nashri

**Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan
maktablarning 9- sinfi uchun darslik**

*„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019*

Tarjimonlar: *G. Nishonova, U. Boyqobilov*

Muharrir *Z. Inyaminova*

Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*

Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*

Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Ahrarova*

Musahhih *E. Najimova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 012. 20.07.2018. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 09.04.2019. Bichimi 70x90¹/₁₆. Kegli 12 shponli. Tayms garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 9,36.

Hisob-nashriyot t. 8,0. Adadi 615 nusxa.

Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.

Shartnoma № 246-18

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchi-ning ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan; betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan; birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.